



Halima XUDOYBERDIYEVA

BILMASLAR

Ko'rdim qishloq, go'zal shaharlar ko'rdim,
Ohorlari ketib borar, bilmaslar.
Jamalaksoch paripaykarlar ko'rdim,
Bahorlari ketib borar, bilmaslar.

Tugmak bo'lsa yetmas belbog' uchlari,
Dunyo molin mahkam tishlar tishlari.
Bog'larining shirin zabon qushlari –
Olqorlari ketib borar, bilmaslar.

Otlari-ya, qorabayir otlari,
Gijingladi deb o'ylasam, dodladi.
Yoli bo'ron bo'lganligin yodladi –
Shunqorlari ketib borar, bilmaslar.

Kuzatib bu dunyoning o'r, qirini,
Bilmay qoldim kelmak, ketmak sirini.
Yolg'on yorlar yalashib bir-birini,
Chin yorlari ketib borar, bilmaslar.

Charsillagan bir o't yonar ichimda,
Men she'r aytsam, aytmadim til uchinda.
Bu talato'p, quv-quv, chop-chop ichinda,
Halima ham o'tib borar, bilmaslar.



O'ZBEKISTONDA

ta'lim

Iyun

6(39)

2024-yil

ISSN 2181-3744

Ilmiy-metodik, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy jurnal



HURMATLI JURNALISTLAR, QADRLI USTOZ IJODKORLAR!

Avvalo, sizlarni “27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” bayrami bilan chin qalbindan samimiy tabriklayman.

Kuni kecha Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimiz jurnalistlari va ijod ahliga yo'llangan bayram tabrigi, aytish mumkinki, siz ijodkorlarning mashaqqatli mehnatlaringizga berilgan yuksak mukofotdir.

Prezidentimiz o'z tabrigida aytgandek, bugungi kunda matbuot ishi, jurnalistlar faoliyati nafaqat “to'rtinchi hokimiyat”, balki mudofaa, xavfsizlik kabi hal qiluvchi sohaga aylanib bormoqda.

Aziz jurnalistlar!

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimida amalga oshirilayotgan yangiliklar va o'zgarishlarni xalqimizga sodda va xalqchil tilda tushuntirishdagi ijodiy hamkorligingizdan mamnunmiz.

Sizlarni yana bir bor kasb bayramingiz bilan samimiy qutlayman hamda ijodingizga ulkan muvaffaqiyat, shaxsiy hayotingizda baxt va omad tilab qolaman.

Hilola UMAROVA,
Maktabgacha va maktab
ta'limi vaziri

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi Amaliy fanlar bo'limi musiqa madaniyati fani metodisti Anvarbek Abdullayev:

– Bugungi kun o'qituvchisi bilim va mahoratini oshirishda, o'zaro tajriba almashishda, o'qish va o'rganish uchun xizmat qiladigan bosma nashrlardagi maqolalar bilan tanishib borishi zamon talabidir.



Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi.

Shavkat Mirziyoyev

USHBU SONDA:

Hulkar Bozorova. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish.....	1
Nozima Ramazonova. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida interfaol uslublardan foydalanishning ta’limiy ahamiyati.....	2
Nilufar Jumaboyeva. Boshlang‘ich sinflarda “Qirol va qirolichalar” yoxud “Ko‘chma do‘kon” rag‘batlantirish usulidan foydalanish.....	3
Dilshoda Rahimova. Ingliz tili darslarida yangicha innovatsion yondashuv texnologiyasi.....	4
Munisa Jahonova. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim samaradorligini ta’minlovchi usullar.....	5
Dilorom Elova. Boshlang‘ich ta’limda to‘garak mashg‘ulotlarini tashkil etish samarasi.....	6
Nargiza Abdurahmonova. Tarix darslarida samarali metodlarni qo‘llash.....	7
Maxbuba Axmedova. Biologiya fanini o‘qitishda fanlararo bog‘liqlik.....	8
Doniyor Hamidov. Tasviriy san‘at darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish konsepsiyasi.....	9
Feruza Hamidova. Boshlang‘ich ta’limda mustaqil fikrlash va ta’limiy tamoyillar.....	10
Kamola Boltayeva. Maktab o‘quvchilari o‘rtasida psixologik treninglar tashkil etish.....	11
Nargiza Mallayeva. Boshlang‘ich ta’limda innovatsion metodlar – sifat kafolati.....	12
Iroda Quvondiqova. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	13
Karomatullo Karimov. Ko‘kka intilgan bayrog‘im. Do‘stim Salom Tohirga. Salom Tohir she‘r aytar.....	14-15
Gulnoza Ravshanova. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarida talmeh san‘atining qo‘llanilishi.....	16-18
Marjona Muxtorova. Kim yaxshi?.....	18
Nozanin Abdusamatova. O‘zbegim. Yurtim jamoli. O‘zbekistonim. Onam mehri.....	19
Tўxtamuroд Набиев. Таълим сифати тилдан.....	20-21
Viloyat Tojiyeva, Shahnoza Mirsoliyeva. Ona tili va adabiyot darslarida ilg‘or tajribalarni takomillashtirish.....	22
Nargiza Shukurova. Matematik bilimlar – mantiqiy tafakkur asosi.....	23
Norbegim Buranova. Informatika darslarida kreativ yondashuv.....	24
Maftuna Muhiddinova. Yurtim bo‘ylab sayohat yoxud afsonaviy shaharlar ko‘rki.....	25
Sadoqat Jumanova. Shukronalik – buyuk fazilat.....	26
Noilaxon Xolboeva. Buxoro – qadimiy madaniyat beshigi.....	27
Gulruh Rizoyeva. Tilga bo‘ling hurmatda.....	28
Hilola Narzullayeva. Milliy an‘alarimiz – g‘ururimiz.....	29
Qodirjon Muhammadaminov. Oshiq fizik she‘ri. Tinchlikka shukur. Sen bahorsan.....	30-31
Nafisa Kubayeva. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish.....	32
Telman Boltayev. Kasb tanlashda psixologik yondashuv.....	33
Zulayxo Qurbonova. Dunyo. Men. Yolg‘iz ayol iztirobi. Suhbat. Kuymoq azobidan qutqazing meni... Ko‘zim ochib ko‘rgan uyim... Ko‘ngil–Ka‘ba. Dard yulib toshga otdim.....	34-35
Zilola Hakimova. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirishda ilg‘or tajribalardan foydalanish.....	36
Aktam Jo‘rayev. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonlari boshlandi.....	37
Surayyo Nurmatova. Kitobxonlik – davr talabi.....	38
G‘iyos To‘ychiyev. Matematika fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	39
Zebiniso Jabborova. Matematika darslarida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish.....	40
Zilola G‘ayirova. Jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni.....	41
Xadicha Choriyeva. Geografiya darslarida kreativ yondashuv samarasi.....	42
Jamshid Yuldashev. Tabiiy fanlarning o‘qitilishida mantiqiy va kreativ fikrlashning ahamiyati.....	43
Nodira Mahmudova. Tarix darslarida mustaqil ishlash va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmasini shakllantirish.....	44
Rustam Muzayev. O‘quvchilarning kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda PISA dasturining o‘rni.....	45
Madina Karamatillayeva. Milliy raqs xalqning nafis qadriyatlarini ifodasidir.....	46-47
O‘tkirbek Narbayev. Kutubxonachi kelajak kasbimi yoki...?.....	48
Xabiba Talliyeva. Ona tili va adabiyot darslarida ijodiy izlanish samarasi.....	49
Muhammadali Qambarov. O‘zing murabbiysan, hayot!.....	50
Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumiga o‘qishga marhamat!.....	51
Iqbol Narbayeva. Qadriyatlariga tayangan taraqqiyot.....	52
Maxmud Soliyev. Non qadri.....	53
Asror Kholmuratov. Main technological indicators of earth and earth working.....	54-55
Odinabonu Rahmatjonova. Oliygochim. Vatan. Jadidlar. Tushdagi suhbat.....	56-57
Lobar Shonazarova. Temir zanjir. Temir zanjirga birinchi qadam.....	58-59
Fotima Ostonova. Soxta axborot: global muammo va jamoatchilik ishonchining so‘nishi.....	60

Bosmaxonaga 29.06.2024-yilda topshirildi. Bosishga 29.06.2024-yilda ruxsat etildi. Ofset qog‘oziga ofset bosma usulida bosildi. Hajmi 8 bosma taboq. Bichimi 60x84 1/8. Adadi 500 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

“Aziz kitobxon” nashriyoti MCHJ matbaa bo‘limida sahifalandi va chop etildi. Korxonada manzili: Navoiy shahri, Navoiy ko‘chasi, 36-uy.

Jurnalda chop etilgan maqolalarda keltirilgan faktlar, raqamlar, ma’lumotlar va voqealar haqiqiylik uchun mualliflar va tahririyat mas’ul hisoblanadi.

O‘ZBEKISTONDA TA’LIM

6(39), 2024-yil

MUASSIS:
“IQTIDOR INFO” mas’uliyati
cheklangan jamiyati

Direktor:
Jo‘rayev Aktam Asliddinovich

TAHRIRIYAT:

Bosh muharrir:
Rajabov Faxriddin Toshpo‘latovich

Navbatchi muharrir:
Bozorova Gulnora Mustafoyevna

Dizayner-texnik muharrir:
Botirova Obida O‘ralovna

TAHRIR HAY’ATI:
Ro‘ziqulov Faxriddin Rasulovich
Psixologiya fanlari nomzodi, professor

Pulotov Abdurayim Murotovich
Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Ro‘ziqulova Amina Totliboyevna
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Phd)

Safarov Dilmurod Xalimovich
Psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Phd)

Xasanova Shohista Boboxolovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(Phd)

Shomiyev G‘olib O‘ktamovich
Iqtisod fanlari nomzodi

Pulatov Jaxongir Nazirovich
Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (Phd)

Xasanova Xurshida Naimovna
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (Phd)

Boboyorov Shuxrat Suvonqulovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (Phd)

Astanakulov Kamaliddin Maxkamovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (Phd)

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan 2021-yilning
2-avgust sanasida №1201-raqam bilan
ro‘yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Karmana tumani, Toshkent
ko‘chasi, 41-a uy.

Telefon: +99893-432-02-86.
<https://t.me/Uzbekistondatalim>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH



Hulkar BOZOROVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 20-umumiy o‘rta ta’lim
maktabining boshlang‘ich sinf
o‘qituvchisi



Barchamizga ayonki, umumta’lim maktablarida o‘qitilayotgan tabiiy fanlar o‘z ichiga biologiya, geografiya, fizika va astronomiya, kimyo, matematika o‘quv fanlarini qamrab oladi hamda ularning o‘zaro integratsiyasini ta’minlaydi. Shu sababli tabiiy fanlarni o‘rganishda o‘quvchilar olamning yaxlit, ajralmas bir butunligini anglab yetadi, ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, tadqiqotchilik ko‘nikmalari rivojlanadi, kompetentligi shakllanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish nafaqat ularning o‘zaro ichki, balki tashqi, ya’ni turdosh fanlar tarkibiga kiruvchi fanlar bilan integratsiyasi ham katta ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlarni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishda quyidagilarni keltirish mumkin:

- interfaol metodlar tushunchasini, uning mazmun-mohiyatini bilish;
- interfaol metodlarning ta’lim maqsadini amalga oshirishdagi o‘rni va rolini bilish;
- interfaol metodlarni fanlar bo‘yicha qo‘llash tamoyillarini bilish;
- ta’limiy va ishchanlik o‘yinlarini bilish;
- muammoli rivojlantiruvchi ta’lim metodlarini bilish;
- ko‘rgazmali o‘qitish usullarini bilish va egallash;
- ta’lim-tarbiyaning faollashtiruvchi usullarini bilish va egallashi kerak.

Jumladan, xalqaro miqyosda o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishda umumta’lim fanlari bo‘yicha fanlararo bog‘lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirishga e’tibor qaratilgan. Quyida shunday usullardan taqdim etishni joiz topdim:

“Mini-leksiya”. Mini-leksiya zamonaviy ta’limning effektiv usullaridan biri hisoblanadi. Bunda tabiiy fanlarning nazariy ma’lumotlarni tushuntirishda qo‘llash mumkin. Amal qilish mexanizmi quyidagicha: o‘qituvchi o‘n-yigirma daqiqa ichida ma’ruza o‘qiydi. O‘quvchilar diqqat bilan quloq solishadi. Ma’ruza o‘qib bo‘linganidan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga uch-besh daqiqa vaqt berib

ma’ruzaning asosiy mazmunini tezis shaklida konspekt qilishga imkon beradi. Konspekt tuzish jarayonida o‘quvchilar noaniqliklarni bartaraf etish maqsadida o‘qituvchiga yoki bir-birlariga savollar berishlari mumkin. “Mini-leksiya”ning ikkinchi ko‘rinishi – bu usul yuqorida ko‘rsatilgan strategiyaning boshqacha ko‘rinishi hisoblanadi.

“Doira” usuli. Bunda ishtirok etuvchilar doira shaklida turadilar. Usul quyidagicha boshlanadi: boshlovchi o‘quvchi “Toshkent” desa, undan o‘ngda turgan o‘quvchi shaharning oxirgi harfi, ya’ni “t” harfi bilan boshlanuvchi O‘zbekistondagi boshqa bir shahar nomini aytadi. Masalan, Toshkent – Termiz – Zarafshon – Namangan va hokazo. Qaysi o‘quvchi besh-o‘n soniya davomida shahar yoki joy nomini ayta olmay to‘xtalib qolsa, u o‘yindan chiqqan sanaladi. Ushbu usul bitta o‘quvchi qolguncha davom ettiriladi, eng oxirida qolgan o‘quvchi g‘alaba qozongan hisoblanadi.

“Bilimdon cho‘qqisi” usuli. Mazkur usulda katta format qog‘ozga tepaga qarab ko‘tarilib borgan tog‘ cho‘qqisi surati chiziladi. Tog‘lar surati ichiga yer qobig‘ida tarqalgan elementlar, osmon qismiga esa havoda tarqalgan gazlar nomi yoziladi. Dars davomida savollarga javob bergan o‘quvchilar yelimli qog‘ozlarga ismlari yozilib, tog‘ning eng pastki qismiga bir qator qilib yelimlanadi. Ikkinchi bor to‘g‘ri javob bergan o‘quvchi bir pog‘ona ko‘tariladi. Shu tarzda dars davomida cho‘qqiga birinchi bo‘lib chiqqan o‘quvchi “Eng faol o‘quvchi” deb topilib, rag‘bantlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’lim tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida har bir o‘qituvchi darslarni tashkil etishda o‘qitish usulining turli (og‘zaki bayon qilish, amaliy topshiriq, o‘quv atlas va xaritalar bilan ishlash) shakllaridan foydalanishi, dars berishning turli no-an’anaviy usullaridan (bahs-munozara, keys-stadi, boshqotirmalar) hamda loyihalash, interfaol, hamkorlikda ishlash, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarishga asoslangan ta’lim texnologiyalaridan foydalanishi tavsiya etiladi.

Nozima RAMAZONOVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 20-umumiy o'rta
ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL USLUBLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIMiy AHAMIYATI



Ta'limda ilg'or pedagogik tajriba, xususan, interfaol uslublarni qo'llash orqali ta'lim sifati yanada takomillashadi. Chunki interfaol metodlar odatda ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, mavzuga qiziqirish hamda shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf matematika darsida pedagogik mahorat, innovatsion yondashuv, yangilikka intilish va darslarni zamonaviy tarzda tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, matematikaning boshlang'ich sinflarda o'rgatilayotgan boshqa o'quv fanlari bilan o'zaro aloqadorligi hamda ushbu fanlararo aloqadorlik jihatlarni aniqlash, boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil faollikni, fikrlashni shakllantirishda fanlararo aloqadorlik mexanizmidan foydalanish ham dars samaradorligini ta'minlab beradi. Bundan tashqari, boshlang'ich ta'lim matematika darslarida interfaol metodlarni tanlash ularning o'quv jarayonini tashkil etish shakllari bilan mos kelishidir.

Quyida boshlang'ich sinf matematika darsida interfaol uslublardan taqdim etishni joiz topdim:

“Kungaboqar” metodi. Ushbu usulda o'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. O'qituvchi fanning mavzusidan kelib chiqib, o'rtaga bitta matematik mantiqiy topshiriqni tashlaydi. Har bir guruh barglardan kungaboqar yasab,

uning markaziga doira joylashtirib, barglar yopishtiradi. Topshiriqni bajarish ketma-ketligini ana shu barglarga yozishadi va birlashtirishadi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarishda tezkorlikka va albatta, matematik bilimlariga tayanadilar. Bu uslubdan o'tilgan mavzuni tushuntirish, uni mustahkamlash va takrorlash hamda o'quvchilar egallagan bilimlarni aniqlashda foydalanish mumkin.

“3/3” (“4/4”, “5/5” metodi. Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu yoki bo'lim, bob yuzasidan mavzuni mustahkamlash, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko'ra o'qituvchi mavzu yuzasidan uchta (4 ta, 5 ta ...) to'g'ri va unga teng nisbatda (3 ta, 4 ta, 5 ta ...) bo'lgan va noo'rin qo'llanilgan tushunchalar (raqamlar, belgilar, sonlar)dan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchilar ushbu tizimdan mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
- o'quvchilar mavzuga oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

“Bir son metodi”. Bu metod o'quvchilarni tezkorlikka, matematik bilimlarining rivojlanishiga, tafakkurini kengayishiga olib keladi. Buni jadvalga solib foydalansak bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda matematika fanidan tasavvur va bilimlarni o'zlashtirgan holda interfaol uslublarni qo'llanilganda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning ta'limiy ahamiyati katta bo'lib, ijobiy natijalarni beradi.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA “QIROL VA QIROLICHALAR” YOXUD “KO'CHMA DO'KON” RAG'BATLANTIRISH USULIDAN FOYDALANISH



Nilufar JUMABOJEVA,
Andijon viloyati Asaka tumanidagi
30-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini oshirishda to'g'ri baholash, rag'batlantirish usullari to'g'ri yo'lga qo'yilmog'i kerak. Rag'batlantirish o'quvchini ilhomlantiradi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi, yana ko'proq ma'lumotlarni olishga harakat qiladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflar uchun rag'batlantirish ta'lim-tarbiyani yuksaltirishda yaxshi samara beradi.

Qadimda odamlar qabila-qabila bo'lib yashaganlar. Har bir qabila o'zi uchun kerakli oziq-ovqat mahsulotlarini, kiyim-kechaklarni, oddiy ish qurollarini o'zi ishlab chiqargan va iste'mol qilgan. Bunday xo'jalik iqtisodiyotning eng dastlabki shakli bo'lib, u natural xo'jalik deb yuritiladi. Natural xo'jalikning har bir a'zosi asta-sekin muayyan mahsulot turini ishlab chiqarishga moslasha borgan. Vaqt o'tishi bilan har bir kasb egasi o'z mahsulotlarini boshqalar bilan ma'lum nisbatda almashtira boshlagan, ya'ni ayriboshlagan. Ayriboshlash – bir mahsulotni sotish, sotib olish yoki boshqasiga almashtirish degan ma'noni anglatadi. Agar bu holat dars mashg'ulotiga olib kirilsa, o'quvchilarning iqtisodiy bilimi oshishiga olib keladi.

Men o'z tajribamda o'tkazgan rag'batlantirish usuli o'quvchilarni hayotni o'rganishga, bozor iqtisodiyotida sotish, sotib olish yoki boshqasiga almashtirish ko'nikmalarini hosil qiladi.

Keling, sizni bu usul bilan tanishtirib chiqay.

Bu rag'bat usuli “Ko'chma do'kon” deb nomlanadi. “Ko'chma do'kon” mehnat, tasviriy san'at, tabiat va boshqa fanlardan o'quvchilar tomonidan yasalgan, tayyorlangan mahsulotlar, ota-onalar tomonidan berilgan mahsulotlar bilan liq to'la.

Ota-onalar yig'ilishida ota-onalar bilan suhbatlashib, o'rtada “Ko'chma do'kon” bo'lishini va buni har chorak yakunida sinfga tashrif buyurishni maslahatlashib oldik.

O'qish, matematika, ona tili va boshqa fanlar uchun kompyuterda pul shaklini hosil qildim. Har bir fandan darsda faol ishtirok etgan o'quvchi “a'lo”, “barakalla”, “4,5” ballga ega o'quvchi – “barakalla”, 4 ballga ega o'quvchi – “yaxshi”, 3 ballga ega o'quvchilar – “harakatchan” belgilarini olib, yig'ib boradilar. Hafta so'ngida belgilari tayyorlangan pullarga almashtiriladi. O'quvchilarga pullarni yig'ib borishi, “Ko'chma do'kon” kelganda zarur bo'lgan o'quv qurollarini sotib olishi, o'zi yaratgan mahsulotlarini ham sotishi yoki almashtirishi aytiladi. Endi o'quvchilar pul miqdorini ko'paytirishga, fanlardan a'lo baho olishga hamda o'z hunari mahsulotlarini sotib foyda topishga urinadilar. Ko'p mahsulot sotgan, ko'p xarid qilgan guruh eng boy guruh hisoblanadi.

Masalan, ona tili fanidan “Quyidagi so'zlardan ikkita gap tuzing va yozing” topshirig'i beriladi.

Kuz, fasl, daraxt, sariq, barglar, to'kilmoq.

Yil, fasl, to'rt, qish, yoz, kuz, bahor.

Gapni tez tuzib, darsda faol ishtirok etgan o'quvchiga “a'lo” belgisi beriladi. Bu belgi 1000 so'mga teng. Agar gapni tuzishda yoki tinish belgilarini qo'llashda xatoga yo'l qo'ysa, xatolar miqdoriga qarab “4,5”, “4”, “3” ball olishi mumkin. 4,5 ball – 700 so'm, 4 ball – 500 so'm, 3 ball – 200 so'm bilan belgilanadi.

O'quvchilar endi pullarini jamlab boradilar. Chorak oxirida eng ko'p yig'gan o'quvchi guruh qiroli va qirolichasi bo'ladi. Demak:

1-guruh “Qaldirg'och” qiroli (qirolichasi).

2-guruh “Burgut” qiroli (qirolichasi).

3-guruh “Lochin” qiroli (qirolichasi).

“Ko'chma do'kon” tashrif buyuradi. Ota-onalar tomonidan hamda o'quvchilar qo'l mehnati bilan to'ldirilgan do'kondan o'quvchilar o'zi uchun, oilasi, onasi, opasi, ukasi uchun kerakli o'quv qurollari, badiiy kitoblarni sotib olishadi.

INGLIZ TILI DARSLARIDA YANGICHA INNOVATSION YONDASHUV TEXNOLOGIYASI



Dilshoda RAHIMOVA,
Navoiy viloyati Nurota tumanidagi
19-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ingliz tili fani o'qituvchisi

muhim o'rin egallashini alohida ta'kidlash joiz. Chunki o'qituvchi o'quvchilarga yangi bilimlarni taqdim etib, ularni o'zlashtirish usullarini o'rgatadi.

Zamonaviy innovatsion yangicha yondashuv ingliz tili ta'limida yod olishga yo'naltirilgan kontent o'rniga o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, tanqidiy, kreativ va ijodiy fikrlash, jamoada ishlash kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yimoqda. Shu bilan birga fanlarda berilayotgan mavzu va topshiriqlar maktab bitiruvchilarining jamiyatda o'z o'rinlarini topishga ko'maklashuvchi hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ko'nikma shakllanmagani hisobiga o'quvchilar ingliz tilini o'rganish jarayonida duch keladigan masalalar, muammolarga javob topa olmasligi mumkin. Agar o'quvchida muammoga keng qamrovli yechim topish ko'nikmasi shakllantirilsa, muammoga duch kelganda unga qanday yechim topish ustida bosh qotiradi. Mas'uliyat, ishtiyoq, tanqidiy fikrlash, muammoga o'ziga xos uslubda yechim topish kabi ko'nikmalar asosida shaxs xarakteri shakllanadi.

Ingliz tili darslarida yangicha innovatsion yondashuv texnologiyasi darslarning muvaffaqiyati quyidagi masalalarni to'g'ri hal etishga bog'liq:

- o'quvchilarning ingliz tili darsiga qizg'in tayyorlik ko'rishiga;
- ushbu tilni o'rganishdagi ishtiyoq oshishiga;
- ular o'rtasida o'zaro hamkorlik, yordam uyushirilishiga;
- o'quvchilarning o'z fikr-mulohazalarini to'liq bayon qilishi va mantiqan dalillashiga;
- o'quvchilarda boshqalarning fikrini sabot va chidam bilan tinglash ko'nikmalarining hosil qilinganligiga;
- o'qituvchining iqtidori, o'quvchilarning bilim faoliyatini faollashtira olish ko'nikma va malakalarini egallaganlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Xullas, umumta'lim maktablarining ingliz tili darslarida yangicha innovatsion yondashuvni tashkil etish, shuningdek, tilni bilish jarayonini samarali o'rganishning muhim shartlaridan biri – ularida asosiy bilish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA TA'LIM SAMARADORLIGINI TA'MINLOVCHI USULLAR



Munisa JAHONOVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 18-umumiy
o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Kelajakda yurtimiz yanada obod, erkin va farovon, iqtisodiy jihatdan baquvvat bo'lishi ko'p jihatdan bugungi yoshlarning iqtidoriga, iste'dodiga, chuqur tafakkurli, bilimdon va ma'naviyatli bo'lishiga bog'liq. Yosh avlodning barkamol bo'lib kamol topishida boshlang'ich ta'limning ahamiyati katta bo'lib, bu o'qituvchidan chuqur izlanish, mahorat va kreativ yondashuvni talab etadi. Chunki boshlang'ich sinflarga ta'lim berishda yangi, samarador texnologiyalarni yaratish, uni tajribada sinash va shu jarayonda yanada mukammallashgan yo'nalishni hosil qilish lozim. Mukammal dastur, takomillashgan darslik, zamonaviy usul va texnologiyalar ta'lim jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yishda sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim darslari oldiga qo'yilgan vazifalarning asosiysi, yosh avlodda mustaqil fikrlash ko'nikmasini shakllantirishdan iborat. Maktabda boshlang'ich sinf o'qituvchilarining malakasini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida oshirishni tashkil etish ta'lim mazmunini boyitadi. Ta'limiy maqsadni amalga oshirishning eng qisqa maqbul yo'lini, usullarini tanlashdan avval pedagoglarning o'zlarini jarayon ichiga olib kirib, muammo yechimini topishga yo'l ko'rsatib, o'quvchi holatiga tushirish lozim bo'ladi. Shundagina o'qituvchi o'quvchini yanada ko'proq tushunadi, uning tuyg'ularini his qila oladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida joriy etishda innovatsion yondashuvni tatbiq etsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilarning o'qish malakasini rivojlantirish va nutqini o'stirishda ilg'or usullardan foydalanish hozirda davr talabiga aylandi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi mantiqiy metodlar interfaol usullarda o'z aksini topadi. Dars berish usullari ta'lim beruvchining faoliyatini tashkillashtirish vositasidir. Ta'limga muhokama va rivojlantiruvchi xarakter beruvchi, o'quvchilarning mahsuldor faoliyatini ta'minlovchi dars berish va o'qitish usullari interfaol usullar deyiladi. Ana

shunday interfaol metod va texnologiyalardan namunalar keltiramiz:

“Parashyutdan kim birinchi bo'lib sakraydi?” ta'limiy o'yini. Mazkur o'yin o'quvchilarning so'z ma'nosini to'g'ri tushunishlariga yordam beradi. O'quvchilar uchun notanish so'zlar parashyut taxtasiga teriladi, unga ma'nodosh va yaqin ma'noli so'zlar stol ustiga aralastirilib terib qo'yiladi. Xat-taxtaga chiqqan o'quvchi so'zning ma'nosiga mosini “parashyut” tagiga qo'yib, parashyutni so'zga mos joyiga keltirib qo'yadi, ya'ni parashyutdan “to'g'ri sakraydi”.

“Motivatsiya” usuli. Bu boshlang'ich ta'limda darslarni boshlash uchun mo'ljallangan qisqa mashqlardir. Bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'siqni yoqotishga qaratilgan usul sanaladi. Bu metod asosida guruh o'quvchilari orasidagi ishonch, hurmat, o'zaro yaqinlikni his etishga o'rgatish maqsadi yotadi.

“Aqliy hamla” usuli. Mazkur metod asosida chegaralangan vaqt ichida aqlning tezkor harakati orqali o'ziga xos muammo, vazifa xususida barcha o'quvchilarning imkon qadar ko'proq g'oyalarni yaratishi maqsad qilingan. Topshiriq barcha uchun yakka holda bajarilib, fikrlar umumlashtirilib bittasi ustida to'xtaladi.

1. Choyga nima solganda choy shirin bo'ladi?
2. Nimadan buterbrod tayyorlash mumkin?
3. Bolalarga nima ichish foydali, qahvami yoki kakao?
4. Sizga qanday muzqaymoqlar yoqadi?
5. Ko'p shokolad yeyish mumkinmi?

Demak, boshlang'ich ta'limda turli xil didaktik o'yinlar, tarqatma materiallar, amaliy ish, interfaol metodlar, ayniqsa, dars jarayonida AKTdan foydalanish orqali sinfdagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni ham mavzuni qulay usulda oson o'zlashtirishga erishish mumkin. Bu ta'lim samaradorligini yuqori sifat darajasiga ko'tarishga yordam beradi.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TO'GARAK MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH SAMARASI

Bugun o'quvchilarga faqatgina nazariy bilimlar berishning o'zi yetarli emas. Ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish davr talabi bo'lib qolmoqda. Bunda darslardan tashqari tashkil etiladigan to'garak mashg'ulotlarining o'rni beqiyos ekanini doimo yodda tutish, ularga yuqori saviyada tayyorgarlik ko'rish biz – pedagoglar oldida turgan asosiy vazifadir. Ayniqsa, bu vazifa boshlang'ich ta'limda aynan e'tibor markazida bo'lishi lozim. Zero, ilg'or pedagogik tajriba o'qituvchi tomonidan qo'llaniladigan ish shakli va usullari, to'garak mashg'ulotlari, uslub va vositalar hamda innovatsion texnologiyalardir. Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish, o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi, sifatli o'zgarishlar kiritish, o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish yangi ko'rinishdagi o'quv jarayonini modellashtirish muammolarini yechishga sabab bo'ladi. Ijodiy ishlaydigan o'qituvchi faqatgina muvaffaqiyatli o'qitish va tarbiyalash ko'nikma va malakalariga ham ega bo'lishi zarur. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalarini umumlashtirishga harakat qiladi. Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, o'z fanining muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishini, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishini va o'quvchilarni ham ijodiy fikrlashga, iqtidorini yuzaga chiqarishga o'rgata olishini talab qiladi. Ilg'or o'qituvchilar o'qitish metodlarini tanlashda to'garak mashg'ulotlariga ham alohida e'tibor berishi lozim.

Boshlang'ich ta'limda to'garakning ijobiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:


- o'quvchilarning vaqtdan oqilona foydalanish;
- qo'shimcha ta'lim-tarbiya olish;
- yosh avlodning qobiliyatni rivojlantirish va yuzaga chiqarish;
- turli illatlarga aralashuvlardan saqlanish;
- kasb tanlashga bo'lgan muhabbatni uyg'otish;
- og'zaki va yozma nutqning rivojlanishi;
- kirishuvchanlik qobiliyatini yuzaga keltirish.

Qo'shimcha to'garaklarning tashkil qilinishi o'qituvchi va ota-onalarning o'zaro aloqada bo'lishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, to'garak ishi o'quvchilar uchun qiziqishlariga qarab ixtiyoriy ravishda tanlangan faoliyatning shaxsiyat uchun muhim, qadriyatlariga asoslangan, individual yondashishga asoslanishi lozim. Bu o'quvchilarga kasbiy va bilim jihatidan o'zini o'zi belgilashda yordam beradi. Darsdan so'ng olingan bilimlarni rivojlantirish ko'nikmalarini, dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Albatta, to'garaklar faoliyatini turli shakllarda tashkil etish mumkin.



Dilorom ELOVA,
Navoiy viloyati Zarafshon
shahridagi 2-umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich sinf
o'qituvchisi

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda ta'lim tizimida bo'layotgan islohotlar mazmuni sohada yangilanish va samaradorlikni ko'rsatyapti. Shunday ekan, ta'lim tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim sohasida qabul qilinayotgan qaror va farmoyishlar muassasalar faoliyatini yanada rivojlantirish va boyitishga, boshlang'ich ta'limda to'garak mashg'ulotlarining tashkil etish samarasiga xizmat qilibgina qolmay, balki tizimda takomillashuvni va samaradorlikni ham oshirmoqda. Shu bilan birga yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta muhim tashabbusni amaliyotga tatbiq etish ulg'ayib kelayotgan yoshlar iqtidorini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.



TARIX DARSLARIDA SAMARALI METODLARNI QO'LLASH

Nargiza ABDURAHMONOVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 18-umumiy o'rta
ta'lim maktabining tarix fani
o'qituvchisi

Bugungi internet rivojlangan davrda o'quvchi uchun haqiqiy bilim manbai o'qituvchi hamda darslik-kitoblar emas, balki qo'shimcha manbalar sanaladi. Shuning uchun har bir fan o'qituvchisi darslik bilan chegaralanmay, qo'shimcha ma'lumotlar, innovatsion usullardan foydalangan holda darslarni qiziqarli, mazmunli va samarali bo'lishini ta'minlashi joiz. Ayniqsa, tarix fani o'qituvchisining ijodkorligi va mahorati, mavzularni o'qitish jarayonida ko'rgazmali qurollar va mediaresurslarni to'g'ri tanlab, o'z o'rni ishlatishi dars samarasini belgilab beradi. Shuningdek, hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlarini keng qo'llash, foydalanish ham yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Tarix fanini o'qitishda ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. Samarali metodlarni qo'llash o'quvchilarni faollashtirishga va mustaqil fikrlashga undaydi. Darsga mos metodlar qo'llanilganda o'qituvchi o'quvchini faol ishtirok etishga chorlaydi.

“Bu kim?” usuli. Ushbu metod o'quvchilarning tarixiy shaxslar haqida ma'lumotlarni qanchalik o'zlashtirganliklarini tekshirish va mavjud bilimlarni mustahkamlash uchun qo'llaniladi. Buning uchun bir o'quvchi xattaxtaga taklif qilinadi va unga o'qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan savollar, rasmlar, yopiq testlar, variantli testlar topshiriq sifatida beriladi. O'quvchilar topshiriqda belgilangan belgi va xususiyatlariga asoslanib, tarixiy shaxsning kimligini topishlari talab etiladi.

Masalan, Yunonlar nafaqat podshohlar va zodagonlar uchun saroylar va maqbaralar, balki jamoa foydalanishi uchun binolar ham barpo etishgan. Barcha zamonlarda olimlar ilmiy masala yechimini topgan yunon fizigi va matematigi ...ning “Evrika!” (“Topdim, topdim!”) qiyqirig'ini takrorlab yurishadi. Ehtimol, bu bir afsonadir, ammo yunonlar to'la ishonch bilan ... yorug'likni ko'zgu orqali jamlab, Sirakuza ustiga hujum qilib kelayotgan rimliklarning kemalarini yondirib yuborgani haqida

hikoya qiladi. ... richag (dastak) qonunini ishlab chiqdi va mashhur bo'lib ketgan bir iborani aytdi: “Menga tayanch nuqtasini topib bering, Yerni o'z o'qidan chiqarib yuboraman!”

“Juftlikdagi bellashuv” usuli. Mazkur usul orqali o'quvchilarning tarix faniga oid bilimlari sinovdan o'tkaziladi. Bunda sinfdagi o'quvchilar soniga teng raqamlar yozilgan kartochkalar tayyorlanadi va qutichaga solib qo'yiladi. Bilimdon o'quvchi tomonidan jurnaldagi raqami topilgan o'quvchilar savol-javob uyushtirishadi va mavzular mustahkamlanadi. Mazkur usul guruhlariga bo'lingan holda tashkil etiladi.

1-guruhga: 1. Marafoncha yugurish necha kilometrdan iborat?
2. Hal qiluvchi jangda yunonlar g'alabasining sababi nimada edi?

2-guruhga: 1. Eng oxirgi hal qiluvchi jang qayerda bo'lgan?
2. Yunonlarni makedonlarga qarshi kurashga chorlagan mashhur notiq kim?

“Tanqidiy tafakkur” usuli. Ushbu usul tarix darslarida qo'yilgan masala yoki muammo yuzasidan o'z fikrini bayon qilish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy qayta idrok etish, o'z nuqtayi nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishiga asoslangan.

Masalan, “Odob-axloq qoidalariga amal qilish kerakmi?”, “Qadriyatlariga hamma rioya qilishi kerakmi?”

Bu metod o'qituvchiga o'quvchilarning tinglash va muloqot qilish ko'nikmalarini, turli nuqtayi nazardan tushunish malakasini rivojlantirish, bahsli masalalarni hal qilish, tahliliy muhohada yuritish va fikrlash layoqatini oshirish, ularning o'z fikrini shakllantirish mahoratini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Xullas, har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi tarixchi-pedagoglarning metodik bilimlarga ega bo'lishlari uchun ham samarali metodlar muhim ahamiyatga ega.



BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA FANLARARO BOG'LIQLIK



Maxbuba AXMEDOVA,
Navoiy shahridagi 7-umumiy o'rta
ta'lim maktabining biologiya fani
o'qituvchisi

O'quvchilarning tabiat haqidagi ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, tafakkurini rivojlantirishda, tabiat qonunlarini asoslab berishda biologiya, tabiiyot va geografiya, fizika, kimyo kabi o'quv fanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Odatda yosh avlod tabiatda ro'y berayotgan hodisa va jarayonlarni, tirik organizmlarning rivojlanishini aynan biologiya fanining ilk bosqichlarida egallaydi. O'quvchining ichki motivatsiyasi qanchalik shakllanganligi tabiiy fanga qiziqishi, atrof-muhit muammolarini anglashi va uni hal qilishda muhim qarorlarni qabul qilishni bilishi hamda tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sirini tahlil qilishda muhim o'rin egallaydi. Biologiya fanining ahamiyati ham uning fan-texnika va texnologiya taraqqiyotida, integratsion yondashuvga asoslanganligida va ishlab chiqarish sohalari, kundalik hayotda tutgan o'rni

bilan belgilanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirish orqali biologik bilimlarni amalda qo'llay olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Xususan, biologiya fanini o'rganish natijasida suvning inson va hayvonlar uchun ahamiyati, suvni behudaga isrof qilmaslik zarurligi, inson bilan tabiatning bog'liqligi, ovqatlanish gigiyenasi, jonli va jonsiz tabiat, inson tanasining tuzilishi, chekish, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalarning inson organizmiga ta'siri, gulli o'simliklar haqida umumiy ma'lumotlar, O'zbekistondagi yirik qo'riqxonalar kabi ma'lumotlarga ega bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega.

Biologiya fanini o'qitishda fanlararo bog'liqlikni ta'minlashda quyidagi metodlar samarali sanaladi:

"Hayvonlar xaritasi" usuli. Bu usul hayvonlar yoki o'simliklarning tarqalish joylarini o'quvchilar eslab qolishlari uchun qo'llaniladi. Bunda o'quvchilarga "xarita" va hayvonlar nomlari yozilgan varaqchalar beriladi. O'quvchilar hayvon yoki o'simliklarni ular taqalgan hududlarga joylashtirib chiqishadi. Masalan:

Qora dengiz – lansetnik, ildizog'iz meduza – O'rta Osiyo, Kavkaz, Qrim – qoraqurt, Yaponiya – tut ipak qurti, Orol – laqqa, Sirdaryo – bakra, Zarafshon – mo'ylov baliq, Qizilqum – tez kaltakesak, Mirzacho'l – qalqontumshuq.

"Qarsak" usuli orqali mavzu mustahkamlanadi. Bunda o'qituvchi tomonidan so'z va jumlar, gaplar aytiladi. Bunda ona tili fani bilan bog'lanadi. Aytilganlar mavzuga tegishli bo'lsa, o'quvchilar qarsak chalishadi. Tegishli bo'lmasa, qarsak chalmaydi.

Masalan, hujayralar tuzilishiga ko'ra prokariot va eukariotlar deb ataladi. Bu tegishli. Hujayradagi xromosomalar soni turning tuzilish darajasiga bog'liq emas. Bu tegishli emas.

"Sinkveyn, breyn-ring" usullarida tezkor savollar va boshqotirmalar beriladi. Bunda sinf o'quvchilari to'rt guruhga bo'linadi. Har bir guruhga alohida topshiriqlar beriladi. Kichik guruhlariga ishlash tarzida mavzu mustahkamlanadi. Mazkur usul ham ingliz tili, tarix kabi fanlar bilan bog'lanadi.

1-guruhga: "A" vitaminning kashf etilishi, ta'siri va qaysi oziq-ovqatlar tarkibida bo'lishi haqida fikr bildirish.

2-guruhga: "B" vitaminning kashf etilishi, ta'siri va qaysi oziq-ovqatlar tarkibida bo'lishi haqida fikr bildirish.

3-guruhga: "C" vitaminning kashf etilishi, ta'siri va qaysi oziq-ovqatlar tarkibida bo'lishi haqida fikr bildirish.

4-guruhga: "D" vitaminning kashf etilishi, ta'siri va qaysi oziq-ovqatlar tarkibida bo'lishi haqida fikr bildirish.

Xullas, biologiya fanini o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini individual tarzda tashkil etish asosan fanlararo bog'liqlikni ta'minlagan holda darsdan va sinfdan tashqari ishlarda ham foydalanishga bog'liq.



TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH KONSEPSIYASI

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, hozirda ayrim o'rta umumta'lim maktablarida tasviriy san'at fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarni yuksaltirish maqsadida axborot texnologiyalari qo'llanilib kelinadi. Afsuski, bu jarayon o'quvchilarning ta'lim olishida emas, o'qituvchilarning hujjatlarini rasmiylashtirilishi hamda o'quvchilarga dars jarayonida videomateriallar ko'rsatish uchungina xizmat qilmoqda. Mustaqil ta'lim olish kompetensiyalarini takomillashtirish, shuningdek, sinfda o'tiladigan mashg'ulotlar o'quvchi-yoshlarning yetuk ijodkor bo'lib voyaga yetishlarida yetarli emasligini e'tiborga olib, ularni ko'proq mustaqil ta'lim olishi, mustaqil ijod qilishiga o'rgatish muhimdir. Chunki tasviriy san'atni pedagogik texnologiyasi – bu tasviriy san'at o'qituvchisining o'quvchilarga ma'lum darajada va sharoitda san'at bilimi hamda malakasini berish vositalari asosida oldindan belgilangan maqsadga erishish hamda bu vazifani bajarishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon hisoblanadi. Yangi zamon bilan uyg'un pedagogik faoliyat butun pedagogik tizimni sifat jihatidan takomillashtirishda yuqori darajadagi natijalarga erishuvni kafolatlashga xizmat qiladigan yangi g'oyalarni, jarayonlarni, vositalar, usul, uslublarning yaxlit holatdagi ifodalanishidir.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida o'qitiladigan fanlar mazmunini modernizatsiyalashni o'quv dasturlari, darsliklarni hozirgi zamon fanlari, texnikasi, texnologiyalari hamda ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan o'zgarishlarga moslashtirish jarayonlari dadil qadamlar bilan amalga oshirilmoqda. Tasviriy san'at fanidagi yangilanish jarayonlarini ta'lim amaliyotiga tatbiq etish o'ziga xos murakkab, ko'p qirrali muammolardan hisoblanadi. Mazkur fanda ta'lim jarayonining barcha tarkibiy qismlariga taalluqli ijtimoiy tizim bo'lib, bunda o'quvchi va o'qituvchi faoliyati, jarayon maqsadi, mazmuni, metodi, shakli, natijasi, shart-sharoitlari, texnologiyalar va uni boshqarishga samarali ta'sir etadi.

Tasviriy san'at darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish konsepsiyasi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– o'quvchilarda mustaqil rasm ishlash va badiiy ijod bo'yicha ko'nikma hamda malaka hosil qilish;

Doniyor HAMIDOV,
Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi
18-umumiy o'rta ta'lim maktabining
tasviriy san'at fani o'qituvchisi

- o'zbek va jahon xalqlari tasviriy, amaliy va me'morchilik san'ati bilan yaqindan tanishtirish va chuqur o'rgatish;
- tasviriy san'at o'qitish metodikasining o'ziga xos rivojlanish tarixi, maqsad va vazifalari, nazariy asoslari haqida ma'lumot berish;
- o'quvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari, tartibi bilan tanishtirish;
- tasviriy san'at metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni hosil qilish va o'stirish;
- tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslari haqidagi bilimlarni puxta egallashga yordam berish.

Demak, tasviriy san'at o'qitish metodikasi pedagogik ilmiy fan sifatida tajribada sinalgan ishlarning nazariy qismlarini umumlashtirib, amaliyotda samarali natijalar bergan o'qitish metodlarini taqdim etadi. Metodika ta'lim va tarbiyaning rivojlanish jarayonini o'rganadi. Pedagogik mahorat ko'nikmalarini o'rganish uni egallashga qaratilgan iste'dod, qobiliyat va ishtiyoq (moyilliklar) mavjud bo'lishini talab etadi, chunki metodika fani san'at pedagogikasining mashaqqatli, murakkab va juda mas'uliyatli sohasidir.

Xulosa o'rinda shuni alohida ta'kidlash joizki, tasviriy san'at darslarini tashkil etish texnologiyasi bir mazmunda bo'lsa-da, ulardagi ta'lim berish texnologiyasi, albatta, bir-biridan farqlanadi. Shuni o'quvchiga to'g'ri anglatgan holda ish tutish mazkur fan samaradorligini ta'minlab beradi.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MUSTAQIL FIKRLASH VA TA'LIMY TAMOYILLAR

Feruza HAMIDOVA,
Navoiy viloyati Zarafshon
shahridagi 2-umumiy o'rta ta'lim
maktabining boshlang'ich
sinf o'qituvchisi



Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shadigan malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bevosita ta'lim tizimining rivojiga bog'liq bo'lib, bu borada mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, tadbirkor, tashabbuskor shaxsni voyaga yetkazish bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirish ularning shaxsiy faoliyati ta'limning samarali usullari bo'lib, bu jarayonda o'quvchilar subyekt mavqeyini egallaydi. Bunday vaziyatda shaxsiy yondashuv hosil bo'lib, zo'riqish metodlari o'rnini bilish jarayonida o'quvchilarning kuchlarini birlashtirish metodi egallaydi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'qituvchi faoliyat obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchilar muayyan darajadagi mustaqillikka ega bo'ladi. Bilish faoliyatining subyekt-subyekt xarakterga ega bo'lishi zamonaviy didaktika talablariga mos kelib, bu o'z navbatida bilish faoliyatini rivojlantirish vaziyatida birinchi darajali ehtiyojga aylanmoqda. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar hamda tamoyillar tushuniladi. Aynan bu jarayon o'quvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq o'quvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarining zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bunda o'quvchilar uchun sifatli ta'limni, tarbiyani ta'minlash, ularning iste'dodini shakllantirish va namoyon etish maqsadida ularga zarur sharoitlar yaratish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish muhimdir.

Boshlang'ich ta'limda mustaqil fikrlash va ta'limiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'limda ta'lim ustuvorligining tan olinishi;
- yosh avlodning ta'lim olish shaklini tanlash erkinligi;

- ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi;
- ilk maktab davrida ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi;
- ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarining singdirilganligi;
- ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, mustaqillik hamda demokratik xususiyati;
- boshlang'ich ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- yetti yosh bo'lgan bolalarni o'n bir yil davomida umumiy o'rta ta'limga tayyorlashning majburiyati;
- davlat ta'lim standartlari va davlat ta'lim talablari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- boshlang'ich ta'limda o'quv dasturlarini tanlashga doir yondashuvning yagonaligi va tabaqalashtirilganligi;
- insonning butun hayoti davomida ta'lim olishga intilishi zarurligi;
- jamiyatda pedagoglarni ijtimoiy himoya qilishning kafolatlanganligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi;
- mustaqil fikrlash, bilimlilik, qobiliyatlilik va iste'dodning rag'batlantirilishi;
- boshlang'ich ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi;
- ta'lim faoliyati sohasidagi ochiqlik va shaffoflik.

Bundan tashqari, boshlang'ich ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan foydalanish mustaqil fikrlashga o'rgatishning zarurati hisoblanadi. Bu o'z navbatida mamlakatda ta'lim jarayonining tez sur'atlarda rivojlanayotganligi sababli ayni davrda ta'lim sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ammo bu sohaga o'qitishning yangi mazmun, shakl, metod va vositalarini joriy etish bo'yicha pedagogik ilmiy tadqiqotlarning joriy etish darajasini hozircha yetarli deb bo'lmaydi.

Xullas, yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir pedagog ta'limga oid yangiliklarni muntazam o'rganib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay olishi ta'lim tamoyilini belgilab beradi.

MAKTAB O'QUVCHILARI O'RTASIDA PSIXOLOGIK TRENINGLAR TASHKIL ETISH



Kamola BOLTAYEVA,
Qashqadaryo viloyati
Shahrisabz tumanidagi
35-umumiy o'rta ta'lim
maktabi psixologi



Yosh avlodni psixologik rivojlantirish maqsadida qo'llanilayotgan ko'rgazmali targ'ibot, ota-onalar yig'ilishi, suhbat va maslahatlar, ota-onalar konferensiyasi, anketalar, ochiq eshiklar kuni, davra suhbatlari umumta'lim maktablarida o'z samarasini bermoqda. Eng quvonarlisi, turli shakl va ko'rinishlarda psixologlar tomonidan tashkil etilayotgan treninglar kutilgan ijobiy natijasini bermoqda. Ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy-psixologik trening muhim ahamiyatga ega bo'lib, darsda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabat, darsni o'zlashtirish, fikr yuritish, bilimga bo'lgan qiziqish va shaxsning faolligini oshiradi. Nafaqat darslardagi treninglar, balki psixologik trening ham o'quvchining o'zlashtirishini yaxshilaydi, bilish jarayonini mukammallashtiradi, o'qituvchi bilan o'quvchining muomala jarayonida muammoli vaziyatlarni yechishni yengilashtiradi. Bundan tashqari o'zaro munosabatlarning yaxshilanishiga olib keladi. Uni o'tkazish orqali shaxslarning bir-birini tushunish, muomala madaniyatini oshirish, ichki muammolarni hal etish imkoniyati tug'iladi. Psixologik treningni muvaffaqiyatli o'tishi o'qituvchi bilan o'quvchilar hamkorligining faol harakatlarini talab etadi. Natijada ishtirokchilar o'zining bilimi, salbiy yoki ijobiy emotsiyalarni qabul qilishga tayyorligi va o'z navbatida psixologik himoya, xulq-atvorni shakllantirib borish zarurligini tushunadi. Shuningdek, mashg'ulotlarni mazmunli o'tkazish darsda o'qituvchi va o'quvchi qarashlarini tenglashtiradi. Mashg'ulotning maqsadi va vazifasiga asoslanib murakkablashtirish yoki soddalashtirish mumkin. Tuzilishiga ko'ra roli o'yinlar va munozarali bahslashuvni kiritish mumkin.

Psixologik treninglarni tashkil etish va o'tkazish jarayonining nazariy tadqiqi haqida trening mashg'uloti jarayo-

nida ma'lum qoidalarga rioya qilinishi bilan xarakterlanadi:

- o'quvchilarning bir-biriga samimiyligi va xayrixohligi;
- ularning bir-biriga ishonishi;
- treningda qatnashuvchining faoliyatiga va muloqot usullariga baho berish;
- o'z taassurotlarini treningda, ya'ni boshqaruvchiga ma'lum qila olishi;
- treningdagi topshiriqlarni bajarishda faqat ijodiy tasavvurga mo'ljal bo'lishi;
- bir-birlaridagi jismoniy nuqsonlarga e'tibor bermaslik;
- trening mashg'uloti jarayonida hech kimga hech qanday maslahat bermaslik;
- trening paytida ro'y bergan hodisa yoki narsa tashqariga chiqmasligi;
- aynan psixologik treningda qatnashuvchilar guruhlarining barcha a'zolarini roziligi bilan ishtirok etishlari kerakligi;
- mashg'ulot jarayonida ro'y berib turadigan qiyinchiliklarni nazarda tutish zarurligi.

Xullas, har bir umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologlari ota-onalar, sinf rahbarlari va ma'muriyat bilan kelishgan holda o'quv yilining boshidanoq psixologik treninglar tashkil etishlari lozim. Bunda o'quvchilarning oilalari bilan ishlashni tashkil etishlari, ularga vazifalarni tushunishlariga yordam berish uchun ota-onalar bilan ishlashning barcha shakllaridan foydalanishlari kerak. Zero, psixologik treninglar o'quvchi va kattalar o'rtasidagi izchil aloqalarni chuqurlashtirish, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION METODLAR – SIFAT KAFOLATI

Nargiza MALLAYEVA,
Navoiy viloyati Zarafshon
shahridagi 2-umumiy o'rta
ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Boshlang'ich ta'limda ta'lim sifati, uning maqsad va vazifalarini, mazmunini, shakl, metod, texnologiya va vositalarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Har bir dars mashg'uloti o'quvchilarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga, o'quv adabiyotlaridan kerakli axborotlarni mustaqil topishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Dars mashg'uloti sifati o'qilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga pedagogning mas'uliyat bilan yondashishi, uning mazmunini o'quvchilarga yetkazishga qaratilgan mahorati, mashg'ulotni bugungi kun talabi asosida tashkil etish va boshqarish uslubiy faoliyati bilan belgilanadi. Pedagog mavzuni yoritish uchun uning muhim bo'lgan nazariya bilan asoslanganligi, fikrlarni mantiqan bog'langanligini tushuntira olishi zarur. Jumladan, boshlang'ich sinflarda innovatsion usullar, ta'limiy o'yinlar tanlashning yana muhim jihatlardan biri shuki, o'quvchilarda sog'lom raqobat ruhini tarbiyalashdir. O'yin natijasiga ko'ra g'olib va mag'lub guruh yoki o'quvchilarning o'zaro munosabatlarini odob-axloq normalari asosida to'g'ri tashkil etishda o'qituvchi mahorati muhim o'rin tutishini yodda saqlashimiz kerak. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yinga asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash yaxshi samara beradi. Ular oldindan rejalashtirilgan va o'z ichiga ko'p qirrali o'yinlarni qamrab olgan bo'ladi. Innovatsion texnologiyalarga asoslangan bunday texnologiyalarning o'rni, avvalo o'yin elementlarining funksiyalarini o'qituvchi o'quvchilarga qanday tushuntirishiga va qanday yetkaza olishiga bog'liq. Quyida shunday usul va o'yinlardan namunalar keltiramiz:

“Domino” ta'limiy o'yini. Mazkur o'yinda o'quvchilarga domino ko'rinishidagi qog'oz tarqatmalar tarqatiladi. Undagi “toshlar” soniga qarab gap yoki bo'g'inlar aytilish so'raladi. Gaplar tuzish:

1. Ona. Mening onam o'qituvchi.
2. Lola gul uzdi. Lola chiroyli gul uzdi.

3. O'lkamizda so'lim yoz fasli. Yoz keldi.
Bo'g'inlar: 1. U. Gul-ba-hor. 2. Vo-li-da. Va-si-la-xon. 3. Te-le-vi-zor, sum-ka.

“Meni tushun” usuli. Mazkur metod guruhlarda ishlash ko'nikmasini shakllantirishda ham ahamiyatlidir. Bunda sinf kichik guruhlarga birlashtiriladi. O'qituvchi har bir guruhning bir a'zosi qulog'iga biror mavzuga oid so'z aytadi. Buni eshitgan o'quvchi sherigining qulog'iga nima tushungan bo'lsa, shuni aniq tasvirlab, uning xususiyatlarini to'la bayon qilishi lozim. Masalan, “So'z turkumlari” mavzusi asosida o'qituvchi “Ot – so'z turkumi”.

1. Kim? Nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'z turkumi.
2. Bu so'z turkumi gapda ega vazifasida keladi.

Guruhdagi oxirgi o'quvchidan eshitgan ta'rifdan nimani tushungani so'raladi: “Ot – so'z turkumi” deb javob bersa to'g'ri, boshqacha bo'lsa, qaysi guruh ishtirokchilari bir-birlarini tushunishda xatoga yo'l qo'rganligi aniqlanadi.

“Baliq skeleti” texnologiyasi. Ushbu texnologiya baliq model chizmasi orqali namoyish etilib, bunda o'quvchilar o'rta tashlangan muammoni har tomonlama ochib berishga harakat qiladilar. Baliq skeleti chizmasi vatmanga chizilib, uning tepa qismiga yechilishi kerak bo'lgan muammo yoziladi. Pastki qismiga muammoni hal etilish yo'llari yozib boriladi. Ushbu texnologiya ona tili, o'qish darslarida o'tilayotgan mavzu haqida o'z fikriga ega bo'lish, matn bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodda saqlash, so'zlab berish, fikrini erkin holda bayon etish hamda dars mobaynida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan metodlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda tahsil olayotgan o'quvchilarda ta'lim sifat-samaradorligiga erishishda innovatsion usullar va ta'limiy-didaktik o'yinlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



Iroda QUVONDIQOVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 20-umumiy o'rta
ta'lim maktabining boshlang'ich
sinf o'qituvchisi

Darhaqiqat, bugun o'quvchilarimizga o'zlari bilgan bilimlarni emas, yangi g'oyalarni singdirish davr talabiga aylandi. Bunda, albatta, pedagogik texnologiyalarga suyanish zarurati tug'iladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayonida qo'llash orqali o'quvchilar egallashi shart bo'lgan bilimlar to'la beriladi. Boshlang'ich ta'lim ona tili darslarida o'quvchidagi mavjud imkoniyatlarni, ya'ni aqliy mushohada qila olish, ijodiy izlana olishda faollik darajasi, nutqi, malakasini hisobga

olish muhimdir. O'quv jarayonida muayyan rejalarni tuzib olish, ya'ni dars bosqichlarining uzviyligi, mashqlarni bir-birini to'ldiruvchi ketma-ketligi, ta'limiy vositalarning tahlili, o'quv jarayonini mohirlik bilan boshqarish, darsning ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarining qaydarajada amalga oshayotganligini nazorat qilib borish kerak. Darsda til imkoniyatlarining turli qo'chimcha vositalari, texnik turlari, musiqa, ertak, topishmoq, maqol, she'r, rebuslardan unumli foydalanish talab etiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishda quyidagi usullar samarali hisoblanadi:

“Begona” metodi. Mazkur usulda o'quvchilarning og'zaki nutqi boyitiladi va sinovdan o'tkaziladi. Bunda fanlararo bog'liqlik, ya'ni integratsion yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu usulda beshta so'z bir hikoyadan yoki ertakdan olinib, bitta so'z begona asardan olinadi. Masalan, “O'gay”, “Erka”, “Mehnatsevar”, “Sehrli sandiq”, “Ajdar”. Bitta “Kulol” begona so'z. Shu begona so'zdan ertakni davom ettirishadi. O'quvchi dasturda belgilangan bilimlarni kamida davlat ta'lim standarti talablari darajasida o'zlashtirishi kerak. O'qituvchi bu jarayonni o'quvchiga zavq bag'ishlovchi mana shunday o'yinlar asosida tashkil qilsa, bilim olish jarayoni shodlik va zavq manbayiga aylanadi, shu bilan birga o'quvchiga erkinlikni his etish imkonini beradi.

“Narvon” metodi. Ushbu metodda o'tilgan mavzularni takrorlash darslarida foydalanish maqsadga muvofiq deb o'ylayman. Chunki berilayotgan vazifalar o'tilgan mavzular yuzasidan beriladi. Guruhga qarab tarqatmalar tayyorlanadi va eng oxirgi partadan boshlab oldingi partagacha birma-bir topshiriqlar yechilib oldingi partalarga uzatiladi. Birinchi partaga yetib kelgandan keyin musobaqa sharti tugallanadi va vazifa javoblarga qarab baholanadi.

“Kim ko'p so'z tuzadi” metodi. O'quvchilarga biror harf yoki tovushga oid so'zlar topish vazifasi yuklatiladi. Bu harf yoki tovush so'z boshi, so'z o'rtasi va so'z oxirida kelishi lozimligi vazifasi beriladi. Masalan, “a” tovushiga oid so'zlar toping.

So'z boshida: ayiq, asal. So'z orasida: sariq, maktab. So'z oxirida: bog'cha, chana.

Xullas, hozirgi zamon ta'lim jarayonida o'quvchi tinglovchi, o'qituvchi esa ma'ruzachi bo'lib qolmasligi kerak. Balki o'qituvchi darsni kuzatib, tartibga soluvchi rejissyorga aylanmog'i lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi darsni shunday tashkil etishi kerakki, hamma o'quvchi shu mavzu yuzasidan mustaqil fikr yuritsin, o'z fikrini ayta olsin, kamchiligi bo'lsa o'rtoqlari va o'qituvchi javobidan kelib chiqib to'g'rilay olsin. Darsning xarakter xususiyatiga qarab dars interfaol usulda bo'lishiga erishishi lozim.



KO'KKA INTILGAN BAYROG'IM



Karomatullo KARIMOV,
Surxondaryo viloyati "Ayol va
zamon" gazetasi muxbiri

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining eng birinchi davlat ramzi shak-shubhasiz bu uning bayrog'idir. Dunyo siyosiy xaritasida 1991-yil O'zbekiston degan yangi nom paydo bo'ldi. Shu bilan birga 1991-yil 18-noyabrda Davlat bayrog'i qabul qilindi. Bayrog'imiz azal-azaldan mavjud bo'lib, turlicha nomlar bilan atalgan, ya'ni dirafsh, livo, tug', yalov, sanchoq, ramz, parcham va bayroq nomlarini bilamiz. Bizning bayrog'imiz 1992-yildan Birlashgan Millatlar Tashkilotining peshtoqida 193 ta davlat bayroqlari qatorida hilpirab turgani barchaga ma'lum. Vatanimiz bayrog'iga nazar tashlasak, unda boy tarix, milliy qadriyatlar, xalqimizning moddiy va ma'naviy merosi, jasorati hamda matonati mujassamlashgan. Bu jannatmakon o'lkani ne-ne yovlar bosib ololmasdan, bir muddat hiyla va makr bilan qo'lga kiritgan bo'lsa-da, Dorolar-u Qutayba va xunxor Chingizxon ham bayrog'imiz oldida tiz cho'kkaniga tariximiz guvohdir. Mo'g'ul bosqinchilari Xorazmga kelib, Shayx Najmiddin Kubroga Chingizxon ta'zim etgan holda Xorazm bayrog'ini unga topshirib, ular tomoniga o'tishni taklif etgan bo'lsa, Shayx Najmiddin Kubro Vatan muqaddas ekanligini bildirgach, mo'g'ullar Shayxdan bayroqni talab qiladilar. Lekin Shayx qo'lidagi bayroq bilan dushman tomon hujum qilgach, yovlar qilich bilan Shayxning qo'llarini tanasidan judo qildilar, biroq qo'lni bayroqdan ajrata ololmadilar. Ikkinchi Jahon urushi boshlanmasidan oldin sohibqiron Amir Temur jasadini Moskvaga olib borib, shahar ustidan aylantirdilar va yana Samarqandga olib kelib dafn etdilar. Buyuk sohibqironning pok ruhi qo'llab, fashist gazandalari har qancha urinmasin, baribir Moskvani bosib ololmadilar. Shoir Shiddat bir she'rida shunday yozadi:

*Temur ruhi Maskovda fashist holin tang qildi,
Bizda hatto ruhlar ham bayroq olib jang qildi...*

Ona yurtimiz bayrog'ining naqadar buyuk ekanligi bizga faxr va g'urur bag'ishlaydi. Mustaqil hur va ozod O'zbekistonning Davlat bayrog'ida yangi hilol oy va yulduzlar yangi tashkil etilgan milliy davlatchiligimiz va osmonimizning sof, beg'uborligi moviy rangda tasvirlangan. Bayroqdagi qizil rang hayot ramzi bo'lsa, yashil rang jonajon o'lkamizning ona tabiati hamda oq rang poklik va beg'uborlikning yorqin ifodasidir. O'tmishda Amir Temur bayrog'ida ham oq rang borligi bizda faxr va iftixor tuyg'usini uyg'otadi. O'zbekistonning har bir fuqarosi Vatanimiz bayrog'i bilan faxrlansa arziydi. Zero, har bir yutuqda, xususan, sportdagi zafarlarimizda bayrog'imiz doimo baland ko'tariladi. O'ttiz ikki yil ichida dunyoning turli go'shalarida bayrog'imiz minglab marotaba baland ko'tarilganligiga amin bo'ldik. Hamisha ko'kka intilgin, bayrog'im!

DO'STIM SALOM TOHIRGA

O'tarding qancha dasht-u cho'llarda,
Ne-ne yovlar uchramadi bu yo'llarda,
O'zing sahroda-yu qalbing gullarda,
Yaratgan berdi senga ilhom,
Bugun yozding she'r-u doston.

Tanho kezding ildam sahroying,
G'am-alam sendagi dil sadoying,
Bo'ldi qalam aso-tayog'ing,
Tangridan so'rading har on,
Bugun yozding she'r-u doston.

Mayli, rizqing mo'l bo'lmas uncha,
Bir qatra suv, bor-ku bir kulcha,
Ijodasan tongdan kun botguncha,
Xudo etar yaxshilikka oson,
Bugun yozding she'r-u doston.

Shukur qil, do'stlaring boshingda,
Zikri xayr etib seni qoshingda,
Ijodasan sen hatto yetmish yoshingda,
Shoirlik emas juda oson,
Bugun yozding she'r-u doston.

Mayli, yo'qdir senda koshona,
Dabdabali tillokor ostona,
Barchani qarating sen hayrona,
Alloh berdi – tiling she'rga kon,
Bugun yozding she'r-u doston.

SALOM TOHIR SHE'R AYTAZ

Gar kelmasa so'z malol,
Bayon etar hol-ahvol,
Qalam rizqi unda mol,
Salom Tohir she'r aytar.

Hazar etar yomondan,
So'zlamas u yolg'ondan,
So'zin olmas osmondan,
Salom Tohir she'r aytar.

Ajdodlari zahmatkash,
Endi bo'ldi qalamkash,
She'riyatda mehnatkash,
Salom Tohir she'r aytar.

Yovuzdan yuz o'g'irgan,
Qahr-g'azabin o'chirgan,
Hasadgo'yni kechirgan,
Salom Tohir she'r aytar.

Qalbida bor diyonat,
Bu dunyodir omonat,
Unda yo'qdir xiyonat,
Salom Tohir she'r aytar.

Musaffo erur osmon,
Kezdi yo'llarda sarson,
Bilar har qadri inson,
Salom Tohir she'r aytar.

Yuragida qancha dog' bor,
Kamtarindir, yo'q kibor,
Tebratib oddiy ro'zg'or,
Salom Tohir she'r aytar.

Ijodni ko'rar ko'zing,
Baxshi shoirsan o'zing,
Karimzodadir do'sting,
Salom Tohir she'r aytar.



XORAZMIYNING “MUHABBATNOMA” ASARIDA TALMEH SAN'ATINING QO'LLANILISHI

Gulnoza RAVSHANOVA,
Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi
Ilmiy rahbar: Fayzullayeva Ra'no Mahmudovna,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'zbek tili fani
o'qituvchisi



Annotatsiya: Ushbu maqola XIV asr adabiyotining zabardast vakillaridan biri Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asari haqida bo'lib, asardagi she'riy san'atlar, xususan, talmeh san'atining qo'llanilishi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: talmeh, nido, istiora, tarse', g'azal, qit'a, noma, zullisonayn.

Xorazmiy turkiy va forsiy tillarda qalam tebratgan “zullisonayn” ijodkor, qolaversa, o'zbek adabiyotida noma janri boshlab bergan benazir shoirdir. Uning bizgacha faqat “Muhabbatnoma” asari yetib kelgan. Hozirgacha mazkur asarning ikki nusxasi fanga ma'lum. Asar o'n bir nomadan iborat bo'lib, uning sakkiz nomasi o'zbek tilida va uchtasi (4, 8, 11) fors-tojik tilida yozilgan. [1.9-b] Asar janr jihatdan juda boy. Garchi unda noma janri yetakchilik qilsa-da, g'azal, qit'a, madhiya kabi she'riy janrlar ham o'z ifodasini topgan. Nomalarning o'ntasi to'g'ridan-to'g'ri ma'shuqaga murojaat bilan boshlanadi. Faqat bitta, ikkinchi nomagina subhga dil izhorini bayon qilish bilan boshlanadi:

*Salomim gulga elt, ey tong nasimi,
Kim erur Oyquli, Axtar nadimi.*

“Muhabbatnoma” asari oshiqning ma'shuqasiga yozgan she'riy maktublari shaklida yozilgan. An'anaga ko'ra noma janridagi asarlar Allohga hamd, payg'ambarlarga salavot, undan so'ng asar kimga bag'ishlanganligi va uning madhi, asarning yozilish tarixi kabi qismlar aytilib, keyin nomalar keltiriladi. Xorazmiy ham shu qolipni saqlagan va har bir nomadan so'ng masnaviy keltirib o'tgan.

Xorazmiy ushbu asarida turli she'riy san'atlardan foydalanilganligi asarga rang-baranglik baxsh etib, uning yanada jozibador bo'lishini ta'minlagan. Xususan, nomada nido, talmeh, istiora, tarse', takrir, husni ta'lil, ishtiyoq, tashbih, tanosub, tazod kabi she'riy san'atlardan

unumli foydalanilgan.

Talmeh san'ati mumtoz adabiyotda keng qo'llaniladi. Bu so'z arabchada “ko'z qirini tashlamoq”, “bir nazar tashlash”, “ishora qilmoq” kabi ma'nolarni anglatadi. Talmeh san'ati baytda mashhur qissa, maqol, tarixiy va afsonaviy voqea, tarixiy shaxs, mashhur asar qahramonlari nomiga ishora qilish orqali fikrni qisqa va aniq ifodalaydi. Shoirlar muhabbat mavzusidagi asarlarida ko'pincha Sharqda keng tarqalgan “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Vomiy va Uzro”, “Tohir va Zuhra” kabi qissalar va dostonlar qahramonlarining nomiga ishora qiladilar [3.10-b]. Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarida ham bunday o'xshatishlarni ko'rishimiz mumkin:

*So'zungen Shirin o'zungen Xisravdin afzun,
Bo'lur Layli sening husnungg'a Majnun.*

O'quvchi u yoki bu nomaga ishorani ko'rar ekan, uning ko'z oldida o'sha qissa, doston, afsona mazmuni, uning qahramonlari, hayoti, sevgisi, kurashi, fojiali taqdiri jonlanib, shoir demoqchi bo'lgan g'oyani, fikrni, tuyg'uni yorqinroq tasavvur qiladi, chuqurroq anglab yetadi. [3.10-b]

“Muhabbatnoma” tarkibida qirqqa yaqin o'rinda talmeh san'atidan foydalanilgan. Shulardan eng ko'p o'nga yaqin o'rinda Yusuf alayhissalom siymosi orqali talmeh san'ati vujudga keltirilgan. Bunda yorning go'zalligi Yusuf alayhissalom jamoliga mengzalgan. Xususan, uchinchi noma tarkibida quyidagi bayt mavjud:

*Qamuq ko'rkluklar uzra podshosen,
Masih anfosliq Yusufliqosen.*

O'ninchi noma tarkibidagi baytda esa yorga Yusuf jamoli, oshiqqa esa muhabbat dardi berilgani haqida so'z boradi:

*Ug'on Yusuf jamolin sizga berdi,
Muhabbat kimiyosin bizga berdi.*



Bundan tashqari, Muhammad Xo'jabek ta'rifini keltirish davomida Rustam, Hotami Toyi kabi tarixiy obrazlardan foydalanilgan:

*Agar desam seni Rustam yararsen,
Qiliching birla saflarni yorarsen.*

Yoki:

*Agar ming yil tirilsa Hotami tay,
Sening oting eshitgach yerlar o'pgay.*

Shu o'rinda “Muhabbatnoma” asari Oltin O'rda hukmdori Muhammad Xo'jabek iltimosiga ko'ra yaratilganligini unutmaylik. Shoir bu haqida asarda quyidagicha keltirib o'tgan:

*Tilarmen kim bizing til birla paydo,
Kitobi aylasang bu qish qotimda.
Kim ush yeltek kechar ayyomi foni,
Jahonda qolsa bizdin armug'oni.*

Yuqoridagi baytda keltirishicha, Muhammad Xo'jabek turkiy tilda asar yozishni iltimos qiladi, shoir esa o'z nomasini ikki tilda bitadi. Xorazmiy bu holatni asarda quyidagicha izohlaydi:

*Qiloyin ikki bobin porsiy ham,
Kim atlas to'n yaroshur bo'lsa mu'lam.*

Asar davomida qator o'rnlarda ushbu hukmdor nomi tilga olingan.

*Gahe Hotam uyolur bazm ichinda,
Gahe Rustam yuponur razm ichinda.*

Shoir yuqoridagi baytda Muhammad Xo'jabekni ta'riflash bilan birga o'zining badiiy mahoratini ham ko'rsatgan. Baytda tarse', talmeh, takrir san'atlarini jam qilib, Hotam, Rustam nomlari orqali ham ohangdoshlikni ta'minlagan, ham go'zal ma'noga erishilgan. Bundan tashqari, asar davomida Iso alayhissalom, Sulaymon alayhissalom, Hizr alayhissalom va Ali roziyallohu anhu kabi ulug'lar nomlari talmeh asosida bir necha o'rnlarda keltirilib, asarning badiiyati yuqori darajaga ko'tarilgan.

*Jahonning fitnasi usruk ko'zungda,
Ayon Iso dami shirin so'zungda.*

Bunday o'xshatishlar tojikcha nomalar tarkibida ham kelgan:

*Vale on jumla onhoeki hastand,
Hama bahri xari Iso parastpand.*

Yoki:

*Baham bud obi xo'r shirin agar sho'r,
Sulaymoni shuda hamkosai mo'r.*

Bundan tashqari, asarda nido san'atidan ham unumli foydalanilgan. Xususan, to'qqiz o'rinda so'qiyga murojaatni ko'rishimiz mumkin. Bunda birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninchi nomalardan so'ng keltirilgan masnaviyar so'qiyga murojaat bilan boshlanadi. Masalan, oltinchi nomaning so'ngidagi masnaviy quyidagicha boshlanadi:

*Kel, ey so'qiy, keturgil lolagun may,
Kim ul may qildi ko'pni Hotami-tay.*

Ammo masnaviyar orasidagi o'xshashlik faqat bu bilan cheklanmaydi. Asardagi deyarli barcha masnaviyar bir xil tugallanadi. Faqat asar boshidagi va o'ninchi noma so'ngidagi masnaviy bundan mustasno:

*Saburdin yaxshi yo'qtur pasha qilsam,
Bu yo'lda sabr yo'q andisha qilsam.*

Ahamiyatli tomoni shundaki, bu masnaviyarlarning har biri o'zgacha ma'no anglatganda, tugallanma ma'nosi va masnaviyning umumiy mazmuni o'ta mutanosiblik kasb etgan.

Asarda sakkiz o'rinda Muhammad Xo'jabek, yigirma o'rinda Xorazmiy nomi keltirib o'tilgan. Xorazmiyning o'zi haqidagi ma'lumotlarni ham shu asardan topamiz. Nomaning so'ngida shoir g'azal, munajat, hikoyat, qit'a, fard kabi janr namunalardan ham keltirib o'tadi. “Xotimatul-kitob” qismida asar haqida bir qancha ma'lumotga ega bo'lamiz:

*“Muhabbatnoma” so'zin munda ayttim,
Qomug'in Sir yaqosinda bitidim.*

Yoki:

*Bu daftarkim bo'lubtur Misr qandi,
Yeti yuz elli to'rt ichra tugandi.*

Yuqoridagi baytlarda keltirilishicha, asarning yozilgan hududi Sardaryo yoqasi va u 754-yilda yozib tugatilgan. Adabiyotshunos olim Natan Mallayev “Muhabbatnoma”ning so'ngida keltirilgan forscha hikoyani Xorazmiyning tarjimai holi sifatida tahlil qilgan edi. [2.2]

“Muhabbatnoma” asari ustida ko'plab olimlar izlanishlar olib borganlar. Xususan, Po'latjon Qayyumiy “Tazkirai Qayumiy” asarida quyidagicha ma'lumot beradi:





“Bu kishini Nozim Xorazmiy deb aytiladurki, o'zining “Muhabbatnoma” nomli yirik asari bilan XIV asr buyuk klassik yodgori bo'lib tanilmishdur. Shoir tarjimai holigina emas, hattoki nomi ham zamonamizda ma'lum bo'lmadi. Lekin asari mo'tabar kitobdur. Oltin O'rda hukmdori davrida yozilmish qadimgi asardur. O'zi xorazmlik bo'lgan va Oltin O'rdada yurgan o'zbek shoiridir”.

“Muhabbatnoma” asari nafaqat o'zbek, balki rus, tatar, turkman olimlari tomonidan ham o'rganilgan. Bu haqda “Tatar adabiyoti tarixi” kitobida batafsil ma'lumot berilgan. [2.]

Xulosa qilib aytganda, “Muhabbatnoma” asari noma janrining ilk namunasi bo'libgina qolmay, XIV asr o'zbek dunyoviy adabiyotining eng nodir va go'zal badiiy xazinasi hamdir. Shuning uchun ham asardagi dunyoviy, falsafiy va tasavvufiy qarashlar hech bir davrda o'zining dolzarbligini, badiiy qiymatini yo'qotmaydi. Shoir o'zi haqida:

*Muhabbat nardini ko'plardin o'ttung,
Shakartek til bila olamni tuttung, – deganida juda haq edi.*

“Muhabbatnoma” asarining lirikasi boy, tili xalq tiliga ancha yaqin va uslubi ravon, uning yaratilganiga necha asr o'tganligiga qaramay hozir ham o'qib tushunish mumkin. [4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muborak maktublar. O'zbek adabiyoti bo'stoni.
2. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. (Eng qadimgi davrlardan XV asrning birinchi yarimigacha) o'quv qo'llanma. Toshkent – 2014, Nasimxon Rahmonov.
3. She'r san'atlarini bilasizmi? Anvar Hojiahmedov.
4. “Muhabbatnoma” asarining leksik o'ziga xosliklari. Azatova Guliston.
5. www.ziyouz.com kutubxonasi.

KIM YAXSHI? (Ertak)



Marjona MUXTOROVA,
Andijon viloyati Asaka
tumanidagi 30-umumiy
o'rta ta'lim maktabining
2-sinf o'quvchisi

Qadim zamonda emas, o'zimizning zamonda bir kuni kitoblar tortishib qolishibdi. Ular “Kim eng yaxshi?” degan savolga javob izlashibdi. Alifbe debdi:

– Men bolalarga harflarni tanitaman, ularning savodini chiqaraman.

Matematika debdi:

– Men raqamlarni o'rgataman. Qo'shish va ayirishdan saboq beraman.

Ona tili esa:

– Men chiroyli yozishni o'rgataman, – debdi.

Ular rosa bahslashibdi. Shu payt bilimdon bola bu suhbatni eshitib qolibdi. Bilimdon bola shunday debdi:

– Dunyoda yomon kitob bo'lmaydi. Barcha kitoblar foydali va zarurdir. Bolajonlar, kitoblarni ko'proq o'qing, ularni qadrlang va asrang!

Kitoblar bilimdon boladan bu javobni eshitib rosa quvonishibdi.



Nozanin ABDUSAMATOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti Urgut filiali talabasi



O'ZBEKISTONIM

Har yerdan go'zalsan, suyuq jahonim,
Senda erur baxtim, sho'x tarovatim.
Bayroqlaring ko'kka ko'tarish orzum,
Senda shon-u shavkatim, borliq jahonim.

Moziyda ezildi, xo'rlandi xalqing,
Toptaldi or-nomus, haq-huquqlaring.
Shoningni bilmagan ko'r farzandlaring,
Qadringni toptadi, ezdi tuprog'ing.

Qodiriy o'tgan kunin olovga otdi,
Behbudiy ziyosi-la toshlar otildi.
Usmonlaring o'tdi, Avloniylaring,
Cho'lponlaring qadringni bilmagan yurtim.

Shukurki, angladi xalqing jahonni,
Bildi ilm qadring, tan oldi oxir.
Tarixingni bilmoq erur maqsadim,
Sensan butun orzu, mening istagim.

O'ZBEGIM

O'zbekim, o'rningga nazar tegmasin,
Chiroying madhida ko'ngil quv naydi.
Go'zaldir urflaring, qadriyatlar,ing,
Milliyiligin seni hech tark etmasin.

Atlas-adrasing, zar do'ppilaring,
Kelin salom, yor-yor, to'y-hashamlaring.
Barchasi go'zaldir, senda namoyon,
Milliyiligin sendan ketmasin aslo.

Ko'k somsa, mantingdan lazzatda tilim,
Har fasling oromi qalbda xotirjam.
Go'zaldir barchasi sururda dilim,
Milliyiligin sendan ketmasin yiroq.

YURTIM JAMOLI

Purviqor tog'laring bag'rim o'rtaydi,
Sendan olis bo'lsam, yo'q menda orom.
Har neniki ko'rib bildim oxiri,
Sendan buyuk o'lka yo'q butun jahon.

Senda erur osmon musaffo havo,
Tog'laringda go'zallik aks etgan yaqqol.
Tiniq zilol suving mavjlanib oqar,
Sendan aziz o'lka ko'rmadim aslo.

Tuprog'ingda gullar alvon lolalar,
Yam-yashil tuprog'ing ochar bahri dil.
Nechun anglamayin sening qadringni?
Sendan buyuk o'lka bo'lmagan hech ham.

ONAM MEHRI

Yolg'on dunyo va'dasiga uchdim bilmay,
Sarobligin anglamadim o'zga mehrin.
Aldamchilar ig'volarin bilmayin hech,
Faqatgina onam mehri ekan rosti.

Tuproq yo'lda oyog'imga toshlar botdi,
Chora istab har ko'chaga suqdim boshni.
Lek hech kimdan najot kelmay bildim oxir,
Faqatgina onam mehri ekan rosti.

Goh-gohida do'stlar pichoq sanchganda ham,
Bir mehribon, dilkash inson topmay sitam.
Har neniki ko'rdim azob-uqubatni,
Faqatgina onam mehri ekan rosti.

Haqiqat ham mendan yuzin borgan chog'da,
Sitamlarga bardosh bermay yurgan onda.
Bildimki bir haqiqatni eng so'nggida,
Faqatgina onam mehri ekan rosti.



ТАЪЛИМ СИФАТИ ТИЛДАН

Тўхтамурод НАБИЕВ,
Фарғона политехника институти профессори,
академик, техника фанлари доктори,
Россияда хизмат кўрсатган
фан ва таълим арбоби

Ўзбекистонда ҳар бир йилнинг ўз шиори бор. Масалан, 2024 йил “Ёшлар ва бизнесни қўллаб қувватлаш” йили деб номланди. Ўтган 2023 йилнинг шиори эса “Инсонга эътибор ва сифатли таълим” йили эди. Аммо сифатли таълим йили бўлса ҳам, таълим сифати сезиларли даражада бўлмади.

Мен ярим асрдан кўп – эллик уч йилдан бери олий таълим тизимида дунёнинг уч қитъаси – Осиё, Африка ва Европа мамлакатларининг институт, академия ҳамда университетларида фаолият юритиб келмоқдаман. Шу давр мобайнида ёшларга бир неча фанлардан ўзбек, рус, француз ва тожик тилларида маърузалар ўқиб, амалий машғулот, лаборатория ва курс ишларини аъло даражада олиб борганман.

Таълим сифати тўғрисидаги мавзуда ёзилаётган сўзлар Ўзбекистонда энг қадрли ва энг қимматли сўзлар ҳисобланади. Булар халқ сўзларидир.


Дунёда 7500 га яқин тил мавжуд. Шулар орасида ўзбек тили алоҳида аҳамиятга эга, чунки бу тилда қирқ миллиондан кўп одам гаплашади ва муомала қилади.

Ўзбек тили алифбосини Ўзбекистон Республикасининг раҳбарлари бир неча бор қонун сифатида ўзгартиришган: араб, лотин, кирилл ва яна лотин! Бу жараён халқимизни маълум даражада саводсиз-

ликка олиб келган. Натижада жамият ривожланиши ҳам секинлашган. Менинг фикримча, алифбо кириллигича қолганда яхши бўлар эди, чунки илм жуда кенг тараққий этганди.

Лотин алифбосига ўтганимиздан кейин жуда кўп қийинчиликларга дуч келдик. Лотин алифбосидаги ҳарфларни тўлиқлигича ишлата билмадик. Лотиндаги с ҳарфи янги ўзбек тилида умуман ишлатилмайди. Фақат sh ни ч ҳарфи (товуши) деб талаффуз этилади.

Мактаб, техникум ва институтдаги математика ўқитувчиларим – Мамарасул муаллим, Олимжон муаллим, Куронбу муаллима, Ильясов домла, Сулейманов домла, Н.Одилов домла, устоз Қори Ниёзий, Конусбеков домла, Балибеков домла, Ш.А.Гумеров домлаларнинг ҳаммаси уч-бурчак томонларини расмда кўрсатилганидек лотинча a, b, c ҳарфлари билан белгилаб, уларни a(a), b (бэ), c (цэ) деб талаффуз этганлар. $c^2 = a^2 + b^2$ формуласини қуйидагича таърифлаганлар: цэ квадрат тенг а квадрат плус бэ квадрат. Менимча, математика устозларим ҳарфларни тўғри талаффуз қилган деб биламан! Шу нуқтаи назардан ўзбек алифбосига с ҳарфини киритиш зарур деб ҳисоблайман. Бу ҳарф кирилл билан ёзилган сўзлардаги ц товушини беради.



Масалан, цемент – cement, центрифуга – centrifuga, цапфа – sapfa, целлюлоза – celluloza, Цюрих – Cyurix, Цимбаленко – Cimbalkenko, Циолковский – Ciolkovskiy, Амбарцумян – Ambarcumyan, авиация – aviatsiya, конференция – konferenciya, лицей – licey ва ҳоказо.

Шунда ц нинг ўрнига инглизча ts ёзмасдан, соддагина, оддийгина ва енгилгина лотин алифбосидаги бор с ҳарфидан фойдаланилади. Албатта, тилчилар орасида “с нинг ўрнига s ни ишлатса бўлаверади” деган саводсизлар ҳам топилади. Бу эса мантиққа умуман тўғри келмайди, чунки лотиндаги с ҳарфи кириллдаги ц га, кириллдаги с ҳарфи лотиндаги s га талаффуздошдир.

Навбатдаги ҳарф х. Яна математикага қайтамыз. Координата ўқлари x (икс), y (игрек) ва z (зет) билан белгиланади. Шунинг учун шундайлигича ишлатган маъқул. Ўзбек тилида ҳозирча ишлатилаётган х ни эса инглиз тилидаги kh билан алмаштириш керак, чунки баъзи ўзбек тилидаги сўзларни одамлар инглизча ўқишяпти. Масалан, цех ни sex деб ёзиб, бошқа маънода ўқийдиганлар сон мингта! Сирдарёда бир корхона дарвозаси устидаги ёзув: “Kolbasa sexi”. Буларни инглизча қилиб ҳам ўқиш мумкин.

Энди u ҳарфига тўхтаимиз. Кириллдаги Урганч ва Ўзбекистон сўзлари мисолида

таҳлил қиламиз. Иккала сўзда ҳам кириллдаги u ҳарфи бор, фарқи иккинчисининг устида илмоғи бор. Лотиндаги иккала сўз учун u ҳарфини қолдирса бўлмайми, азиз тилчилар? Фақат иккинчи сўздаги ҳарфнинг устига ёки ёнига ' белгиларини қўйса бас! Шунда қуйидагича ёзилади: Urganch, U'zbekiston. Инглиз тилида ҳам шундай ёзилади ва ўқилади.

Навбат сифатли таълимнинг бир шохчасига келди. Маълумки, ҳар бир жой, шаҳар ва вилоятлар ўзларининг шеvasи билан гаплашади. Шеваларнинг асоси ўзбек тили бўлса ҳам, бир-биридан катта фарқ қилади. Бу урф-одат яхши ва нормал ҳисобланади.

Масалан, Тошкентда “борвотти”, “кевотти”, “бороуза”, “келуза”, Фарғонада “аққа”, “баққа”, “жичча”, Наманганда “келутти”, “кетутти”, Хоразмда “галдим”, “гатдим” ва ҳоказо.

Яна қайтариб ёзаяпман, булар урф-одат, ўзгартириб бўлмайди ва нормал ҳолат ҳисобланади. Шевалар ўзларининг жозибдорлиги ва қулайлиги билан ҳам ажралиб туради. Шева бу – маҳаллий тил, ўша ердаги муомала тили, бозор тили, чойхона тили ва ниҳоят дўстлар гурунгидаги тил!

Аммо таълимда шевадаги сўзларни ишлатиш тўғри эмас. Албатта, таълимда, айниқса, олий таълимда адабий тилда муомала қилиш ва унда дарс бериш ривожланишимизни оддийгина умумлаштириш билан бир қаторда уни ёрқинлаштиради. Ҳозирги даврда жуда кўп олий таълим муассасаларида ҳам талабалар, ҳам ўқитувчилар маҳаллий шеваларда гаплашиб дарс ўтишяпти. Олий таълим бўлганидан кейин тил ҳам олий таълимчалик бўлиши керак-да. Шундагина таълимнинг фақат битта шохчасини сифатли таълимга айлантириб, ҳамма жойда адабий тилда гаплаша олишимиз мумкин. Тилга бунчалик эътибор беришнинг ўзи – тилдан сифатга, сифатдан ривожланишга, ривожланишдан маданиятга чорлайди!



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA ILG'OR TAJRIBALARNI TAKOMILLASHTIRISH



Viloyat TOJIYEVA,
Shahnoza MIRSOLIYEVA,
Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi
18-umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari

Hozirda ta'lim sohasida bilim va ko'nikmalar hosil qilinishini oshiradigan o'qitishning turli usullari tadqiq etilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ilg'or tajribalarni takomillashtirish kreativ fikrlashga hamda bilim va ko'nikmalarni hosil qilishga imkon beradi. Boshqacha aytganda, ona tili va adabiyot darslari bilim va ko'nikmalarni hosil qiluvchi fan sifatida yangidan-yangi g'oyalar bilan sug'orilgan ijodiy metodlar bilan faol shug'ullanadi. Qachonki bilim hosil qilish jarayoni ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan maqsadli faoliyatga, ya'ni kundalik faoliyat turiga aylansa, o'quvchi yangidan-yangi fikr-mulohazalarini doimiy rivojlantirib boradigan amaliy faoliyatlar bilan jamiyat rivojiga o'z hissasini qo'shadi. Maktabda ona tili va adabiyot fanidan dars beradigan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya jarayonini tahlil etishga yo'naltirilgan ta'lim sifati ko'rsatkichlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqishi muhim ahamiyatga ega. Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Ona tili va adabiyot muallimining mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli sanaladi. Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi o'quvchilarga nutq faoliyatining usullarini o'rgatadi. Kommunikativ kompetensiya ona tilini o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri sanaladi.

"Grammatik bilimdon" usuli. Bu usul grammatik jihatdan murakkab mavzularning oson tushunilishiga, rasmlar

orqali o'quvchilarning mustaqil ravishda oddiy gapdan kichik matn tuza olish qobiliyatini o'stirishga, adabiyot namoyandalari hayoti va ijodini ko'z oldida gavdalandirish va yaxshiroq yodda saqlashga, ularning ijod namunalaridan ekran orqali bahramand bo'lishga yordam berishi bilan alohida xarakterlanadi.

"Nutqiy mashqlar" usuli. Mazkur usulda siz gapirishni faqat gapirish orqali, tinglashni tinglash orqali, o'qishni o'qish orqali o'rganishingiz mumkin. Bu birinchi navbatda mashqlarga taalluqlidir. Mashq qanchalik haqiqiy muloqotga o'xshasa, shunchalik samarali bo'ladi.

Hozirda dars samaradorligini takomillashtirishda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalari ularning rivojlanishiga katta xizmat qilib kelmoqda. Xitoyliklarning "Bir yilni ko'zlasangiz sholi eking, ellik yilni ko'zlasangiz daraxt eking, yuz yilni ko'zlasangiz farzand tarbiyalang" degan hikmatidan bugungi kunda xorij davlatlarining deyarli barchasi samarali foydalanmoqda. Shu nuqtayi nazardan bizning mamlakat ham unib-o'sib kelayotgan barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga jiddiy e'tibor qaratmoqda. Bu borada kerak bo'lsa, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalaridan unumli foydalanish orqali milliy ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zero, mamlakatimiz Uchinchi Renessans davrini barpo etishni rejalashtirgan. Ana shunday ezgu maqsadlarni esa, albatta, bugungi kunda voyaga yetayotgan avlod amalga oshiradi. Maktablardagi ta'lim va tarbiya esa ana shu avlodning savodli va tarbiyali bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi kerak.



MATEMATIK BILIMLAR - MANTIQUIY TAFAKKUR ASOSI



Nargiza SHUKUROVA,
Navoiy shahridagi 7-umumiy
o'rta ta'lim maktabining
matematika fani o'qituvchisi

Ta'limning bugungi kundagi asosiy vazifasi shuki, yurt kelajagi bo'lgan yosh avlodni kun sayin takomillashtirib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga, albatta, dars jarayonlarida turli pedagogik texnologiyalar yordamida mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Xususan, umumta'lim maktablarida ta'lim olayotgan o'quvchilar bilan dars mashg'ulotlarini tashkil etishda to'g'ri yo'nalish tanlash joiz. Ayniqsa, o'quvchilar o'zlash-tirishda biroz qiyinchilikka duch keladigan matematika fani mantiqiy tafakkurning asosi bo'lganligi sababli unda innovatsion texnologiyalar, interfaol usullar muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, mantiq ilmi nima, uning matematika fanidagi o'rni qanday?

Mantiq ilmi olamdagi qonuniy, zaruriy bog'lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurning ichki aloqadorligi, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni o'z ichiga olgan bo'lib, insonni hech bir narsaga befarq bo'lmay, sinchkov qarashga, har bir voqea-hodisaga xolis baho berishga, shu yo'l bilan muntazam va izchil fikr yuritish hamda har qanday oqilona fikrni isbotlay olishga o'rgatadi. Mantiq ilmi qonun-qoidalarini atroflicha o'rganish va mustaqil fikr yuritish qobiliyatini rivojlantirish orqali amaliy hayot uchun kerakli xulosalar chiqarish, voqea-hodisalarni haqqoniy tahlil qilish oson kechadi. Bundan ko'rinadiki, matematika fanidagi murakkab misol hamda masalalar, shuningdek, topshiriqlarni bajarishda mantiqiy tafakkur muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, inson tafakkuri deganda kishining

shaxsiy tashabbusi bilan o'z oldiga aniq maqsad, yangi vazifalar qo'ya olishi, ular yuzasidan amaliy va ilmiy xarakterda faraz qilishi, natijani ko'z oldiga keltira olishi, qo'yilgan vazifani o'zining aqliy izlanishi tufayli turli usullar topib, mustaqil ravishda hal qilishdan iborat aqliy qobiliyati tushuniladi.

Matematika fani dars mashg'ulotlarida masalalarni tez yechish, yechish jarayonida yangi usul va vositalarni o'z o'rnida aniq qo'llash muhim sanaladi. Masalalarni yechishda mantiqiy fikrlash jarayonlari quyidagicha amalga oshiriladi:

1. Avvalo hal etilishi lozim bo'lgan muammo aniqlab olinadi. Hal etish kerak bo'lgan masalani yechish uchun uning mohiyatini to'la tushunish, masala shartini tahlil qilish, nima berilgan va nima topish kerakligi haqida mulohaza yuritiladi.

2. Masalani yechish uchun kerak bo'lgan bilimlar, ya'ni qoida, dalil, qonun, teorema, ta'rif ishga solinadi.

3. Masala yechiladi, natija tekshiriladi.

Masalan, 1-masala:

Yettita sham yonib turibdi, ularning ikkitasi o'chirildi. Nechta sham qoldi?

Mulohaza yuritishni quyidagicha olib borish kerak:

1. Ikkitasi sham o'chirilsa, nechta sham yonib qoladi? – 5 ta.

2. Yonib turgan sham nima qiladi? – Eriydi.

3. Biroz vaqtdan keyin nima bo'ladi? – Erib tugaydi.

4. Unda nechta sham qoladi? – 2 ta.

Xullas, matematika darslarida mantiqiy tafakkurning tanqidiyligi obyektiv va subyektiv ravishda ifodalanadi.



INFORMATIKA DARSLARIDA KREATIV YONDASHUV



Norbegim BURANOVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 20-umumiy o'rta
ta'lim maktabining
informatika fani o'qituvchisi



Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimiga jiddiy e'tibor qaralib, o'quvchi-yoshlarimizning jahon andozalariga mos ravishda zamonaviy bilim va kasb-hunarli bo'lishi, jismonan va ma'nan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishi ustuvor masalaga aylangan. Yosh avlodning qobiliyat va iste'dodini yuzaga chiqarish, ularning qalbida vatanparvarlik, insoniylik, kasbga fidoyilik tuyg'ularini rivojlantirish kabi ulkan ishlar rejalashtirilib, ketma-ketlikda amalga oshirilmoqda.

Dunyoning turli mintaqalarida kreativ tushunchalar insoniyat madaniyatining ravnaq topishiga, tabiiy, falsafa, san'at va gumanitar fanlarning rivojlanishiga asos bo'ldi. Kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy fikrlashdan farq qiladi. Informatika darslarida ham kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo'lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishiga sharoit yaratadi. Zero, informatika ta'limining vazifasi o'quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat.

Bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlari ta'lim tizimida turli o'rgatuvchi dasturiy vositalardan keng foydalanilmoqda. Informatika darslarida o'rgatuvchi ko'rgazmali dasturiy vositalar mualliflik dasturiy ta'minotlari yordamida yaratiladi. Ta'lim jarayonida bunday dasturlardan foydalanish yuqori natijalarga olib kelmoqda. Sababi auditoriyada uzatiladigan bilimlarga oid axborotlarni qabul qilish va vazifalarni bajarishda o'quvchi bir vaqtning o'zida eshitib, ko'rib o'zlashtiradi. Shuningdek, informatika o'qitish samaradorligiga erishish uchun o'qitishning didaktik ta'minotini yaratish mexanizmlari ham muhim ahamiyatga ega. Didaktik ta'minotni yaratish mexanizmlari kreativ yondashuvni tashkil etib, o'quvchilarni tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlash va aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishlarini amalga

oshiradi. Informatika darslarini tashkil etishda kreativlik o'quv-bilish faolligi sifatida ham tahlil etilishi mumkin. Binobarin, ba'zi o'quvchilar tanqidiy, tahliliy yoki ijodiy fikrlashni, boshqalar esa aniq ma'lumotlarga asoslangan bilimlarga ega bo'lishni afzal ko'radi. Uchinchi guruh vakillari esa tabiatan kreativ va tanqidiy fikrlashga moyil bo'ladi. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativligi yana bir holatda – elektron axborot-ta'lim resurslarini yaratishda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Elektron axborot ta'lim resurslari – o'quv fan (modul)lari bo'yicha tizimlilik, izchillik, o'zaro muvofiqlik va yaxlitlik asosida shakllantirilib, o'quv materiallarini to'liq yoki qisman qamrab olgan holda kompyuter texnologiyasi yoki internet axborot tarmog'ida maxsus saytda joylashtirilgan elektron nashrlar majmui hisoblanadi. Bundan tashqari, informatika darslari orqali o'quvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, eng avvalo, ularda tanqidiy fikrlash malakalarini shakllantirish talab etiladi. O'quv materiallarini o'quvchilarga taqdim etishda savolning "Agarda...?" deb qo'yilishi topshiriqlarni bajarish jarayonida ularning ham obyektiv, ham subyektiv fikrlash ko'nikmalarini samarali o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Kreativlik o'quvchilarda nafaqat yangi g'oyalarni ilgari surishini taqozo etishi, balki o'quv masalalari bo'yicha qarorlar qabul qilish, tahlil etish ko'nikmalarini ham shakllantira olishi lozim. Kreativlik jarayoni boshlang'ich g'oyalarni ishlab chiqish, ularni tadqiq qilish va tahlil etish, hatto ulardan voz kechishni ham o'z ichiga oladi.

Xullas, informatika darslarida o'quvchilarning yosh xususiyatiga mosligi, amaliy ahamiyatga egaligi, aniq maqsadga yo'naltirilganligi hamda estetik talablarga muvofiqligi kabi tamoyillarni inobatga olish o'quv jarayonining sifatli, metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi.



Maftuna MUHIDDINOVA,
Toshkent shahar Yashnobod
tumanidagi 149-umumiy o'rta
ta'lim maktabining 11-sinf
o'quvchisi



YURTIM BO'YLAB SAYOHAT YOXUD AFSONAVIY SHAHARLAR KO'RKI



and Accor mehmonxonalarini eng yaxshilari deb tan olingan.

Toshkent

Markaziy Osiyoning eng yirik transport chorrahasi joylashgan ushbu shahar bir vaqtning o'zida ham zamonaviylik, ham o'tmish nafasini saqlab qolgani bilan boshqa shaharlardan ajralib turadi. Ko'kaldosh, Abulqosim, Hazrati Imom mavzesidagi Mo'yi Muborak, Baroqxon madrasalari poytaxt ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Metro bekatlarining o'zgacha uslubda qurilganligi ham o'zbek an'analari va milliylikining tarovatidir.

Samarqand

Yurtimizga tashrif buyurgan har bir sayyoh 2750 yillik o'tmishi va tarixiy obidalari bilan ko'plab shaharlarni ortda qoldiruvchi Samarqandga bormay o'z sayohatini yakunlamaydi. Misr, Xitoy, Hindiston, Germaniya, Italiya davlatlarining qadimiy yodgorliklaridan hech qolishmaydigan Samarqandning Go'ri Amir, Shohizinda, Registon ansambllari yilning har mavsumida turistlar bilan gavjum. Mirzo Ulug'bekning osmon jismlarini o'rganish uchun qurdirgan rasadxonasi 1449-yilda buzib tashlanib, faqatgina yer osti qismi qolishiga qaramay e'tibordan chetda qolgan yo'q.

Buxoro

O'rta Osiyodagi eng katta ochiq osmon ostidagi muzey Buxoro shahrida joylashgan. Bolohovuz masjidi, Minorai kalon, Ismoil Somoniy maqbarasi, Labihovuz ansambli Buxoro tarixidan so'zlaydi.

Xiva

Bir necha asrlar oldin Xiva shahrini mudofaa qilish maqsadida qurilgan devor bugungi kunda YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatidan joy olgan. Ichan qal'a, Dishan qal'a, Ko'hna Ark qal'asi, Pahlavon Maxmud majmuasi Qadimgi Xorazm me'morchiligi durdonalaridan hisoblanadi.

Zomin – O'zbekiston Shveysariyasi

O'zbekistondagi eng yirik turistik infratuzilma Jizzax viloyati Zomin tumanida joylashgan. Dengiz sathidan ikki ming metr balandlikdagi toza havo va go'zal manzara qo'ynida "Zomin" davolash-sog'lomlashtirish sanatoriysi mavjud. Duoba qishlog'idagi uzunligi 2102 metrlik zamonaviy dizaynda qurilgan osma dor yo'li ham sayyohlarning chinakam hordiq chiqarishi uchun xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda turizmni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar natijasini yildan-yilga oshib borayotgan sayyohlar soni va ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatidan ham ko'rsa bo'ladi.

Dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biri sayyohlik (turizm) sohasidir. Ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar O'zbekistonni ham chetlab o'tayotgani yo'q, albatta. Xo'sh, mamlakatimiz sayohat qilish uchun qanchalik qulay?

Turizm sohasini yaxshilash uchun yurtimizda 2021-yilda 11,4 trillion so'm evaziga 495 ta loyiha, 2022-yilda esa 22,1 trillion so'mga 735 ta loyiha ishga tushirildi. 2017-yilda O'zbekistonga sayohat qilish uchun kelganlar soni 2,7 million kishini tashkil etgan bo'lsa, oradan besh yil o'tib bu ko'rsatkich 1,9 barobarga ortib, 5,2 million nafarga yetganini ko'rsatmoqda. 2024-yil yanvar-mart oylarida O'zbekistonga eng ko'p Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston fuqarolari sayohat uyushtirgan.

O'lkamiz hududiga kirish imkonini beruvchi vizani olish tizimiga ham bir qancha o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, 2018-yildan boshlab elektron viza olish, 2022-yildan boshlab dunyoning 93 davlatidan keluvchilar uchun vizasiz kirish imkoniyati taqdim etildi.

O'zbekistonda Toshkentdan tashqari yana o'nta shaharda (Andijon, Buxoro, Navoiy, Samarqand, Urganch, Namangan, Farg'ona, Termiz, Qarshi, Nukus) xalqaro aeroportlar mavjud. Poytaxtdagi ikkita temiryo'l stansiyasi Toshkentni deyarli barcha viloyatlar bilan bog'laydi. Viloyatlarga qatnash uchun qo'yilgan har kunlik avtobuslar esa mijozlarni yanada ko'proq qulayliklar bilan ta'minlaydi.

2023-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra respublikada 1088 ta mehmonxona faoliyat ko'rsatib, ularning orasida Hilton, Marriott, HYATT, Wyndham, Intercontinental Hotels, Group



SHUKRONALIK — BUYUK FAZILAT



Sadoqat JUMANOVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 20-umumiy o'rta
ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini qurish uchun yoshlarni yuksak ma'naviyatli, borini qadrlaydigan va shukronalik hissi bilan yashaydigan qilib tarbiyalashimiz zarur. Shukronalik ruhida tarbiyalangan yoshlarni ijobiy fikrlaydigan va jamiyatni hamjihat, do'stligini ta'minlaydigan ijobiy quvvat deb hisoblash mumkin.

Xo'sh, bu borada biz nimalarga tayanamiz? Yoshlarni shukronalik ruhida tarbiyalashda ma'naviy merosimizdan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish yaxshi samara beradi. Haqiqatdan ham, barcha narsani shukronalikdan boshlamoq lozim. Chunki shukronalik bilan yashamoq insonga halovat va huzur bag'ishlabgina qolmay, tushkunlikka tushishdan, depressiyadan saqlaydi. Psixologiya fanida shukronalik turmush, oila, ish faoliyati va boshqa jabhalarga uyg'unlik beruvchi fazilat deb e'tirof etiladi. Shukronalik asosan minnatdorlik orqali ifoda etiladi. Minnatdorlik – ne'matlarni tan olish bo'lib, katta jasorat, yaxshilik qilish bilan barbardir.

Ayrim mutaxassislar shukronalik tushunchasini "sehrli kuch" deb atashadi. Psixolog Vadim Zeland noshukurlik haqida "Nimadandir qattiq norozi bo'lish shu narsani istash bilan barobar" degan fikrlarni keltiradi. Keling, shu o'rinda buyuk ajdodlarimizning hayot yo'li va ibratli fikrlariga quloq tutamiz.

Bahouddin Naqshbandning hayot yo'li va naqshbandiya ta'limotidagi shukronalikka oid fikrlarni ta'lim-tarbiya jarayonida va ommaviy axborot vositalari orqali targ'ib etish foydalidir. Shukronalik hissi bugungi zamonaviy hayot har birimiz uchun hozirlab qo'ygan ruhiy jarlikka qulash ehtimolini bir necha barobar kamaytiradi. Misol uchun, hayotning baxtli lahzalarini unutib yuborishga bo'lgan moyillikni sezilarli darajada

kamaytiradi. Agar biror natijaga erishish uchun uzoq va qattiq mehnat qilsangiz, o'zingizda hech qanday o'sish bo'lamayotgandek his qilishingiz mumkin. Oqibatda erishgan yutuqlaringizdan ko'nglingiz to'lmay, undan ko'prog'iga erishishga harakat qilasiz. O'zingizdan mamnun bo'lish o'rniga nuqul ko'nglingiz to'lmaydi. Yoki yolg'izlikni his qilib, do'stlaringiz ko'p bo'lishini xohlaysiz. Inson qo'lidagi ne'matlarga shukur qilar ekan, ne'matlar ziyoda bo'lishiga guvoh bo'ladi. Nolish, inkor qilish bilan qo'lidagi ne'mat ham yo'q bo'ladi.

Alloh taolo bandalariga mislsiz ne'matlarni in'om etdi va ana shu ne'matlarga shukur qilishni talab etdi. Shukronalik turli vaziyatdagi insonlarga tamoman turlicha ma'no anglatishi mumkin. Uni insoniy fazilat, hissiyot, xislat deb atash mumkin. Shukronalik har birimizning vujudimizda bor. Sizga kimdir yaxshilik qilsa, ko'nglingizning bir chekkasida o'sha insonga nisbatan iliqlikni his qilasiz. Hoynahoy, odamlar birbirlariga yaxshilik qilganlarida ularda shukronalik hissi uyg'onadi. Bu odat hayvonot olamida, jumladan, ayrim baliq turlarida, qushlarda va sut emizuvchilarda ham bor. Inson ongi uni yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishga undaydi.

Shukronalik, ya'ni shukur yaxshilikni e'tirof etishdir. Yoshlarda shukronalik hissi va hayotdan mamnunlik tuyg'ularini rivojlantirish uchun tarixdagi qonli urushlar bilan hozirgi tinch va osoyishta kunlarni taqqoslab tushuntirish mumkin. Shukronalik hissini yoshlar ongiga chuqur singdirish, eng avvalo, ota-onalarning hamda ta'lim tashkilotlarining oldida turgan muhim vazifadir.

Demak, insonning kamolga yetishida barcha ijobiy fazilatlarining o'ziga xos o'rni bor. Ammo ular ichida shukronalikning o'rni kattadir.

BUXORO — QADIMIY MADANIYAT BESHIGI



markazi 1993-yilda YUNESKO-ning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Qadimiy sharqona ertak muhitiga tushib qolishni istasangiz, Buxoroning eng diqqatga sazovor joylari sifatida quyidagilarni sanab o'tish joiz:

Poyi kalon ansambli (Shanxay hamkorlik tashkiloti tomonidan "sakkizinchi mo'jiza" sifatida tan olingan), Buxoro arki, Somoniylar maqbarasi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Mag'oki attori masjidi, Mirzo Ulug'bek madrasasi, Mir Arab madrasasi, Labihovuz ansambli va boshqalar.

Bundan tashqari, bu ulug'vor shaharning yoshi 2500 yildan ortiq bo'lib, uning hududida ko'plab qadimiy masjidlar, madrasalar va islom avliyolarining maqbaralari mavjud. Qadim zamonlardan beri odamlar barcha musulmon shaharlarga osmondan ilohiy nur tushsa, bu nur faqat Buxorodan osmonga qarab ko'tarilishini aytadilar.

Buxoro X asrning mashhur tarixchisi Narshaxiy tomonidan deyarli tarixi to'liq hujjatlashtirilgan Markaziy Osiyodagi yagona shahar hisoblanadi. O'z asarlarida u biron bir shaharning Buxoro kabi ko'p nomlari yo'qligini ko'rsatadi. V asrda Xitoyda u Nyumi deb nomlangan, keyinchalik Tan imperiyasining manbalarida u An, Ansi, Buho va Buhe deb nomlangan. Lekin tarixda ko'pincha Buxoro nomi bilan atalgan. Etimologlarning fikriga ko'ra, bu nom sug'diylarning "buharak" so'zidan kelib chiqqan va "baxtli joy" deb tarjima qilingan.

Hozir Buxoro hududida bir asrdan ko'proq vaqt oldin qurilgan, turli davrlarga tegishli bo'lgan bir yuz qirqdan ortiq yodgorliklar, dahalar va mavzalar saqlanib qolgan.

Xullas, Buxoro shahriining ziyorat turizmi islom dini va madaniyati tarixini chuqurroq o'rganish, mamlakatimizning sayyohlik nufuzini oshirish, uni ziyorat turizmi markazi sifatida tanitish, mazkur shaharning madaniyat beshigi ekanligini anglatishda o'rni beqiyosdir.

Noilaxon XOLBOYEVA,
Toshkent shahar Yashnobod tumanidagi
149-umumiy o'rta ta'lim maktabining
11-sinf o'quvchisi

Dunyoning qadimiy shaharlaridan biri, xalqaro sayyohlik markazlaridan sanalgan Buxoro islom olamining markazi, madaniyat beshigi sifatida e'tirof etiladi. Bu shaharning har bir go'shasida boy tarixga ega minoralari, osori-atiqalari, muqaddas qadamjolari va obidalarida olis o'tmishning aks-sadosi, qoldirgan izi bor. Buxoro jahonning eng qadimiy va tarixiy-me'moriy obidalarga boy go'zal shaharlaridan biri bo'lib, u azaldan islom olamida yuksak nufuzga ega bo'lgan. Ushbu zamin Imom Buxoriy, Ibn Sino, Narshaxiy, Naqshbandiy, G'ijduvoni kabi buyuk allomalarning dunyoga tanilishida muhim rol o'ynagan. Ular yozgan asarlar jahon ma'naviy mulkining durdonalariga aylandi. Ayniqsa, Imom Buxoriyning "Sahihi Buxoriy" to'plami va boshqa asarlari, Abu Ali ibn Sinoning "Tib qonunlari" kitobi islom olami va jahon ilmi javohirlari deb e'tirof etiladi.

Buxoro hududida ulkan tarixiy ahamiyatga ega muqaddas qadamjolar, masjid-u maqbaralar, minoralar va madrasalar joylashgan. Islom ta'limi tizimida universitet maqomida bo'lgan Nizomiya madrasalari, ya'ni oliy madrasalar aynan Buxoroda faoliyat yuritgan. Ularning eng mashhurlari Mir Arab va Ulug'bek madrasai oliyalaridir. Shuningdek, Buxoro O'zbekistonning sayyohlik durdonalaridan biridir. Tarixiy shahar



TILGA BO'LING HURMATDA...

Gulruh RIZOYEVA,
Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi
20-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



O'zbekning o'zligini, o'ziga xos qadriyatlarini, ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi ona tilimiz xalqimizning bebaho boyligidir. Dunyo xalqlari va millatlarining madaniy o'zagi va asosiy muloqot manbai bu ularning milliy tili hisoblanadi. Shunday ekan, har bir tilning saqlanishi hamda yosh avlodga yetkazilishi, xalq taraqqiyoti va uning kelajagini belgilaydi. Birgina til ko'plab xalqlarni o'zaro birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, an'ana va madaniyatlarini saqlaydi, ularning avloddan avlodga o'tishini ta'minlaydi. Zero, har bir inson uchun yurti, ota-onasi, oilasi qanchalik muqaddas bo'lsa, ona tili ham shunchalik azizdir. Hatto go'dak ham dunyoni ona allasi, ona tili orqali angelaydi. Shuning uchun doim til, millat, Vatan tushunchalari yonma-yon yuradi. Tilsiz jamiyat rivojlanmaydi, taraqqiy topmaydi. Ona tili – millat ruhi, or-nomusi hisoblanadi. Ammo shu o'rinda haqli savol tug'iladi. Biz tilimizning qadriga yetaymizmi? Afsuski, har doim emas. Ko'chalarda do'konlar, supermarketlar, turli xil ustaxona shoxobchalari, go'zallik salonlari, osmono'par binolar, bog'chalarga qo'yilgan nomlar o'zbek tilida emas, balki boshqa xorij tillarida yozilganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Xo'sh, ona tilimizni biz asramasak, hurmat qilmasak, kim qadrlaydi? Naqadar achinarli holat bo'lishiga qaramay, biz bunga ko'nikib yashab kelmoqdamiz. Axir biz O'zbekistonda yashayapmiz-ku, nima uchun bu borada o'zbekcha so'zlardan foydalanmasligimiz kerak? Bu borada aytmoqchimaniki, yaqin-yaqinlargacha mamlakatimizda o'zbek televideniyesi, radiosi, gazetalari xabarlarini ancha yuzaki va chala yoritardi. Hatto dunyoda yoki yurtimizda bo'layotgan muhim hodisa va jarayonlar kechikib berilar, ba'zan chala yoritilardi. Ammo oxirgi vaqtlarda bu hol asta o'zgaryapti. Milliy telekanallar rivojlanib, milliy kanallarni ko'rish tobora qiziqarli bo'lib boryapti. Albatta, bu omil ham tilimizning mavqini oshiradi. O'z tilini yo'qotgan xalqda milliy tarbiya va madaniyat o'z-o'zidan tanazzulga yuz tutadi. Alisher Navoiyning "Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz" degan hikmati necha asr o'tsa ham o'zining ma'no-mohiyatini yo'qotgani yo'q.



Aksincha, tarixiy jarayonlar bu hikmatning naqadar haqqoniyligini isbotlab bergan. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Xalqimizning turmush va tafakkur tarziga nazar tashlaydigan bo'lsak, boshqalarga hech o'xshamaydigan, ming yillar davomida shakllangan, nafaqat o'zaro muomala, balki hayotimizning uzviy bir qismi sifatida namoyon bo'ladigan bir qator o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz. Misol uchun, tilimizdagi mehr-oqibat, mehr-muhabbat, mehr-shafqat, qadr-qimmat degan, bir-birini chuqur ma'no-mazmun bilan boyitadigan va to'ldiradigan iboralarni olaylik. Qanchalik g'alati tuyulmasin, bu iboralarni boshqa tillarga aynan tarjima qilishning o'zi mushkul bir muammo" degan so'zlarida naqadar chuqur hayotiy haqiqat mujassam ekaniga va tilning jamiyat hayotida naqadar dolzarb o'rin egallashiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz. Zero, ona tili har bir millat madaniyatining o'zagidir. Shu sababli ham tilning sof saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, ona tilimiz millatimizning eng qadrlil boyligi, uning ma'naviy qiyofasi, madaniyati, ichki dunyosini aks ettiruvchi muhim vositadir. Uni asrab-avaylash, onamizdek ardoqlash, e'zozlash har birimizning farzandlik burchimiz ekanligini unutmashimiz lozim.



MILLIY AN'ANALARIMIZ – G'URURIMIZ



Hilola NARZULLAYEVA,
Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi
20-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng turli sohalarida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi. Milliy urf-odatlarimiz, udumlarimiz, an'alarimiz, milliy ma'naviyatimiz va mentalitetimiz qayta kuchga kirdi. O'zbekiston va o'zbek xalqi turli davr va zamonlarning qiyinchiliklarini boshdan kechirdi. Har qanday tazyiqlarga qaramay tarixiy va madaniy qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qildi. Milliy an'analar millat hayotining turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, qadriyatlar, faoliyat turlari, odatlar va xislatlarning avloddan avlodga o'tishi hamda meros bo'lib qolishini ifodalovchi tushunchadir. Milliy an'analar umuminsoniy an'analarning bir millat darajasida namoyon bo'lishini bildiradi. Ular orqali har bir millatning muayyan davrdagi o'ziga xos xususiyati, hayot tarzi, madaniyati, fani, adabiyoti va boshqa sohalaridagi erishgan natijalari va yutuqlari boshqa davrda yashayotgan avlodlarga yetkaziladi. Milliy an'analar rang-barangdir. Ularda har bir millatga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. Masalan, butun dunyo xalqlariga xos mehmondo'stlik an'anasi o'zbeklarda ruslar, gruzinlar, inglizlarnikidan farq qiladi. Milliy an'analar millatni birlashtirish, avlodlararo vorislikni ta'minlash vositasidir. Muayyan milliy an'analarni bajarishda insonlar ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar bir xilda harakat qiladi. Milliy an'analarda millatning betakrorligi, millat hayotining o'ziga xosligi, vorislikning muhim milliy jihatlari aks etadi. Har bir xalq o'z milliy an'alarining sohibi, ularning saqlovchisidir. Millatning har bir avlodi milliy an'analarni o'tmishdan kelajakka yetkazib beruvchi insonlar ruhida tarbiyalanishi kerak. Har bir millatning tanazzuli milliy an'analarning ham tanazzuli sanaladi. Sobiq ittifoq davrida milliy an'analarning ayrimlari "o'tmish qoldiqlari" sifatida baholanar, ularning barham topishi to'g'risidagi g'ayrimilliy va g'ayriilmiy aqidalar targ'ib qilinar edi.

Ma'lumki, ijodkor xalqimizning badiiy so'z sehrini o'ziga jo qilgan, ko'ngil chashmasidan qaynab chiqqan bayram va marosimlari bamisoli jo'shqin daryoga o'xshaydi. Shu muqaddas zaminda ming yillar mobaynida yashab kelgan ota-bobolarimiz iqdidori va momolarimizning ijodiy salohiyatining mahsuli sifatida shakllanib, amaliy milliy qadriyatlar bizgacha yetib kelgan. Millatning o'ziga xosligi, urf-odat, an'analarni ifodalovchi avloddan avlodga o'tib kelayotgan bunday bebaho meros har bir xalq, millat uchun qadrlidir. Albatta, bu qadrlil an'alarimizni saqlab qolish va uni yanada boyitish barchamizning burchimiz, vazifamizdir. An'ana o'ziga xos ijtimoiy hodisa sifatida insonlar ongiga singgan, omma yoki ma'lum guruh tomonidan qabul qilingan tartib va qoidalar majmuasi hisoblanadi. An'ana tarixiy taraqqiyot jarayonida tabiiy va ijtimoiy ehtiyojlar asosida yuzaga keladigan, avloddan avlodga meros bo'lib o'tadigan, insonlar ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatadigan madaniy hodisadir. Odat ko'p hollarda urf-odat deb ishlatiladi. U kishilarning turmush tarziga, hayotiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmasidan iboratdir. An'ana mehnat, ijtimoiy hayot, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida tushuniladi. Odat esa muayyan bir kishining turmush tarzi, muloqoti, xatti-harakati, xulq-atvori va oilaviy munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Urf-odat tushunchasi o'ta keng bo'lib, u o'z doirasiga xalq hayotini, ya'ni oddiy kundalik udum, rasm-rusum, marosimlar, irim-sirimlarni qamrab oladi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlod qalbida milliy iftixor tuyg'ularini yuksaltirish, qadimiy urf-odat va an'analarga nisbatan hurmat, ehtirom uyg'otish, ota-bobolarimizga xos o'zbekona did va nafislik xususiyatlarini shakllantirish hamisha muhim maqsadlardan biri sanaladi.



Qodirjon MUHAMMADAMINOV,
Farg'ona davlat universiteti fizika-
texnika fakulteti fizika yo'nalishi
2-bosqich talabasi



OSHIQ FIZIK SHE'RI

Yomg'irpo'shga o'ransa huv kulgichlaring,
Nisbiy namlik ortib ketsa yonog'ingda.
Shamol bo'lib yuzlaringga urilaman,
Ashk bug'lanar, ko'zlarindingan, qovog'ingdan.

Qara, sening tabassuming bir nur misol,
Kamalakni chizib qo'ygan bu ko'zingga.
Beixtiyor magnit bormi yuragingda,
Yuragimni tortib olding ham o'zingga.

Men ham bitta Nyutonning olmasiman,
Yor bo'lmasam yormasmidim boshgingangni.
O, tangrim ham chizib qo'ygan qanday chiroy,
Ellipsdek o'sha uzun qoshgingangni.

Ishqing go'yo bir issiqlik miqdoridir,
Va tanamda ortib borar haroratim.
Rashkim kelar lablaringga urilgan har,
Atomda ham bordir mening adovatim.

Va sevgidan quvnab yurib ko'kka ketsam,
Qon bosimim tushgani ham bilinmaydi.
Har vaqt sevib, menga quvvat berib tursang,
Yuragim ham ishlamoqdan erinmaydi.



Sen bir zaryad, men bir zaryad ta'siridamiz,
Ishqimizdan gohi qochdik, yaqinlashdik.
Bor tashvishni uloqtirdik, qora tuynuk,
Kutib olgin, biz u bilan xayrlashdik.

Hayotimiz tebranadi goh armonik,
Gohi to'lqin, baland-pastlik, do'ngliklarda.
Shukur aytgum, sen bo'lsang gar bu hayotim,
Baxtim bisyor uch o'lchamli kengliklarda.

Jim turmagin, so'zla, oshsin ishq qiymati,
Ta'sir etsak baxt ham olar tezlanishni.
Va vaslingni yo'llariga ko'z tikibon,
Ko'ryapsanmi ko'zlarimda kengayishni...

Duo qildim "Taqdirimda bo'lgin" deya,
Dilga aytdim "Oshir endi bikirlikni".
Shoir bo'lib ishqni bildim sen-la birga,
Fizik bo'lib tushundim men tiriklikni...



TINCHLIKKA SHUKUR

Bobom aytar edi,
Xo'rsinib chuqur,
Chuqur jimlik cho'kib qolgan xonada:
"U paytlar yuzingga tushmas edi nur,
Quyosh berkitilgan zulmat panada.
Janggoh ham keng edi,
Tabiat majruh,
Kimdir jon berganda seskanib yerlar.
Alaflar yuzinda shabnam emas xun,
Jon talash olamdan chiqardi terlar.
Daydi o'q kezardi dunyoda notinch,
Kimningdir oyog'i yo qo'li afgor.
Kimningdir ko'ksiga bosh qo'yganda tinch,
Tuyula boshlaydi ilinjlar ag'yor".
Ashklar quyilardi bobom ko'ziga,
Ajinlarda mudom mavjlanar yoshi.
"Bolam" deb qaytarkan tarix iziga,
Lekin sen ranjima, qalbm quyoshi.
Biz mag'lub emasmiz,
Axir biz kuchli,
Chekinishga imkon bermadi g'urur.
Toychoq'im, bu o'lka - qahramon o'lka,
Sening bobolaring ruhi bo'ldi shuur.
Duolar izmida chekindi bulut,
Quyoshning nurlari quchoq ochdi keng.
Uydagi mushtipar ona ham asli,
Jang qildi,
Janggohda askarlarga teng!
Bu urush ko'plarni yetim qildi goh,
Kimlarni tiriklik bilan o'ldirdi.
Kimlarning ustini yupun qilsa ham,
Barchani ozodlik bilan to'ydiridi".
Bobom aytar edi: "Tinchlikka shukur" ...



SEN BAHORSAN...

Sen bahorsan, men yozman,
Azizam, dunyo xasdir.
Ikkimiz teng bo'lay desak,
Tarozi buzuqmasmi?

Bu dunyo g'irrom dunyo,
Yor, yosh to'kma bariga...
Aldab-suldab bir kuni,
Bosvolarkan bag'riga.

Yo'l izlayman yo'llardan,
Chora topmoq, topishmoq.
Taqdirimiz yo yostiq,
Yo tuproqda yotishmoq.

Men gul taqdim chakkangga,
Yor, iqboling kul sin deb.
Vujudlar jon bermasdan,
Muhabbat nish ursin deb.

Bizda taqdir ichinda,
Gohi sulh, goh nizo bor.
Yo visoldan bizlarga
Bir umrlik qazo bor.

Azob chekma, gulgun yur,
Sen kiy bahor tojini.
Bu ko'ngillar o'shanda
Tavof aylar hojini.

Joning bo'lsin sog'-omon,
Bu g'arib-u dun ichra.
Men senga baxt eltaman,
Nasib bo'lsa hovuchlab...

Taqdir qolsin olqishlab...



BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH



Nafisa KUBAYEVA,
Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi
20-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Boshlang'ich sinf dars jarayonlarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan samarali foydalanilganda axloqiy ta'lim-tarbiya maqsadlariga erishish yengil amalga oshadi. Chunki umumiy o'rta ta'limning birinchi bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilim egallashga bo'lgan qiziqishlari asosida aqliy qobiliyatlari shakllantiriladi. Aqliy kamolotga uyg'un tarzda o'quvchilarning ma'naviy dunyosi boyitiladi hamda axloqiy fazilatlar takomillashtiriladi. O'quvchilarda mehnatsevarlik, yuksak did, fahm-farosat, nafis his-tuyg'ular rivojlanib boradi. Aynan shu davridayoq iqtisodiy va ekologik tushuncha, tarbiya, odob-axloq ko'nikma va malakalari tarkib topa boshlaydi. Balki shu sababdan ta'lim-tarbiya muassasalarida o'quvchi-yoshlarning, xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining har tomonlama kamol topishiga jiddiy e'tibor qaratiladi. Xalq og'zaki ijodi inson tarbiyasi va kamolotida muhim rol o'ynaydi.

Xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lgan maqollar ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy tarbiyasida katta ahamiyatga ega. Chunki maqolni xalq yaratadi, shuning uchun u xalqning umumiy fikrini ifodalaydi. Unda xalqning hayotga bergan bahosi, xalq tafakkurining mushohadalari bor. Xalq maqollari yodlash uchun qulay shaklga ega bo'lib, ularning etnopedagogik vosita sifatidagi ahamiyati beqiyos. Maqollarni esda saqlashning osonligiga sabab shuki, ularni yod olishda so'zlar, turli xil undoshlar, qofiyalar, ritmlar yordam beradi. Maqollarning pirovard maqsadi hamisha ta'lim-tarbiya bo'lib kelgan. Ular qadimdan pedagogik vosita vazifasini o'tagan. Jumladan, vatanparvarlik tuyg'usi ham aynan maqollar vositasida yoshlar ongiga singdirilgan. Masalan, "Birovning yurtida bek bo'lguncha, O'zingning yurtida it bo'l" maqolini olaylik. Mazkur maqol ham aynan bolalarni boylikka qiziqmaslikka, Vatanga muhabbat, yurtga sadoqatli bo'lishga o'rgatadi. Shuningdek, "Bulbul chamanni sevar, Odam - Vatanni" maqoli orqali ham yosh avlod Vatanni qadrlashni, har bir inson uchun o'z Vatani qadrligi anglab yetadi.

Bundan tashqari, xalq og'zaki ijodi nafaqat axloqiy fazilatlar, balki milliy madaniyatni, uning ildizlarini asrab-avaylash va rivojlantirishni, tarix va madaniyat yodgorliklariga, an'anaviy xalq amaliy san'atiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Xalq og'zaki ijodi, xalq urf-odatlarini, marosim va bayramlari, an'anaviy amaliy san'at va tasviriy san'atni qayta tiklash bugungi kunning dolzarb muammasidir.

Xullas, yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyalangan insonda yurtga muhabbat, samimiy do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e'tiqod, imon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar mujassamlashadi. Zero, axloqiy tarbiyaning negizi hisoblangan xalq og'zaki ijodi turli ma'rifiy-axloqiy g'oyalardan, tushunchalardan, qarashlardan, tasavvurlardan tizimining mahsulidir.

KASB TANLASHDA PSIXOLOGIK YONDASHUV



Telman BOLTAYEV,
Xorazm viloyati
Qo'shko'pir tumanidagi
37-umumiy o'rta ta'lim
maktabi psixologi



Darhaqiqat, yurtimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltirish har bir insondan ulkan mas'uliyatni talab qiladi. To'g'ri, kasb-hunarning yomoni bo'lmaydi. Muhimi, inson o'z ishini puxta egallashi va mehnati bilan el-yurtga, oilasiga naf keltirishidir. Jumladan, novvoy xalq dasturxonini to'yimli va xush'tam nonlar bilan ta'minlash, shifokor o'z bilim hamda mahorati bilan bemorlarni davolaydi. Haydovchi odamlarning uzog'ini yaqin qilsa, dehqon el dasturxoniga shirin-shakar qovuntarvuzlar, don mahsulotlari va sabzavotlar yetkazib beradi. Chevar esa xushbichim kiyim-kechaklar tikadi, me'mor yurt ko'rkiga ko'rk qo'shuvchi mahobatli binolar quradi. Shu sababli inson eng qiyin vaziyatlarda ham o'z kasb-hunarini ishga solib, qiyinchiliklarni yengishi mumkin. Tasavvur qiling, jamiyatdagi qaysidir kasb yoki hunar bo'lmasa, qanday vaziyat yuzaga kelishi mumkin? Agar haydovchi bo'lmasa, odamlar ishga, o'qishga o'z vaqtida yetib olishlari amrimahol. Farrosh vazifasini bajarmasa, ko'cha va jamoat joylarida sarishtalik bo'lmaydi. Demak, hayot maromida borishi uchun har bir inson o'z kasbini sidqidildan bajarishi lozim.

Kasb tanlashda umumta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan psixologlarning o'rni beqiyos. Kasb va kasbiy psixologiya o'zining tadqiqot sohasi bilan eng muhim amaliy ishni hayotga tatbiq etib boradi. Kasb psixologiyasi inson va kasb o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish orqali insonni kasbga tayyorlaydi, uning imkoniyatlari va qiziqishlarini o'rganish orqali unga ma'lum bir kasblar haqida

bilimlar va o'ziga qiziq tuyulgan kasbni egallashga yo'l-yo'riqlar berib boradi. Bu kabi ko'plab misollar, ya'ni insonni kasbga o'rgatish, kasbga xos bo'lgan xulq-atvurlarni singdirish insoniyat tarixida ko'plab uchraydi. O'sib kelayotgan yosh avlod, uning kasbni egallashi masalalari katta avlodni har doim qiziqtirib kelgan va hozirda ham bu masala dolzarb masalalar qatorida turadi. Izlanuvchi yoshlar kasbhunarni egallash kelajagini hal qiluvchi omil ekanligini yaxshi anglaydilar. Kasb - kishilarning hayoti uchun zarur bo'lgan, jamiyatdagi huquqiy me'yorlarga javob beradigan, insonning kelajagini belgilab beradigan o'ziga xos murakkab jarayon sanaladi. Zero, kasb - bu insonning ma'lum bir ehtiyojlarini va manfaatlarini o'zi tanlagan faoliyatidagi bilimlari, layoqati, malakalariga xos xususiyatlari orqali namoyon bo'lishidir. Kasbga xos bo'lgan jarayonlar, ularni egallash, tanlash inson psixologiyasi bilan bog'liqligi sababli uni tanlashda psixologik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Kasb psixologiyasi aynan shunday murakkab jarayonlarni o'rganish orqali yoshlarni o'zlari qiziqqan kasbga yo'nalish beruvchi fan hisoblanadi. Aslida kasb tanlashda malakali mutaxassis bilan maslahatlashish zarur.

Xullas, kasb tanlashda psixologik yondashuv, ya'ni kasb mohiyatiga kirishish, bilimlar, ko'nikmalar, malakalar bilan tanishish, ularni egallash uchun oqilona usullarni tanlash, amaliyotda unumli foydalanish hamda mahorat qirralarini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.



DUNYO

Menga adolatdan gapirma, dunyo,
Javobsiz savollar kesdilar tilim.
Hayot xo'jako'rsin, hammasi riyo,
Tikan to'shaklar-la to'sdilar yo'lim.

Menga haqiqatdan gapirma, hayot,
Qo'shilib egildim haqiqatingga.
Safsatalaringni ulotirib ot,
Ular xizmat qilar sening foydangga.

Menga ishonchlaring uqtirma, do'stim,
Ko'nglimning yarmini kesib ketdilar.
Rangim ham sarg'aydi, yalinib o'sdim,
Ishonchga qo'shilib, neni ekdilar?

Qisqa qil arz-doding, haqqoniy emas,
Tanam qulab borar, mag'rurlik, ma'yus.
Ayni dam ko'nglimga zarra qil sig'mas,
O'ldim deb o'yilasam, tirikman afsus...

Menga adolatdan so'z ochma, dunyo...



Zulayxo QURBONOVA,
Xalqaro adabiyot, san'at, madaniyat
va ijtimoiy fanlar Akademiyasi Butunjahon
xalq ijodkorlari uyushmasining a'zosi,
Buxoro viloyati G'ijduvon tumani



MEN

To'rt tomonin g'uribat qoplagan,
O'z sha'nini o'zi toptagan,
Fikr aytsang, "Og'zing yop" degan,
To'sayotgan xalqning qiziman.

To'qson to'qqiz ne'matni ko'rib,
Bir ne'matning ketidan quvib,
O'z jigari qonini so'rib,
Ichayotgan xalqning qiziman.

Ko'nglin topsang ko'zi quvnagan,
Qo'yib bersang Haqni tinglagan,
Qur'on desang qalbi yayragan,
Ixlosi bor xalqning qiziman.

Guruhlari kurmakdan to'lgan,
O'z dinidan o'zlari kulgan,
Ayrimga ermaklar bo'lgan,
Va'dasi xor xalqning qiziman.

Bir yomonga ming yaxshisi bor,
Dong taratgan kuy, baxshisi bor,
Haq yo'lida Haqning o'zi yor,
Alloh suygan xalqning qiziman.

Kichik qalbi sig'dirgan olam,
O'z yurtiga munosib odam,
Alloh uchun suyuqli har dam,
Kichik ko'ngil xalqning qiziman.

Nozik ko'ngil xalqning qiziman,
Buyuk ko'ngil xalqning qiziman...

YOLG'IZ AYOL
IZTIROBI

Tog'lar bardoshini ko'targay yelkang,
Sabrdan qurilgan muhtasham uying.
Qay nokas ko'nglingni vayron qildiyan?
G'amingga hamohang yangraydi kuying.

Ko'ksingni kuydirar alam, iztirob,
G'unchalar bosh egar, ochilmas yayrab.
Qaniydi, mard bo'lib aytolsa shu tob,
Mehrdan bog' qurib, ko'nglingga qarab.

Bir nima demoqqa qilib andisha,
Xatoni o'zingdan izlaysan, erkam.
Nomard g'avg'olardan qalbingni tesha,
O'zini hisoblar hamisha bekam.

Yolg'izlik qismatni taqdiridan ungan?
Ko'ngilni armonga ko'mib o'tgan dard.
Ayriliq yomg'iri maydalab tingan,
Yuva olmay halak qalblardagi gard.

Dashnomlar yog'ilar yolg'iz boshingga,
Haqliging isboti kerakmas endi.
Shuncha malomatmi guldek yoshingda?
Suvlar loyqalanib oxiri tindi.

Achinmay qo'ya qol o'tgan umringga,
O'g'lingdir, qizingdir qoldi ortingda.
Kun kelib faxr-la yarar kuningga,
Hayot go'zalligi hali oldinda.

Tog'lar bardoshini ko'targay yelkang,
Yangidan jismingda kuch bo'lar paydo.
Ko'ngling vayron qilgan o'sha nomardni,
Jim turib Allohga topshir, shu jazo...



SUHBAT

Dunyo nima? Dunyo – matoh,
Ko'rib, tashlab ketilgan.
Ziyo nima? Ziyo – iloh,
Hidoyatlar bitilgan.

Umr nima? Umr – tashvish,
Xotirjam etolmagan.
Taqdir nima? Taqdir – yayov,
Yugurib yetolmagan.

Xiyonat ne? Gunohing
Kechirilmas xatolar.
Inoyat ne? Allohning
Marhamati atalar.

Hijron nima? Hijron – firoq,
Za'farondek sarg'aygan.
Armon nima? Armon yiroq,
Orzularing qartaygan.

Ko'ngil nima? Ko'ngil – Ka'ba,
Ziyoratga shoshilgan.
Gunohidan qilgan tavba,
Savoblari teshilgan.

Panoh nima? Panoh – Alloh,
Qayda bo'lsang asragan.
Gunoh nima? Kibr – gunoh,
Katta fitna yasagan.

Qayg'u nima? Qayg'u
Qalbning o'lishi.
Tuyg'u nima? Tuyg'u
Shamdek so'lishi.

Tavba nima? Pushaymonlik
Qilgan qilmishlaringga.
Shubha nima? Bemorlik
Tug'yondir ishlaringga.

Haqiqat-chi? Darbadarlik,
Tinchgina egilmagan.
Adolat-chi? Yorug'lik,
Misli ham ko'rilmagan.

Jon nima? Omonat mulk,
O'zi berib, olguvchi.
Iymon nima? Zikri xulq,
Ikki dunyo qolguvchi.

Orzu nima? Haq vasli,
Dunyoning saodati.
Qarz nima u? Jon qarzi,
Xotirjamlik holati.

KUYMOQ AZOBIDAN
QUTQAZING MENI...

"Majnuntol tagiga o'tqazing meni,
Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim".
Bilgan-bilmaganim qo'llasin meni,
Fisq-u fasodlardan oy kabi to'ldim.

Yuzda dog'im ko'rib kuldi g'anamlar,
Asli ichda dog'dan asar yo'q edi.
Maddohlar kuch bilan yoniga imlar,
Zaqqum so'zlar bor-u, zahar yo'q edi.

Kuysang yuragingga kirar uymalab,
Betingga aytgani botinolmaslar.
Andisha qilsang-u, tursang iymanib,
Hattoki jim turib o'tirolmaslar...

"Majnuntol tagiga o'tqazing meni",
Sir-u sinoatim anglagan o'sha.
Kuymoq azobidan qutqazing meni,
Shoshib keldim o'zim, ketmayin shosha...

KO'ZIM OCHIB
KO'RGAN UYIM...

Ko'zim ochib ko'rgan uyim,
Yotsiraydi onajonim.
Bugun tarqoq fikr-u o'yim,
Sizsiraydi mehribonim.

Hayron bo'lar to'rt devor ham,
Notanishdek xo'mrayadi.
"Kimsiz?" deya nigoh burar,
Keng saroydek koshona ham,
Rangim behol sarg'ayadi.

Siz bosgan shu ostona ham,
"Kimsiz?" deya nigoh burar.
Keng saroydek koshona ham,
Bir chekkada tordek turar.

Siz non yopgan o'sha tandir,
Mehringizdek qaynoq turar.
To'rt tomonin o'rab kimdir,
Ataylab bir chetga surar.

Ayvondagi ola sigir,
Tanigandek boqar, ona.
Bag'rin ochmas bitta jigar,
Bo'lgandek endi begona.

Ko'zim ochib ko'rgan uyim,
Yotsiraydi, onajonim.
Aniq, ravshan bo'ldi o'yim,
Sizsiraydi onajonim...

KO'NGIL – KA'BA

Mening menligimdan topmang bahona,
O'zinga suyuqli, o'zinga bekman.
Qancha urinmangiz, qilmangiz gina,
Ko'zlarim to'q bo'lgan, hali ham to'qdir.

Yemoq uchun yashashdan qilaman hazar,
Yashash uchun yemoqlik oliy daraja.
Kimlardir gerdayib ilmaslar nazar,
Ularda yo'l boshqa, boshqadir reja.

Mening menligimga til tekkizmangiz,
Jimgina yuraman, adovatim yo'q.
Zarra gumonim yo'q agar bilsangiz,
Nohaqlik avjida halovatim yo'q.

Mening menligim o'z zimda yashar,
O'zgalar menligin hurmat qilaman.
Alqissa, hamma ham o'ziga o'xshar,
Ko'ngil Ka'baligin yaxshi bilaman...

DARD YULIB
TOSHGA OTDIM...

Dard yulib toshga otdim,
Tog'dek g'amdan tosh qotdim,
Ne topdim, ne yo'qotdim?
Qolgani she'rda qoldi,
Haq so'zim yerda qoldi.

Qo'l siltadim bariga,
Shukur qildim boriga,
Osilmadim doriga,
Talaffuz she'rda qoldi,
Ming afsus, yerda qoldi.

Iltifotlar yuzaki,
Urmang yuzga tarsaki,
She'r yozmadim shunchaki,
Soflari dilda qoldi,
Loflari yerda qoldi.

Ne bo'lishin bilmayman,
G'am-g'ussadan o'lmayman,
To'laman, to'kilmayman,
Zo'rlar olqishda qoldi,
G'o'ralar qishda qoldi.

Eh, taslinga hushim yo'q,
Boshqasiga ishim yo'q,
Kelajakdan ko'nglim to'q,
Ziyo odobda qoldi,
She'rim kitobda qoldi.

Dardim shu tobda qoldi,
Og'riqlarim yo'q qoldi,
Rahmat senga, she'riyat,
Ko'targuvchi ruhiyat...



Zilola HAKIMOVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 20-umumiy o'rta
ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish o'qitish sifatini oshirish, ilmfan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirishda ilg'or tajribalardan foydalanish esa muayyan loyiha asosida tashkil etiladigan, aniq maqsadga yo'naltirilgan hamda ushbu maqsadning natijasini kafolatlovchi pedagogik faoliyatning mazmuni sanaladi. Har qanday pedagogik texnologiya, ilg'or tajriba ham o'zaro hamkorlik, muloqot, ularning bir-birlariga ta'sirlari eng zamonaviy shaklda bo'ladi. Shu sababli biz boshlang'ich sinf o'quvchilariga, albatta, biror yangilik yaratib, ilg'or tajribalardan foydalanib bilim berib borsak, natijasi yaxshi bo'ladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi. Bu ta'limni tashkil etishning aniq texnologiyasi, jumladan, mahorat hamda tajribani ko'rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda o'quvchilar qanchalik kreativ fikrlab, topshiriqlarni mustaqil bajara olsalar biz maqsadga erishgan bo'lamiz. Bunda, albatta, motivatsiyadan foydalanish va rag'batlar berish, ilg'or tajribalardan foydalanish innovatsion yondashuvda juda qo'l keladi. Har bir o'qituvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o'tsa, bu o'z natijasini beradi. Quyida o'z tajribamda qo'llagan innovatsion usullardan taqdim etishni joiz topdim:

“Haqiqat yoki yolg'on” usuli. Mazkur usulda o'quvchilar bilan mavzuni mustahkamlash mumkin. Bunda ular bilimlarini sinashadi.

– Cho'lda yoz olti oy davom etadi. (Haqiqat)
Cho'lda bo'g'ma ilon, kapcha ilon, cho'l qora iloni, qalqontumshuq kabi ilonlar ko'p uchraydi. (Haqiqat)
– Cho'lda havo harorati yuz darajagacha ko'tarilishi mumkin. (Yolg'on)
– Cho'lda yantoq o'simligi ildizining uzunligi ikki metrni tashkil etadi. (Yolg'on)

“Kubik” usuli. Mazkur metodda integratsion yondashuv, ya'ni fanlararo bog'liqlik ta'minlanadi. Ushbu usul quyidagicha tashkil etilishi mumkin:

Kubning olti tomonidagi oltita savolga o'quvchilar javob berishlari kerak.

- 1-savol: ismi.
- 2-savol: xulq-atvori.
- 3-savol: holati.
- 4-savol: o'zidan kattalarga munosabati.
- 5-savol: do'stlariga munosabati.
- 6-savol: Siz shunday holatda qanday yo'l tutasiz?

“Mosaic” usuli. Ushbu usulda o'quvchilar xotirasi mustahkamlanadi va diqqati jamlanadi. Metod quyidagicha tashkil etiladi:

Bunda o'quvchilar guruhlariga ajratiladi hamda juftliklarga konvert tarqatiladi. Kartochkadagi so'zlarni A4 hajmdagi o'zbek tilida berilgan so'zlar ustiga mos ravishda joylashtiriladi.

Mazkur usuldan foydalanish variantlari:
1. So'zlar o'rniga rasmlardan foydalanish mumkin.
2. Shakllarda berilgan ingliz tilidagi kasbni ifodalovchi so'zlarni mos o'ringa qo'yish talab etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, samarali o'qituvchi bo'lish oson ish emas, buning uchun pedagog doimiy izlanishda bo'lishi, ta'lim yangiliklaridan xabardor bo'lishi kerak.



YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASI JARAYONLARI BOSHLANDI

Joriy yilning 6-iyun kuni Navoiy davlat pedagogika institutining Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakultetida 2023-2024-o'quv yili boshlang'ich ta'lim bakalavr ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabarlari uchun yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonlari boshlandi. Mazkur jarayon joriy yilning 28-iyun kuniqadar davom etadi. Yakuniy davlat attestatsiyasida o'zbek, rus, qozoq, qoraqalpoq tillarida ta'lim olgan 421 nafardan ortiq bitiruvchi talabalar ishtirok etadi.

Yakuniy davlat attestatsiyasini Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani Gulchehra Shamsiddinova kirish so'zi bilan ochib berdi. Yakuniy davlat attestatsiyasining komissiya raisi – O'zbekiston Milliy universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasini professori, filologiya fanlari doktori Ra'no Sayfullayeva bitiruvchi talabalarni samimiy qutladi. Mazkur jarayonda viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi xodimlari ham komissiya a'zosi sifatida ishtirok etishmoqda.

Mazkur jarayon 7-iyun kuni ham davom etdi. Navoiy davlat pedagogika instituti prorektori G'ayrat Yodgorov bitiruvchi talabalarni tabrikladi. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, dotsent Gulchehra Shamsiddinova, viloyat maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi metodisti Shahlo Rahmonova, “Boshlang'ich ta'lim” kafedrasini mudiri, professor Manzura Ernazarova so'zga chiqib, talabalarni kelgusida yaxshi pedagog kadrlar bo'lib yetishishiga tilak bildirdi. “Boshlang'ich ta'lim – ta'limning poydevori” ekanligini yana bir bor ta'kidlashdi.

Aktam JO'RAYEV





KITOBXONLIK – DAVR TALABI



Surayyo NURMATOVA,
Qashqadaryo viloyati Koson
tumanidagi 68-umumiy o'rta ta'lim
maktabi kutubxonachisi

“Ayni paytda axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi”.

(Shavkat Mirziyoyev)

Kitob – ma'naviyat beshigi. Ma'naviyatni anglash kitob mutolaa qilishdan boshlanadi. Kitob o'qishga yoshlikdan mehr qo'yish bu – kelajakka poydevor o'rnatish demakdir. Inson aql-zakovatini shakllantiruvchi, ma'naviy ozuqani boyituvchi vosita kitobdir. Agar kitobxonlik zaruratga aylanmasa, kitobxonlikka ko'nikma hosil qilinmasa, o'sib kelayotgan yosh avlodning kitobga bo'lgan qiziqishini oshirish juda qiyin vaziyatga olib keladi. Bu muammodan chiqishning yagona yo'li shuki, kitobxonlikni oiladan boshlash kerak. Avvalambor, ota-ona bolada kitob o'qish ko'nikmasini hosil qilishi lozim.

Bunda oddiydan murakkablikka, ya'ni bolaning kamolot darajasiga mos keluvchi kitoblar tanlanishi lozim. Bolaga ota-ona turtki berib, kitob mutolaa uning hayotiga qiziqish bilan kirib borishiga yo'l ochishi kerak. Bola qaysi mavzuga qiziqsa, shu mavzudagi kitoblarni taqdim etish orqali kitobga va kitob o'qishga ko'nikma hosil qilishimiz mumkin. Yosh avlodni hozirgi kunda oddiy narsalar bilan hayron qoldirishimiz juda qiyin masala. Axborot texnologiyalari asrida zamonaviy texnika va texnologiyalar farzandlarimizni kitob o'qishiga to'sqinlik qilishiga yo'l qo'ymasligimiz lozim. Ularning ong-u shuurini egallab olayotgan turli mobil o'yinlar ta'siridan chiqarish uchun ham bugungi kunning dolzarb mavzusi bo'lgan kitob va unga bo'lgan e'tiborni kuchaytirish orqali bu muammodan chiqish mumkin. Hamma bola ham kitob o'qishga qiziqavermaydi. Bunday o'quvchilarni kitobga qiziqtirish uchun maktablarda teatr guruhlarini tashkil qilib, sahna asarlarini ijro etishga jalb qilish yoki sinf jamoasi bilan birga biror asarni tahlil qilish mumkin. Bu so'zlar kitobning qaydarajada bola ongi, tafakkurini o'stirib, rivojlantirishini va yuksaklarga eltuvchi kuch ekanligini anglatishi shubhasiz.

Bolalar – kelajak avlod quruvchilaridir. Shu boisdan uyda ota-ona, maktabda o'qituvchi tomonidan kitob o'qishga e'tibor qaratish, muhabbat uyg'otish jamiyat kelajagini yuksaltiradi.

Men maktab kutubxonachisiman. Mening vazifam maktabda faqat darslik tarqatish yoki yil yakunida yig'ib olish bilan chegaralanib qolmasligi kerak. Maktabdagi barcha o'quvchilar bilan ishlab, ularning qiziqishlarini, qaysi kasb egasi bo'lishi haqida suhbatlar o'tkazib, shu sohaga oid adabiyotlar bilan ta'minlashim shart. Foydalanuvchilarda milliy g'oyani shakllantirishda, ularda milliy g'oyalarni ishonch va e'tiqodga aylantirish orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasiga muvofiq ulkan o'zgarishlarga, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi vazifalarini amalga oshirishda faol ishtirok etishlarini ta'minlashga yordam berishimiz mumkin.

XXI asrda yosh avlod vakillarini kitobga bo'lgan muhabbat orqali aqliy imkoniyatlarini rivojlantirish mumkin. Davlatning har bir bo'g'inida yoshlar faoliyati bilim va aql bilan o'lchanadi.

Xulosa qilib aytganda, bolalarni yoshligidan kitobga, kitob o'qishga muhabbatli qilib tarbiyalash kutilgan samarasini beradi. Zero, ma'naviyat – yurt kelajagining muhim omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.J.Yo'ldashev, O'.Nosirov. Kutubxona-axborot xizmati nazariyasi va amaliyoti. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2020.

2. Internet ma'lumotlari.



MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



G'iyos TO'YCHIYEV,
Qashqadaryo viloyati Kitob
tumanidagi 84-umumiy o'rta ta'lim
maktabining matematika fani
o'qituvchisi

Bugungi kunda ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv o'quvchilarda kasbiy, shaxsiy va kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishni hamda matematik ta'limning amaliy, tatbiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi. Kompyuter texnologiyalarining qo'llanish sohasining kengayishi, axborot texnologiyalarining yaratilishi jamiyat hayotining barcha sohalarida, ya'ni ishlab chiqarishda, fanda, ta'limda, tibbiyotda va boshqa jabhalardagi rivojlanish tezkor axborot almashinuviga olib kelmoqda. Matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish bugungi kunning davr talabi ekanligini alohida ta'kidlash joiz. Hozirgi kunda fanni o'qitishda zamonaviy yondashuv lozim. Vaholanki, bugungi davrda interfaol darslar va treninglar o'tkazishga yordam beradigan ko'plab ilovalar, dasturlar va metodik qo'llanmalar hamda resurslar mavjud. Texnologik taraqqiyot matematika fanini o'qitishda katta o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Interfaol doskalar, o'quv dasturlari, grafik kalkulyatorlar va onlayn platformalar matematik tushunchalarni dinamik va vizual tasvirlash imkoniyatini beradi. O'qituvchilar zamonaviy pedagogik texnologiyalar va vositalardan foydalanib interfaol darslarda mavhum tushunchalarni o'quvchilar uchun tushunarliroq qiladigan virtual manipulyatorlarni yoki matematik modellarni yaratish uchun foydalanishlari mumkin. Matematika fanini o'qitishda qiziqarli va samarali o'quv muhitini yaratishda pedagogik uslub va texnologiyalar muhim o'rin tutadi. Faol ta'lim yondashuvlari, tabaqalashirilgan ta'lim, muammoli o'rganish, o'zgaruvchan darslar, texnologiya integratsiyasi o'quvchilarning bilimni oshi-

rishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarni qo'llagan holda o'qituvchilar o'quvchilarning hayotida matematika-ning go'zalligi va foydaliligini chuqurroq anglashda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishlari mumkin. Ta'lim samaradorligini oshirishda, eng avvalo, o'qituvchining pedagogik mahorati hamda uning ta'lim jarayoniga nisbatan yondashuvi muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda o'qituvchilarning pedagogik mahorati darajasi har bir mashg'ulot hamda o'rganilayotgan mavzuning o'quvchilarga yetkazib berish jarayoniga nisbatan ijodiy, texnologik yondashuvini talab etmoqda. Texnologik yondashuv negizida namoyon bo'luvchi holatlarning asosiy – bu dars jarayonining muayyan loyiha asosida tashkil etilishi sanaladi.

Matematika fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish samarasi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'limning ilg'or texnologiyalaridan samarali foydalanish;
- o'quvchilarning innovatsion yondashuv qobiliyatlari tizimini takomillashtirish;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida fanga qiziqish, mavzuni oson o'zlashtirish ko'nikmasi shakllanadi.

Xullas, matematika fanini o'qitish jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarga turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishida ahamiyatlidir. Zero, yosh avlodni har bir masalaga ijodiy yondashishga va ma'suliyatni his qilishga o'rgatish, mustaqil, erkin fikrli insonlar qilib tarbiyalash ta'lim jarayonidagi ustuvor masala sanaladi.



Zebiniso JABBOROVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 20-umumiy
o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi



MATEMATIKA DARSLARIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimida ilg'or pedagogik texnologiyalarning afzalligi zamon sinovidan o'tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o'z isbotini topmoqda. Xususan, umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchining bilim darajasi rivojlanishida zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishlari kerak.

Hozirda matematika fanida mavjud bo'lgan ilg'or pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlarga ajratish mumkin. Bu belgilar haqida gapirishdan oldin shuni eslatib o'tishimiz kerakki, pedagogik texnologiya doimiy kompleks xarakterga ega bo'lib, u faqat bittagina omildan, metoddan, tamoyildan foydalanmaydi. Lekin har bir pedagogik texnologiyada asosiy e'tibor ta'lim jarayonining u yoki bu tomoniga qaratilishi natijasida ularni shu belgilari bo'yicha turlarga ajratiladi.

Matematika darslarida qo'llaniladigan ilg'or metodlar bo'yicha pedagogik texnologiyalar quyidagi turlarga ajratiladi:

- tushuntirish, ko'rgazmali metodlar;
- rivojlantiruvchi ta'lim;
- muammoli hamda izlanishli usullar;
- ijodiy metodlar;
- o'z-o'zini rivojlantiruvchi ta'lim metodi.

“Bir bo'lak” metodi. Mazkur usul aniq obyektga yo'naltirilgan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshiriladi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta

o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotlar va o'quvchilar tomonidan bildirilayotgan g'oyalarning majmui tarzida namoyon bo'ladi. Bu esa mantiqiy topshiriqlar, misol va masalalarni umumlashtirish va ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

“Mohir matematik” metodi. Mavjud bilimlarni puxta o'zlashtirishda o'quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatiga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Mohir matematik” metodi o'quvchilarda tezkor fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezligini aniqlashga yordam beradi. Metod o'z bilimlarini sinab ko'rish istagida bo'lgan o'quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to'g'ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko'ra har bir savolga qaytarilgan to'g'ri javob uchun ballar belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda pedagogik texnologiya haqidagi aniq tushuncha va tasavvurlar birmuncha kamligi tufayli, uni xususiy metodikalar bilan deyarli tenglashtirish hollari uchraydi. Matematika darslarida ilg'or pedagogik texnologiya o'quvchini mustaqil o'qishga, bilim olishga, fikrlashga o'rgatishni kafolatlaydigan jarayondir. Pedagogika fani ma'lum o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Metodikaning pedagogik texnologiyadan farqini tushunish va amalda har ikkisidan unumli foydalana olish muhim ahamiyatga ega.



JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI



Zilola G'AYIROVA,
Qashqadaryo viloyati Kitob
tumani oila va xotin-qizlar
bo'limi mutaxassisi



Mamlakatimizda ayollarning jamiyat hayotidagi o'rni hamisha muhim mezon bo'lib kelgan. Chunki ayollarning reproduktiv imkoniyatlari bilan bir qatorda yangi avlodning shakllanishi va rivojlanishida ham ularning o'rni beqiyos. Bugungi kunda jamiyatda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy tamoyillari mavjud bo'lib, bular qonuniylik, demokratizm, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi, jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasliligi, ochiqlik va shaffoflikdir.

Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu

borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar” deb belgilanganligi mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi rolini oshirish borasidagi tizimli islohotlar uchun bosh huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, davlat boshqaruvi faoliyatida xotin-qizlarimizning deputat, vazir, senator, vazir o'rinbosari, akademik, tadbirkor, direktor lavozimlarida faoliyat olib borayotganlari gender tenglikning yaqqol misolidir.

2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasi orqali barcha uchun teng huquq va sifatli ta'limni ta'minlash, qizlarning oliy ma'lumotga ega bo'lishi, zo'ravonlikka yo'l qo'ymaslik kabi masalalar qamrab olingan. 2023-o'quv yilidan boshlab magistraturada o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning shartnoma pullarini to'liq budjetdan qoplab berish uchun har yili 200 milliard so'm mablag' va doktoranturada ilmiy tadqiqotlar olib borishlari uchun har yili kamida uch yuztadan maqsadli kvota ajratilganligi so'zimizning isbotidir. Bundan tashqari, ta'lim olayotgan, mehnatda band bo'lgan xotin-qizlarimizning intilishlari va qobiliyatlarini inobatga olingan holda ularning jamiyatda faoliyatini uzviy va uyg'un tarzda davom ettirish, imkoniyatlarini kengaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Xotin-qizlarimizning huquq va manfaatlarini himoya qilish va jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadga muvofiq strategiyadir. Zero, jamiyatda ayol qadr-qimmatini, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo'lmoqda. Davlat va jamiyat munosabatlarida ayollarning o'rni va rolini yanada oshirish, ularning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy sohalarida manfaatlarini himoya qilish masalasi Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans avlodini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayol gul kabidir. U qancha parvarish qilinsa, o'zidan fayz-barokat taratadi. Shunday ekan, ayollarni qadrlamoq kerak. Ularni ilmiy va bilimli bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish, fikrlarini yanada teranlashtirish, olgan bilimlarini to'g'ri yo'naltirish orqali jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini oshirish mumkin. Ana shunda xotin-qizlarimiz yurt taraqqiyotiga qizg'in faoliyati, ilmiy izlanishlari bilan katta hissa qo'shadilar.



GEOGRAFIYA DARSLARIDA KREATIV YONDASHUV SAMARASI

Xadicha CHORIYEVA,
Surxondaryo viloyati Termiz
tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim
maktabining geografiya fani
o'qituvchisi



Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim berish va shu orqali jismoniy baquvvat, ma'naviy jihatdan yetuk, bilimli avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, dunyoqarashini kengaytirish, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash kabi ko'plab vazifalarga qaratilgan. Ushbu vazifalarni bajarishda ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, noan'anaviy usuldagi zamonaviy darslarni tashkil etish, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda dars jarayonlariga zamonaviy, yangicha yondashuv talab etiladi. Hozirda har bir fan o'qituvchisi o'z fani bo'yicha dars samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur bilishi va ulardan dars jarayonida foydalana olishi zarur. Jumladan, geografiya darslarida ham kreativ yondashuv samarali sanaladi. Chunki bu fanda o'qituvchilar o'zining mashg'ulotlari rejasini oldindan tayyorlaydi, o'zining shaxsiy qarashlarini asosiy masalaga qaratadi. Kreativ fikrlash esa geografiya darsi davomida o'quvchining u yoki bu darajada kreativ fikrlash qobiliyatiga egaligini isbotlab beradi. Darhaqiqat, ta'lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Geografiya darslarida ham kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, fizika, kimyo fanlari kabi turli sohalarida insoniyat tamaddunini rivojlantirgan. Demak, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan muhimroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda

jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqdalar. Quyida geografiya darslarida kreativ yondashuv metodlaridan namunalari keltirmoqchiman:

“Evristik ta'lim” metodi. Mazkur metodning keng tarqalishi bizga XX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Ayniqsa, o'quv jarayoniga kibernetikaning kirib kelishi, ilmiy izlanuvchanlik, ijodkorlik, yangiliklar yaratishning oshishi munosabati bilan ta'lim jarayonida keng qo'llashni talab etadi. Geografiya darslarida kreativ yondashuvda ham mazkur metod muhim ahamiyat kasb etadi.

“5X5 viktorina” usuli. Bu metoddan geografiya darslarini mustahkamlash qismida foydalanish mumkin. Yangi mavzuni mustahkamlashda “5X5 viktorina o'yini” dan foydalaniladi. 5X5 viktorina o'yini beshta topshiriqdan iborat bo'lib, har biri besh ballik reyting tizimida baholanib boriladi. Masalan, “Daryolar. Ko'l va muzliklar” mavzusiga oid topshiriqlarni o'quvchilar yangi mavzuni mustahkamlash uchun bajarishlari mumkin. Bunda yangi mavzuni mustahkamlash o'yin tarzida olib borilgani uchun o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi yanada ortadi. Ularning topqirlik, ijodkorlik, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

“Zanjir o'yini” metodi. O'quvchilarni to'rtta guruhga bo'lib olib, har bir guruhdan bir o'quvchi doska oldiga chiqadi. Birinchi o'quvchi fanga oid atamani aytadi, keyingi o'quvchi oldingi o'quvchi aytganini va o'zini qo'shib aytadi. Undan keyingisi oldingi ikki o'quvchi aytgan atamalarga yana o'zi yangisini qo'shib aytadi. O'yin shu tariqa davom etadi. Adashgan o'quvchi o'yindan chiqib ketadi. Eng oxirida o'yindan chiqib ketmay qolgan o'quvchi rag'batlantiriladi.



TABIY FANLARNING O'QITILISHIDA MANTIQUIY VA KREATIV FIKRLASHNING AHAMIYATI



Jamshid YULDASHEV,
Navoiy viloyati Uchquduq tumanidagi 20-umumiy
o'rta ta'lim maktabining fizika fani o'qituvchisi



Ma'lumki, ta'limning vazifasi o'quvchilarni kelajakda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zaruriy kompetensiyalar bilan ta'minlashdan iborat. Shu ma'noda kreativ fikrlashni o'quvchi-yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalanib, hali yaratilmagan kashfiyotlarni yaratishi, mashina bajara olmaydigan ishlarni bajarish va global muammolarni yechishda ham ahamiyatlidir. Xususan, xalqaro tadqiqotlar o'quvchilarda kreativ fikrlashni oshirish orqali ularning tajribalar, hodisalar va shu qatorda vaziyatlarni yangicha uslubda yondashishini ta'minlaydi, bilim olishiga yordam beradi. O'quvchining fikrlashi, qiziquvchanligini tezlashtirish va rag'batni oshirish uchun uning ijodkorlik imkoniyatlari, shuningdek, yangicha qirralarini ochib beradigan yangi uslubdagi texnologiya va o'rganish shakllari shakllantirilishi kerak. Jumladan, umumta'lim maktablarida fizika darslaridagi mashg'ulotlarni o'qitishda ham kreativ fikrlash va mantiqiy yondashish o'quvchilar ong-u tafakkuri rivojlanishida samarali hisoblanadi. Bu kabi rivojlanish uslublari ta'lim olishi sust o'quvchilarni o'z fikrini ifodalash hamda qiziqishlarini ortishiga yordam beradi. Ba'zi o'qituvchilar nazarida o'quvchining kreativ fikrlashini oshirish o'quv dasturidan tashqari boshqa faoliyat turiga jalb qilishdek ko'rinadi. Aslini olganda esa o'quvchilarni fizika darslari davomida kreativ fikrlay olish qobiliyatlari ham hisobga olinadi. Kreativ fikrlashning afzal tomonlaridan yana biri o'quvchiga fizik kattalik, hodisa va formulalarni yodlatish usuli bilan emas, izlanish va kashfiyotchilik qobiliyat-

larini qo'llab-quvvatlash orqali asosiy bilimni egallashga erishiladi. Shuningdek, barcha o'quv-laboratoriya jihozlari mavjud bo'lgan umumta'lim maktablarida fizika darslarini olib borishda o'quvchilarning tushunchalar ko'lamini keng, mustaqil fikrlashga unday oladigan ko'nikmalarni shakllanishida muhim turki bo'ladigan uslubni – muammoli usulni qo'llash ko'proq ijobiy natija bermoqda. Masalan, “Suyuqlik xossalari” mavzusini o'rganishda suyuqlikning turli diametrlil kapillyar naychalardan ko'tarilishini, turli shakldagi shisha idishlarda egallagan vaziyatlarini ko'rsatish va tahlil qilishlariga yo'naltirish lozim. Namoyish tajribalarining muammoli ko'rsatish o'quvchilarni ilmiy tadqiqotga jalb qilish hamda ma'lum mavzu yuzasidan o'zining mustaqil, kreativ fikr-mulohazasini bayon qilish bilan birga tengdoshlari davrasida o'zining tushunchasini bayon etish va fikrini himoya qilish imkoniyatini yaratadi. Bundan tashqari, tabiiy fanlar negizida bo'lgan fizika darslarini mantiqiy va kreativ texnologiyalar asosida tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki bu texnologiyalar mazmuni fizikadan ta'lim maqsadlarini nazarda tutgan texnologik ishlanmalar, o'quv maqsadlarini nazarda tutuvchi o'ziga xos tasniflagichlar, internet tizimi va elektron darsliklar, test topshiriqlari to'la o'zlashtirish texnologiyalari bilan bog'liq jarayonlarni nazarda tutadi. Buning uchun biz kreativ va mantiqiy, shuningdek, unga hamohang pedagogik texnologiyalar elementlaridan foydalanib, ular yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga harakat qilishimiz lozim.



TARIX DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLASH VA O'Z-O'ZINI BAHOLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH



Nodira MAHMUDOVA,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 20-umumiy o'rta ta'lim
maktabining tarix fani o'qituvchisi



Tarix ta'limining bosh vazifasi yosh avlod ongida siyosiy, nazariy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, voqea va hodisalarga tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashadigan, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat. Shuningdek, tarix darslarida mustaqil fikrlash, ishlash va o'z-o'zini baholash rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

Birinchidan, mustaqil fikrlash va ishlash inson biror obyektning mohiyatini anglab yetgandagina yuzaga keladi. O'quvchi tarixiy voqealarni turli vositalar yordamida o'rganib, uning mohiyatini his etib, unga nisbatan o'z fikri va munosabatini bildirsa mustaqil fikrlay boshlaydi. Mazkur jamoaviy intellektual jarayonlarda ishtirokchi, guruh va qatnashuvchilarning bildirayotgan to'g'ri, haqiqatga yaqinroq yoki xato fikrlari orasidan o'zi uchun zarur bo'lgan ratsional xulosani keltirib chiqaradi.

Ikkinchidan, mustaqil fikrlash va ishlash uchun mav-

jud ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish zarur. Tarix ta'limida trening uslubining qo'llanilishi taraqqiyotning turli bosqichlaridagi hayot tarzini solishtirish, tahlil qilish, mazkur voqelikka sabab bo'lgan tarixiy jarayonlar, voqelik rivoji natijalaridan kelib chiqqan oqibatlarini davriylik nuqtayi nazardan o'rganish samarali kechadi va o'quv fanlariga integratsion yondashuvni keltirib chiqaradi.

Tarix darslarida mustaqil ish turidan qat'iy nazar, mustaqil ishni baholash mezonlari quyidagilardan iborat:

- tahlil qilish qobiliyati (huquqiy muammoni hayotiy vaziyatning huquqiy shartlaridan ajratish qobiliyati);
- tarixiy manbalarni o'rganishda mustaqillik, ya'ni nafaqat darsdagi, balki shaxsan o'zi topgan materiallarni umumlashtirish qobiliyati;
- tarixning boshqa masalalari bilan bog'liqligini ko'rsata olish;
- savollarga javob berish uchun bilimlarini qo'llash qobiliyati;
- ijobiy shaxsiy munosabat, fanga qiziqish, takliflar kiritish.

Bundan tashqari, tarix darslarida innovatsion usullarni qo'llash ham mustaqil ishlash va o'z-o'zini baholash uchun ahamiyatlidir.

“Davra suhbat” usuli. Mazkur metodni tashkil qilish ham mustaqil ish sifatida berilishi mumkin. Bunda ishtirokchilarning har biri so'zlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Muammo yoki ko'rib chiqilayotgan masalaga oqilona yondashuvlar, o'z fikrini erkin ifoda etish va isbotlash yuqori baholanishi lozim.

“Qo'shimcha izlanish” usuli. Bunda mustaqil ravishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi. O'quvchilarga dars jarayoni bilan bog'liq videolavhalar, filmlardan parchalar namoyish etilishi aynan ko'rilgan lavhani uyda to'liq ko'rish, shuningdek, internet tarmog'idan to'g'ri foydalanishni ham shakllantiradi. O'quvchilarda o'yin texnologiyalari haqida tasavvurni, jarayonga bo'lgan qiziqishni, kuchli xotirani, jamoa bo'lib shakllanishni, tafakkur qilishni, taqqoslashni, diqqatni jalb qilishni, tajriba orttirishni, mustaqil fikrlashni, o'yin orqali o'ziga xos bo'lgan jamoaviy tafakkurni hosil qiladi. Shuningdek, qoidalarga va muayyan shartlarga amal qilishni, vaqt me'yorlarini inobatga olib tezkor xulosalashni, tezkor bilim orqali o'zlarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishni o'rganadilar. Bunda o'quvchilarning bir-birlariga o'zaro ta'siri shakllanadi.

Demak, tarix darslarida mustaqil ishlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning hodisalar mohiyati xususida o'z qarashlari bo'lishini taqozo etadi. Uning bilish va anglash imkoniyatlari chegarasini kengaytiradi.

O'QUVCHILARNING KREATIV FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA PISA DASTURINING O'RNI



Rustam MUZAYEV,
Navoiy viloyati Uchquduq
tumanidagi 20-umumiy o'rta ta'lim
maktabining matematika fani
o'qituvchisi



Bugungi zamonaviy ta'lim, ilg'or pedagogik texnologiyalar yangi mazmundagi, xalqaro tajribaga asoslangan kreativ fikrlash g'oyalarining mahsulidir. Yangi fikr va g'oyalar o'z navbatida mavjud muammolar, yo'l qo'yilgan xatolar va kamchiliklarning chuqur tahlil qilinishi natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy muhit ahvoli tahlil qilingan holda ta'limni insonparvarlashtirish, yuzaga kelgan mavjud muammolarni oqilona hal etib borish, yangicha ishlash yangi pedagogik tafakkurning asosi bo'lib qoladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim samarasini kafolatlaydigan, ta'lim tizimining rivojlanib borishi, jamiyat taraqqiyoti, shaxs kamolotiga hissa qo'shadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning kirib kelishiga zamin yaratadi. Ayni damda xalqaro PISA baholash dasturi bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlardagi kreativ fikrlash yo'nalishining baholashi

soha xodimlariga dalillarga asoslangan to'xtamga kelishda ko'maklashuvchi aniq, ishonchli va amalga oshirish mumkin bo'lgan baholash vositasini taqdim etib kelmoqda. Shuningdek, jamiyatimizda ham ushbu muhim ko'nikmani ta'lim orqali rivojlantirishning ahamiyati va usullari borasidagi bahslarga sabab bo'ldi. Chunki PISA xalqaro baholash dasturidagi ushbu faoliyat iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ijodiy fikrlashni rivojlantirish borasidagi yangi pedagogikani qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshqa bir loyihasi bilan bog'liqligi aniqlandi. Keling, shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi qachon va qay maqsadda PISA tadqiqotlar dasturida ishtirok etganligi xususida to'xtalib o'tsak. Mustaqil diyorumiz 2022-yilda PISA xalqaro baholash dasturi o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonligi bilan bir qatorda kreativ fikrlashini ham baholadi. O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi o'ttizta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish kabi asosiy masalalar ko'rib chiqilgan bo'lib, bundan ko'rinadiki, PISA xalqaro baholash tizimiga tayyorgarlik ko'rish kabi masalalar eng oldingi o'rinlarga qo'yilgan.

O'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda PISA dasturining o'rni sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- samarali natija kafolatlanganligi, natijaviyligi;
- o'quvchilarni mustaqil ravishda bilim olishga yo'naltirish;
- o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi;
- o'rtacha o'zlashtirishga qobiliyatli o'quvchining imkoniyatlarini inobatga olish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish;
- o'quvchilarga milliy g'oya va umuminsoniy g'oyalarni singdirish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, o'quv laboratoriya jihozlaridan samarali foydalanish;
- o'quvchi shaxsini rivojlantirish;
- o'quvchining aqliy faoliyatini rivojlantirish;
- dars sifatini ta'minlovchi nazorat turlaridan foydalanish;
- o'tgan va navbatdagi mavzularni mantiqiy ketma-ketlik va o'zaro bog'liq holda o'qitishni inobatga olish.

Kreativ fikrlashni baholash xalqaro dasturini rivojlantirish ta'lim siyosati va pedagogikasida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'lishi, shubhasiz.



MILLIY RAQS XALQNING NAFIS QADRIYATLARI IFODASIDIR



Madina KARAMATILLAYEVA,
Qashqadaryo viloyati Shahrizabz
tumanidagi 35-umumiy o'rta ta'lim
maktabining musiqa madaniyati fani
o'qituvchisi



Madaniyat va san'at sohasining rivoji o'z-o'zidan jamiyat rivojiga, jamiyat rivoji esa mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi. O'sib kelayotgan yosh avlod ong-u shuuriga ezgulik va nafosat, estetik, ma'naviy kamolotga muhabbat tuyg'ularini singdirishda o'zbek milliy raqs san'atining o'rni beqiyos. Milliy raqslarda xalqimizning eng munavvar qadriyatlari, insoniy fazilatlarini, milliy an'analarini ifodalaydi.

Inson ma'naviyatini yuksaltiradigan, uning ruhiy olamini poklaydigan, ezgu amallarga yo'naltiradigan eng muhim omil bu, albatta, san'at hisoblanadi. Har bir yaratilgan va yaratiladigan san'at asarlari insonni ulug'lovchi, uning orzu-umidlari, o'y-kechinmalarini badiiy tarzda ifodalaydi. Eng qadimiy ibtidoiy davrdan to bugunga qadar jamiyat hayoti bilan hamohang yashab kelayotgan raqs san'ati tuyg'ularni harakat va holatlarda, imo-ishoralarda (mimika) shunday nafis ifodalaydiki, hayratlanmay iloj yo'q. Oddiy raqs harakatlariga jon baxsh etish, u orqali badiiy obraz yaratish bilan chinakam raqs asari yaratiladi. Shundan rang-barang nafosat namoyon bo'lishi mumkin. Hamon o'zbek raqs san'atida bir-biridan gavda holatlari, qo'l va oyoq harakatlari, tarkibi, kompozitsion tuzilishi, liboslari bilan farq qiluvchi Xorazm, Qo'qon, Buxoro, Farg'ona uslub-

lari aniq ko'zga tashlanib turadi. Xorazm va Buxoroda hozir ham qayroq bilan usul berish, qo'l va oyoqlarga qo'ng'iroqchalar (zang) bog'lab chiqish holati uchraydi. Xorazm raqqosalari esa jig'ali qalpoqlar kiyib, ko'krakka taqiladigan bargaklar taqib raqs ijro etishadi. Buxoro raqqosalarining ko'pincha zardo'zi keng ko'ylaklari va baland qasavali bosh kiyimlari hamon qadrlil hisoblanadi. Farg'ona raqsida doira usullari, puxta ishlangan qo'l harakatlari mujassam.

Qo'qon va Andijonda har bir raqs yakunida qo'l va yelkaning keskin harakati jilvalari muhim o'rin egallab keladi. Mana shunday boy tarixga, betakror ijro yo'nalishiga ega bo'lgan milliy raqs san'atimiz xalqimizning bebaho boyligi hisoblanadi. U inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir etadi, his-tuyg'ularini tarbiyalaydi. Shu san'at bilan mashg'ul bo'lgan yosh avlod ham jismonan, ham ma'nau yetuk shaxs bo'lib voyaga yetishishi shubhasiz.

Har qanday davr va jamiyatda uning ijtimoiy hayotini san'at o'zida aks ettiradi. Har bir san'at turi voqelikni haqqoniy, yorqin va o'zgacha ta'sirchan holda ifoda etadi. Boshqa san'at turlari kabi raqs san'ati ham insonning diliga huzur bag'ishlaydi va uni go'zal, mo'jizaviy olamga olib kiradi.



San'at turlari ichida raqs san'ati o'zining murakkabligi va shu bilan birga go'zalligi, nozikligi va jozibasi bilan o'ziga maftun etadi. Raqs san'ati o'zida hayotni badiiy ifoda etadi, inson his-tuyg'ulari, fikrlarini vositasisiz, faqat harakatlar hamda yuz ifodasi bilan ifodalaydi.

Insonning his-tuyg'ulari va o'zaro munosabatini tana harakatlari orqali ifoda etish ijro jarayonida shakllanib, rivojlanib kelgan raqs san'ati har bir millatning o'ziga xos jihatlari namoyon etadi.

O'zbek xalq sahnaviy raqsining ijro san'atini shakllanib kelayotgan ommaviy raqs mamlakatimiz va jahon tomoshabinlarining bir qancha avlodini maftun etib, o'zbek raqs san'ati zaxirasidan joy olgan. Bular "Tanovar", "Munojot", "Lazgi", "Bahor", "Dilxiroj", "Namanganning olmasi", "Andijon polkasi"dir. Ular mumtoz raqslarga aylangan. Shu asosda raqqosa va raqqosalarning bir qancha raqs uslublari, mahorat asoslari, harakatlari avloddan avlodga o'tib, ijro qilinib kelinmoqda.

Farg'ona raqsleri yengil aylanma qo'l harakatlari bilan ajralib turadi. Tana harakatlarining tabiiyligi, tananing erkin turishi, tana yuqori qismining yengil harakatlanishi, oyoq uchlarida yengil yurishlari Farg'ona vodiysi xalqi tabiatiga mos keladi.

Xorazmliklarning tarixiy xususiyatlari raqsni oshkora mardlik bilan boyitishga yordam bergan. Xorazmdagi eng ommaviy raqs "Lazgi"dir. Bu raqs jo'shqinlik, mag'rur xalqning harakatlarini aniq ifodalab beradi. Xalq "Lazgi"si quvonch raqs bo'lib, ular "Afsonaviy lazgi", "Qadimiy lazgi", "Orombaxsh lazgi" deb nomlangan. Xorazm raqs dunyoda mashhur bo'lgan "Lazgi" raqs hisoblanadi.

Buxoro raqslerida tana nozik raqs harakatlarining murakkab tuzilishi shundan iboratki, bu raqs xalq o'yinlaridan katta ijodkorlar davrasida rivojlanib kelgan. Ularda jonli tabiat va inson tuy-

g'ulari aniq ifoda etilgan. Raqs ritmik jihatdan tez, shiddatli va mag'rur holda ijro etiladi. Qo'qon raqsleri ayollar va erkaklar raqsleri ancha jo'shqin, har bir raqs yakuni qo'l va yelka harakatlari bilan farqlanadi.

Andijon raqsleri ham ochiq harakatga ega bo'lib, ayollar raqs ham Qo'qon ayollar raqsiga o'xshashdir. Andijon raqsida ko'pincha erkaklar, yigitlar ijrosi ko'proq namoyon bo'ladi. "Andijon polkasi" deb nom olgan andijoncha yigitlar o'yini butun xalq orasida keng tarqalgan.

"Andijon polkasi" – chapani, jo'shqin, kuchli, ifodali turmushdan zavq oluvchi ishchilar raqsidir.

Farg'ona raqs o'ziga xos uslubda "Tanovar" ko'p sonli ashula aytayotgan ayol qo'shig'i jo'rligida ijro etiladi. Farg'ona raqs "Tanovar" qo'shiq-raqs juda noyob janr hisoblanadi. Har bir raqqosa ayol o'zining qalbi to'ridagi sirlarini raqsda ifodalaydi.

O'zbek raqs merosini oldingi avlodlardan bir necha o'nlab yillar va asrlar mobaynida ko'z qorachig'idek saqlab kelgan ko'pgina ijrochilarning nomlari ma'lum. Raqs san'ati asoschilari – Ahmadjon Umrzoqov, Usta Olim Komilov, Qimmatxon Sultonova, Mukarrama Turg'unbo'yeva, Tamaraxonim kabi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab o'tgan o'nlab taniqli raqs ustalarning nomlari mashhur bo'lgan.

Bugungi kunda raqs san'ati taraqqiyotini milliy qadriyatlar zahirida shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbek raqs san'atining tarixiy an'alarini va usullarini tiklash, avaylab-asrash hamda boyitish kerak. Yosh avlod ongiga bu bebaho ma'naviy boyliklarga chuqur hurmat va havas tuyg'ularini singdirish, milliy ma'naviyatimiz, qadriyatlarimizga ehtirom hislarini uyg'otish davr talabidir.



KUTUBXONACHI KELAJAK KASBIMI YOKI...?



O'tkirbek NARBAYEV,
Jizzax viloyati Do'stlik tuman
axborot-kutubxona markazi
mutaxassisi



Kitobni kim tavsiya qiladi? Albatta, kutubxonachi.

Oddiy ishchi kutubxonachi tavsiya qilgan kitoblardan o'qiy boshladi. Bir necha vaqtdan so'ng yaxshi bilim, ko'nikmaga ega bo'ldi. So'ng dengizda yana o'z maqsadlari sari odimlay boshladi. Bu safar u faqat harakat qilmadi, ya'ni bitta eshkakni eshmadi. Balki, baravariga ikkala eshkakni esha boshladi. Kitoblardan olingan bilim va harakat bir vaqtning o'zida qo'llana boshlandi. Nihoyat, oddiy ishchi orzu qilgan o'qituvchi darajasiga yetishdi. Bunga asosiy sababchi kim bo'ldi deb o'ylaysiz? Menimcha, albatta, kutubxonachi va u tavsiya qilgan kitoblar.

O'qituvchi darajasiga yetishgan oddiy ishchi endi rahbar bo'lishni oldiga maqsad qilib qo'ydi. O'sishda davom etish kerakligini o'yladi va kutubxonachiga yana ehtiyoji sezildi. Kutubxonachi o'qituvchiga aylangan oddiy ishchiga yana yangi adabiyotlar tavsiya qila boshladi. O'qituvchi esa kutubxonachi tavsiya qilgan kitoblarni tinim bilmay o'qiy boshladi. Dastlab o'qituvchiga aylangan oddiy ishchi ma'lum vaqtdan so'ng kitoblardan olgan bilimlari orqali orzu qilgan rahbarlik darajasiga yetishdi.

Barchamizga ma'lumki, hozir texnika, texnologiya rivojlangan asrda yashayapmiz. Ko'pchilik deyarli kitoblar o'qimay qo'ydi. Agar shu ketishda davom etsak, kitob o'qimay qo'ysak, qanday ayanchli holat yuz beradi? Tasavvur qiling! Barcha jamiyat a'zolarida "Kutubxonachiga ehtiyojimiz yo'q, kitobsiz ham yuksalishda davom etamiz" degan tushuncha, nazariyalar paydo bo'ldi va umuman kitob o'qimay qo'ydi. Bu vaqtda holat qay ko'rinishda bo'ladi? Kutubxonachi yo'q. Endi kitoblarga hech kim qaramay qo'ydi. Kitoblar har xil tashqi va ichki omillardan ham himoya qilinmayapti. Buning natijasida kitoblar o'z-o'zidan eskirib, yo'qola boshlaydi. Daraxtning ildizi chiriy boshlaydi. Shu bilan birga jamiyat a'zolari ham ma'naviy qashshoqlikka uchrab, bora-bora tubanlashib boradi va o'z-o'zidan ular ham jamiyatda o'z o'rnini yo'qota boshlaydi. Daraxtning ildizi quriganidan so'ng birin-ketin uning yaproqlari ham quriy boshlaydi. Bir qancha vaqtlardan so'ng kitobsiz (qurigan ildizi bilan) qolgan davlat (ya'ni, daraxt) batamon quriydi va bu qurigan daraxt vaqti kelib osongina qulaydi ham. Biz bunday ma'naviy qashshoqlikka duchor bo'lgan davlat (qurigan daraxt) bilan kelajakni ko'ra olamizmi? Yo'q, albatta. Shunday ekan, Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi".

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, kutubxonachilar ham jamiyatning ajralmas bir bo'lagi, ularsiz jamiyatni tasavvur qilib bo'lmaydi. To'g'ri, bu kasb egalarning ishi ko'rimsizdek tuyulishi mumkin. Xuddi daraxt ildizi yer ostida ko'rinmaganidek. Lekin ular jamiyatning asosiy bir bo'g'inidir. Kutubxonachilar bor ekan, yurtboshimiz bizni qo'llab-quvvatlar ekan, biz hech qachon keraksiz kasb egasi bo'la olmaymiz. So'zimiz yakunida shuni baralla aytishim mumkinki, kutubxonachi bu kelajak kasbidir.

Albatta, kelajak kasbi! Buni men sizlarga oddiy bir daraxt misolida tushuntirib beraman.

1. Daraxt – buni bir davlat sifatida olaylik. Masalan, O'zbekiston davlati.
2. Daraxt yaproqlari – bu jamiyat a'zolari (oddiy ishchidan tortib mansabdor shaxslarga qadar).
3. Daraxt ildizi – bu kutubxona, ya'ni barcha kitoblar majmui.
4. Bog'bon – bu o'z o'rnida kutubxonachi daraxt ildizini doimo mineral o'g'itlar bilan boyitib boradigan, kitoblarni turli tashqi va ichki omillardan himoya qilib, uni jamiyat a'zolariga ulashib, ma'naviy savodxonligini oshirishda asosiy ko'makchi vazifasini o'tovchi jamiyatning bir ajralmas muhim a'zosi hisoblanadi.

Endi bir tasavvur qilaylik.

Eng quyi pog'onadagi jamiyat a'zosi, ya'ni oddiy bir ishchi o'qituvchi bo'lishni orzu qildi. Buning uchun unga, avvalo, bilim kerak. Bilimni qayerdan oladi? Albatta, daraxt ildizidan, ya'ni kitoblardan. Oddiy ishchiga ma'naviy ozuqani kim ulashadi? Albatta, bog'bon, ya'ni kutubxonachi.

Yana tasavvur qiling. Oddiy ishchi dengizga ikki eshkakli qayiqda o'z maqsadlari sari sayohatga otlandi. Qayiqning birinchi eshkagini harakat, ikkinchi eshkagini kitoblardan olingan bilim deb olaylik. Dastlab ishchi "Men o'z maqsadimga harakatim orqali erishaman, menga bilim kerak emas" degan tushunchani ong ostiga olib, bir eshkak bilan dengizga tushdi. Lekin dengizdagi to'lqin, har xil tashqi omillar qayiqning harakatiga to'sqinlik qildi va qayiq joyida aylanib, hech qanday maqsad sari odimlay olmadi. Shu payt ishchining kutubxonachiga ehtiyoji sezildi. Faqat harakat bilan o'z maqsadlariga yetisha olmasligini tushunib yetdi. Unga bilim ham kerak. Bilimni qayerdan oladi? Albatta, kitoblardan.



ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA IJODIY IZLANISH SAMARASI

Yurtimizda ta'lim tizimida olib borilayotgan so'nggi islohotlar o'sib kelayotgan yosh avlodga sifatli ta'lim-tarbiya berish va shu orqali jismonan baquvvat, ma'naviy jihatdan yetuk, bilimli avlodni tarbiyalash, o'quvchilarning mustaqil fikrlash dunyoqarashini kengaytirish, iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish kabi ko'plab vazifalarga qaratilganligi barchamizga ayon. Mazkur vazifalarni bajarishda esa ta'lim tizimiga pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, ijodiy izlanishni tashkil etish, noan'anaviy usuldagi zamonaviy darslarni joriy etish, o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda dars jarayonlariga zamonaviy, yangicha yondashuv talab etiladi. Xususan, ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi ham har bir darsda o'rganiladigan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari va pedagogik texnologiyalarning didaktik funksiyalarini hisobga olgan holda o'quvchilarni ijodiy izlanishga undovchi interfaol metodlardan foydalanishni ilmiy-metodik asosda tanlagandagina ko'zlangan maqsadga va samaradorlikka erishadi. Quyida shunday usullardan keltirishni joiz topdim:

"Chala xat" usuli. Ushbu metodni o'qituvchilar shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini, she'r va g'azallarini o'rganishda qo'llashi mumkin. Sharti shuki, darslikda berilgan matn, g'azal va she'rlarning ba'zi joylari tushirib qoldiriladi. Metodni qo'llashdan oldin mavzuni to'liq o'rganishni o'quvchilarga uy vazifa topshirig'i sifatida beriladi. Masalan:

*Fig'onkim, gardishi davron ayirdi shahsuvorimdin,
G'amim ko'p, ey ko'ngul, sen bexabarsen holi zorimdin.
G'uborim ishq vodiysida barbod o'ldi andog'kim,
Biyobonlarda Majnun to'tiyo izlar g'uborimdin.
(Nodira)*

"Assisment" metodi esa o'quvchilarning olgan bilimlarini tez baholash imkonini beradi. Bu metod orqali o'quvchilar faqat bilim olib qolmasdan olgan bilimlarini kelajakda qo'llay olish malakasini rivojlantiradi. Hayotga pozitiv ni-goh bilan qarashga o'rganadi.

O'yab ko'ring: Qo'qon xonligida adabiyot, ilm-fan va san'atning taraqqiy etishini qanday omillar bilan izohlaysiz? Bunday rivojlanish O'rta Osiyodagi boshqa xonliklarda ham kuzatilganmi?

O'yab ko'ring: Anor tasviriga bag'ishlangan boshqa she'rlarni eslay olasizmi? Chiston janrida she'rlar bitgan ijodkorlarni-chi? Uvaysiyning yuqoridagi chistoni boshqalarnikidan qay jihatlari bilan farq qiladi?



Xabiba TALLIYEVA,
Samarqand viloyati Ishtixon
tumanidagi 86-umumiy o'rta
ta'lim maktabining ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi



Tahlil qiling: Uvaysiy va Dilshodi Barnolar qanday zamonni orzu qilishgan edi? Ayol erki bo'g'ilgan, huquqlari toptalgan bir davrda bu ijodkorlarning yozganlarini jasorat deyish mumkinmi? Nodira, Uvaysiy, Anbar Otin, Dilshodi Barno kabi ayol ijodkorlarning o'zbek va fors tillaridagi adabiy merosi milliy so'z san'atining go'zal sahifalarini tashkil etadi. Ular shaxsiyatidagi vafodorlik, odamiylik, poklik, sadoqat tuyg'ularini ijodida ham aks ettirib, haqiqiy o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini, o'ziga xos siymosini yaratdilar va xalq hurmatiga sazovor bo'ldilar.

Demak, bugungi zamonaviy ta'lim pedagogik tafakkur, taraqqiyparvar fikr, ijodiy izlanish, yangi g'oyalar mahsulidir. Yangi fikr va g'oyalar o'z navbatida mavjud muammolar, yo'l qo'yilgan xatolar va kamchiliklarning chuqur tahlil qilinishi natijasida yuzaga keladi. Aynan ona tili va adabiyot darslarida ijodiy izlanish samarasi o'laroq o'quvchilar yaxshilik va yomonlikni farqlaydilar, tafakkur yuritadilar.



O'ZING MURABBIYSAN, HAYOT!



Muhammadali QAMBAROV,
Namangan viloyati Uychi tumani
hokimining matbuot kotibi – axborot
siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi,
“Uychinoma” gazetasi muharriri

Umidjon Sultonov 1979-yilda Namangan viloyati Uychi tumanida tug'ilgan. Maqola yoza boshlaganiga va ilk material chop etilganiga bu yil o'n sakkiz yil, ta'lim tizimidagi faoliyatiga esa ikki yil to'lmoqda. Ilk maqolasi tuman hokimligining “Uychinoma” gazetasida yoritilgan edi. U paytlari tumandagi Yangichek mahallasida mas'ul kotib vazifasida ishlardi. O'sha paytlardan buyon “Uychinoma” gazetasidagi faoliyatim davomida qo'l ostimda toblandi, tumanimizga tanildi. Talabchanlikni o'zlashtirdi, o'z uslubini kuchaytirdi. Hamkasblari, rahbarlar ishonchini, hurmatini qozondi. O'sha paytlar shogirdim maqolalarini “Uychinoma” gazetasiga har hafta berib borar, haftasiga undan yangidan yangi maqola so'rab turardim. Shundan so'ng mahallada o'tkazilgan tadbirlar, sportchi yoshlar erishayotgan yutuqlar haqida yozgan tezkor yangiliklari “Namangan haqiqati”, “Ayol va jamiyat” gazetalarida yoritilib borildi.

2013-yilda mamlakat miqyosida “Eng namunali fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari” ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. Shu tanlovda Umidjon Sultonov faoliyat olib borayotgan “Yangichek” mahalla fuqarolar yig'ini ham tuman va viloyatda g'olib bo'lganligi sababli u respublika bosqichida ishtirok etdi. Ayni ushbu tadbirda Umidjonning tanlov jarayonidagi intervyusi “Xalq so'zi” gazetasida yoritildi.

U Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida tahsil olib yurgan kezlari “Qishloq hayoti” gazetasida ham maqolalari yoritila boshlandi. Oliygoxda o'tkaziladigan konferensiyalar, tadbirlar, anjumanlar, media-forumlari va festivallarda muvaffaqiyatli qatnashdi. Har bir jarayonga mos mavzularni yoritishda muntazam malakasini oshirib bordi. Oliygozni tamomlab, Chortoq tumanidagi Bog'iston qishloq xo'jaligi kasb-hunar kolleji-da ish boshladi. Kollejdagi faoliyati davomida ham “Mahorat maktabi”, “Chortoq haqiqati” gazetalarida maqolalari nashr etildi. Umidjon kollej faoliyati targ'ibotiga imkon qadar munosib hissasini qo'shdi desam, mubolag'a bo'lmaydi.

2017-2021-yillarda tumanimizdagi Toshloq va Ovchibuloq mahallalarida mehnat faoliyatini olib bordi. Shogir-

dimning “Uychinoma” gazetasi tahririyati muxbiri bo'lgani hayoti va yo'nalishida yangi sahifalar ochdi. Faoliyati davomida amalga oshirilayotgan ishlar Namangan viloyati televideniyesi, “O'zbekiston 24” va “Mahalla” telekanallari tomonidan tasvirga olindi, ijtimoiy tarmoqlarda bir necha bor yoritildi.

Umidjon Sultonov o'tgan shu yillar davomida katta obro' va tajriba to'pladi, e'tiroflarga sazovor bo'ldi. Keng qamrovli, ko'p qirrali zamonaviy mutaxassisga aylandi. Tumanimizda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalarga doir islohotlarning izchil ijrosi, qizg'in jarayonlarni tuman gazetasida doimiy ravishda yoritib bordi, tumanda tanildi.

2022-yildan ta'lim tizimida ish faoliyatini davom ettirib, pedagog ustozlar safiga qo'shildi. O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi Namangan viloyati bo'limi raisi Nosir Abbas va shoir Ziyoviddin Mansurov bilan uchrashib, ulardan maslahatlar olib keladi. O'tgan davr oralig'ida “Murabbiy” gazetasida maqolalari yoritildi. Eng muhimi, 2024-yildan uning maqolalari “O'zbekistonda ta'lim” respublika pedagoglar jurnalida yoritilib, tahririyatning bir necha bor sertifikat va diplomlariga sazovor bo'la boshladi.

Darvoqe, 2019-yildan buyon telegramda ikki yuz nardan ziyod obunachiga ega bo'lgan “Umidjon Sultonov xabarlari” kanalining administratori bo'lib, hayoti bilan bog'liq har bir jarayonni yoritib, kanalni yuritib boradi. Mazkur onlayn davra uni tashkilotchilik, yetakchilik, tashabbuskorlikka va sinchkovlikka, kuzatuvchanlikka, g'ayrat-shijoatga undab turibdi.

2023-2024-o'quv yili Umidjon Sultonov mehnatlari samarasini berdi. “So'nggi qo'ng'iroq” tadbiri arafasida u “Iste'dod” ko'krak nishoni hamda tuman maktabgacha va maktab ta'limi bo'limining tashakkurnomasi bilan taqdirlandi.

Ha, Umidjon Sultonov mehr-e'tiborini, ko'z nurini, bilim-iqtidori va sadoqatini zavqli, lekin mashaqqatli tahrir yumushiga, so'z sayqaliga bag'ishlagan izlanuvchan shogirdlarimdan biridir. Uning kelgusi faoliyatiga ulkan muvaffaqiyatlar tilayman!



TOSHKENT TURIZM VA MEHMONXONA MENEJMENTI TEXNIKUMIGA O'QISHGA MARHAMAT!



Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5812-sonli farmoni asosida 2020-yil 3-sentabrda “Ipak yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzurida tashkil etilgan.

Texnikumda quyidagi yo'nalishlarda kunduzgi, sirtqi, dual ta'lim asosida o'quvchilar kasb va mutaxassisliklarga tayyorlanadi:

	Yo'nalish	Kvalifikatsiya	Muddati
1	51010701. Turizm	1. Turizm mutaxassisi (turoperator) 2. Marketing bo'yicha mutaxassis	2 yil
2	51010401. Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish	1. Ma'muriy-xo'jalik xizmati menejeri 2. Food&Beverage menejeri 3. Keytering xizmatlarini tashkil etish menejeri	2 yil
3	50410101. Buxgalteriya hisobi va audit	Buxgalter va auditor	2 yil
4	41010501. Umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish	1. O'zbek va xorijiy oshxonalar oshpazi 2. Bolalar va parhez taomlari oshpazi 3. Sharq shirinliklari va un mahsulotlarini tayyorlash va pishirish qandolatchisi	1,5 yil

2024-2025-o'quv yili uchun Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumi quyidagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha qabul e'lon qiladi:

Kunduzgi ta'lim shaklida:

- turizm;
- mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish;
- buxgalteriya hisobi va audit;
- umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil qilish.

Sirtqi ta'lim shaklida:

- turizm;
- buxgalteriya hisobi va audit.

Dual ta'lim shaklida:

- mehmonxona xo'jaligini tashkil qilish va boshqarish;

- umumiy ovqatlanish xizmatlarini tashkil qilish;
- turizm.

Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumida Prezidentimizning 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-sonli qaroriga muvofiq turizm va xizmatlar sohasida 2023-2024-o'quv yilidan boshlab kunduzgi kasb va mutaxassisliklarga o'quv jarayonlarida amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlari ta'minlanadi.

Dual ta'limda ham avgust oyi qabuli bo'yicha o'qishga kirgan o'quvchilar to'liq davlat granti asosida bepul o'qitilishi belgilangan. Dual ta'limda o'quvchilarni haftada kamida ikki kun professional ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonlarida ishtirok etishlarini va qolgan ish kunlarida tegishli tashkilotlarda amaliy mashg'ulotlar bilan birga mehnat faoliyati olib borishlari ta'minlanadi.

Texnikumni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 11-yanvardagi 17-sonli qarori va Nizomiga muvofiq oliy ta'limning bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida 2-bosqichdan o'qishga qabul qilinish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumida o'quvchilar xalqaro hamkorlik asosida Turkiya, Bolgariya, Germaniya davlatlariga o'quv amaliyotlariga yuborilib, xalqaro darajada o'z malakasini oshirish, a'lo baholarga o'qib Turizm qo'mitasi tomonidan stipendiya nomzodi bo'lish, ta'lim muassasamizda tashkil etilgan xorijiy til kurslaridan ellik foiz chegirma asosida foydalanish imkoniyatlariga ham ega bo'ladi.


Texnikum bitiruvchi yoshlarni ish bilan ta'minlashga ham ko'maklashadi.

Biz yoshlarimizni Toshkent turizm va mehmonxona menejmenti texnikumiga o'qishga taklif etib qolamiz!



QADRIYATLARGA TAYANGAN TARAQQIYOT

Iqbol NARBAYEVA,
Jizzax viloyati Do'stlik tuman
axborot-kutubxona markazi axborot-
bibliografiya xizmati mutaxassisi



Jamiyatdagi barcha insonlar bir-biri bilan munosabatda bo'lar ekan, ularning o'rtasida mehr-oqibat va o'zaro ishonch bo'lsagina hayotlari yanada go'zallashib boraveradi. Insonning qadr-qimmatini uning mehr-oqibati bilan baholanadi. Qancha boy-badavlat yoki mansabdor bo'lmasin, u insonning mehr-oqibati bo'lmasa, qadr-qimmatini, obro'si ham bo'lmaydi.

Inson mehr-oqibatni, avvalo, o'z ota-onasidan oladi, o'rganadi va yaqinlariga, ota-onasiga o'sha olgan mehrini qaytaradi. Mehr ko'rmay katta bo'lgan kishilarda mehr berish ham kamroq bo'ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, bemehr inson bo'ladi. Unday insonlarga yaqinlari tomonidan ko'proq e'tibor, ko'proq mehr berilsa, yaxshi tomonga o'zgaradi, insho'Allah. Payg'ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi vasallamdan bir kuni sahobai kiromlar so'radilar: "Dunyoni nima qutqaradi, ey Allohning rasuli?" Shunda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam: "Dunyoni mehr, rahm-shafqat qutqaradi", – dedilar.

Barchamizga ma'lumki, hozir globallashtirilgan texnologiya asri hisoblanadi. Deyarli barchaning qo'lida smartfon telefonlar bor va ko'pchilik bu zamon texnologiyasiga bog'lanib qolgan. Hattoki bundan to'g'ri maqsadda foydalanmay, har xil keraksiz narsalarni tomosha qilib, vaqtimizni besamar o'tkazmoqdamiz. Qolaversa, ayrim otanonalar o'z farzandlariga vaqt ajratish o'rniga ularni ovuntirish maqsadida qo'llariga smartfon tutmoqdalar. Buning natijasida esa bu bolalar tarbiyasi ota-onadan emas, balki

o'sha smartfonlardan olishmoqda. Telefondagi har xil keraksiz videolar ularning xulqiga salbiy ta'sir qilmoqda. Oqibatda ular o'z ota-onalariga nisbatan mehrini yo'qotishmoqda. Biz bu narsaga shunchaki ko'z yumib, befarq bo'lmoqdamiz.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, avvalo, mehr-oqibatni ham, tarbiyani ham oiladan boshlamoq kerak. Bizga berilgan imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishimiz va farzandlarimizga ham to'g'ri tushuntirishimiz kerak. Shu o'rinda mehr-oqibatni yo'qolib ketmasligi uchun uning oldini olish maqsadida men bir necha takliflarimni berib o'tmoqchiman:

Birinchidan, televideniye orqali namoyish etilayotgan mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan har xil kino va seriallar namoyish vaqtini o'zgartirish yoki umuman qo'ymaslik lozim. Masalan, "Qora niyat", "Oila uchun", "Yongan yuraklar" va yana shunga o'xshash qadriyatlarimizga ta'sir etuvchi serial va kinolar.

Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar orqali mehr-oqibat va tarbiya tushunchalarini targ'ib qiluvchi "Eng namunali oila", "Eng oqibatli do'stlar", "Keksalarga ehtirom" kabi mavzularda har xil ko'rik-tanlovlar, videoroliklar namoyishini o'tkazish.

So'zimiz yakunida shuni aytishim mumkinki, Robbimiz bizni suyib inson qilib yaratdi, iymonli bandalaridan qildi. Shunga munosib yashab, o'zimiz va farzandlarimizga namuna bo'laylik. Yashab o'tgan umrimizdan yaxshi iz qoldiraylik!



NON QADRI

(Hikoya)

Maxmud SOLIYEV,
Xalqaro Turon yozuvchilar
uyushmasi a'zosi



Bir necha yil avval biz – bir guruh o'zbekistonlik yoshlar Rossiyadagi oliygozlarning birida tahsil olganmiz. Oliygoz binosi yotoqxonamizdan unchalik olis emas edi. Piyoda borsak ham bo'laverardi. Goho transportga ham chiqardik. Vaqtimiz bemalolroq paytda birinchi soat darsimiz yo'qligi uchun Mo'minjon ismli do'stim bilan piyoda yo'lga chiqdik. Atrofimizda odamlar gavjum. Hamma o'z ishiga shoshgan, hech kimni hech kim bilan ishi yo'q. Biz piyodalar yo'lakhasidan ketar ekanmiz, nogoh ko'zimiz shundoqqina yerda yotgan bir burda oppoq nonga tushdi. Shunda Mo'minjon yugurib borib nonni oldida "Voy, yaramaslar-ey, nonni yerga tashlashibdi-ku!" – deb "puf-puf" etib tozalab, bir o'pdi-da, so'ngra ko'ziga surtib, menga uzatdi. Men ham xuddi shunday qildim-da, non bo'lakhasini yo'l chetidagi daraxt shoxlari orasiga qo'ydim. Endi yo'lga tushuvdik hamki ortimizdan bir kishining:

– Ребята, стойте на минутку, – degan ovozi eshitildi.

Biz to'xtadik va ortimizga o'girildik. Ortimizdan, odamlar oqimi orasidan bir rus kishi biz tomon ildam kelar edi. Yoshi ellik-ellik beshlar atrofida bu odam negadir hayajonlanar, do'stim ikkimiz bu holga hayron edik. Ustidagi kiyimlari o'ziga yarashgan bu insonning ko'ksini nishonlar to'ldirib turar edi. Bizga yaqinroq kelgach:

– Qayerdانسizlar? – so'radi u kishi.

– O'zbekistondan, Namangan shahridanmiz, – dedik biz.

– Ha, o'zimiz ham o'ylovdim, bu yerlik emas bu yigitlar deb. Eshitganman, "Наманганские яблоки" qo'shig'ini, – dedi ko'zlari chaqnaq.

Chindan ham, o'sha paytlari "Namanganning olmasi" qo'shig'i juda mashhur bo'lib, uning rus tilida ham yangraganidan shinavandalari yanada ortgan, hozirgi atamada "xit" darajasiga chiqqan edi.

– Haqiqatdan ham, u yerda olmalar bizning Michurinskdagidan ham ko'pmi? – so'radi u kishi.

Namanganda nafaqat olmalar, balki boshqa mevalar ham ko'pligini, bundan tashqari, Namangan gullar shahri ekanligini aytdik.

– Ismim Nikolay, oddiygina Kolya amaki desalaring ham mayli deya, – o'zini tanishtirdi suhbatdoshimiz. "Yo'llaringdagi maktabda harbiy ta'lim fani o'qituvchisi

bo'lib ishlayman. Ishga ketyapman. Hozirgi qilgan ishlaringizni ko'rib, rosti quvondim. Shunday yoshlar borligi ko'nglimni ko'tardi. Eh, yigitlar, yigitlar, bir burda non qadrini biz his etganmiz", – deya chuqur uh tortdi va biz hozirgina daraxt shoxlari orasiga qo'ygan non bo'lagini sumkasiga solib, davom etdi:

– Mana shu bir bo'lak nonga qanchadan qancha odamlar zor bo'lganini bir tasavvur qilinglar-a! Ikkinchi Jahon urushining suronli yillari. Hammayoq olov ichida. Fashist bosqinchilari vaqtincha bosib olgan qishloq va shaharlardan odamlarimizni quvgan, kattalar ham, bolalar ham och. Bir burda nonga zor. Hamma yerda non kartochka orqali berilgan va uning miqdori har bir kishiga o'ttiz-ellik grammni tashkil qilardi xolos. Bizning batal'on frontning oldingi chizig'ida jang qilar edi. Belorussiyaning kichik bir qishlog'ini fashistlardan ozod qildik. Shunda yonimizga to'qqiz-o'n yoshlardagi kichkina bolakay yugurib keldi va bizni xonadoniga boshladi. Uch nafar askar bilan u boshlagan uyga bordik. Uyda qirq yoshlardagi bir ayol behol yotardi. Bu ayol bolakayning onasi ekan. Bir necha kundan beri tuz ham totmagan, ochlik sillasini quritgan edi. Bosqinchilar ularning bor narsalarini tortib olgandan so'ng kartoshka po'choqlarini qaynatib yeyishgan. Ularning achchiq qismatini ko'rib, askarlarimizda fashistlariga nisbatan yanada ko'proq nafrat hissi uyg'ondi. Yonimdagi askarlar qopchiqlaridan qotgan non, suxari va konservalardan olib, ayolning yoniga qo'yishdi. Ayol esa nonni olib ko'ziga surtib yig'lar va o'g'liga qarab:

– Ol, Grishenka, ye, qorningni to'yg'azib ol! – derdi.

Bolakay esa:

– Yo'q, yo'q, oyijon, o'zingiz yeng, axir bir necha kundan beri tuz tortmadingizku! – deb onasiga ilinar edi.

Bu holni ko'rgan askarlarimiz fashist bosqinchilarini tezroq ona Vatanimiz tuprog'idan haydab chiqarish kerakligini yana bir bora his etishdi.

– Ha, men ana shunday voqealarning guvohi bo'lganman, – dedi Kolya amaki.

– Hozirgina sizning qilgan ishlaringizni ko'rib o'sha voqeani esladim. Yerda yotgan bir burda nonning yonidan befarq va loqayd o'tib ketayotgan odamlarga qarab: "Eh, odamlar, odamlar! Qiyinchilik yillarini shunchalik tez unutdingizlarmi?!" – degim keldi.



Asror Xolmuratov 2003-yilda Surxondaryo viloyati Qumqo'rg'on tumanida tug'ilgan. Dastlabki ta'limni Qumqo'rg'on tumanidagi 70-umumiy o'rta ta'lim maktabida olgan. 4-sinfidan keyin uning oila a'zolari poytaxtga ko'chib ketadi va u o'qishni Toshkent viloyati O'rta chirchiq tumanidagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabida davom ettiradi. Asror maktab paytlaridan turli xil tanlov va musobaqalarda faol qatnashib, sportning o'zbek jang san'ati bilan muntazam shug'ullanib kelgan va respublikada faxrli 2-o'rini egallagan. Yigirmadan ortiq medal va diplomlari bor.

U 6-sinfda biologiya faniga mehr qo'yishiga sababchi bo'lgan o'qituvchisi Mavjuda Ernazarovani iliq gaplar bilan eslaydi.

Asror "InnoWeek – 2023" innovatsion g'oyalar haftaligida eng yaxshi ilmiy maket yo'nalishida g'olib bo'lgan va "InnoWeek – 2023" innovatsion g'oyalar haftaligida eng yaxshi "Startup" yo'nalishida g'olib bo'lgan.

O'qishi davomida uning o'ndan ko'proq ilmiy maqola va tezislari respublika va xalqaro jurnallarda nashr etilgan. Ustozi Rahmat Nurullayev bilan hamkorlikda yaratgan yangiliklari bo'yicha beshta mualliflik guvohnomalarini olgan.

Bu yil ham Asror uchun omadli kelib, institutda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida "Raqamli yashil texnologiyalar haftaligi"da faxrli 1-o'rini egaladi va institut talabalari o'rtasida fan olimpiadasida faxri 2-o'rini egalladi.



Asror KHOLMURATOV,
"TIQXMMI" National Research
University
Student of the Institute of
Irrigation and Agro-Technology



MAIN TECHNOLOGICAL INDICATORS OF EARTH AND EARTH WORKING

The methods of mechanical influence on the soil in order to create the most favorable conditions for the growth of crops and increase its productivity are called tillage. If the land is well cultivated, weeds, pathogens and pests disappear, plant residues and fertilizers are mixed with the soil, erosion processes are prevented and the loss of moisture and nutrients from the soil is reduced, favorable conditions are created for the burial of crop seeds to a reasonable depth. The main purpose of soil cultivation is plants for the better development of the root consists of changing the structure of the arable layer of the land and the structural properties of the soil, accelerating the circulation of nutrients by lowering the nutrients from the surface layer of the soil to the layers where plant roots spread, and influencing the microbiological processes in the soil. In arid regions, the main task of tillage is to collect moisture in the soil and prevent its unnecessary evaporation.

Soil fertility is the ability of the soil to provide water, nutrients, etc. Soils differ from rocks in their fertility. Agriculture that provides the basic food products for humans on fertile soils. Plants are grown. Land is only used for agricultural production due to its fertility. Became a tool. Soil fertility is inextricably linked with

soil-forming factors: climate, topography, soil-forming rocks, natural and cultivated plants, but the nature of land use is of great importance for the level of fertility.

The most important factors of soil fertility are: sufficient amount of nutrients and their type necessary for plant development; availability of moisture that the plant can absorb; good soil, aeration; granulometric composition of the soil, structural condition and structure; the amount of toxic substances (acid, alkali, salt, etc.); consists of soil reaction and others. The sum of these characteristics determines the level of soil cultivation. All elements of productivity are closely related. A change in one of these elements affects the others. Because different plants have different soil fertility requirements and depending on plant biology, a soil that is considered fertile for one type of plant may not be fertile for another.

Are basic, special and surface tillage methods. Main tillage is the first deep plowing after the previous crop has been harvested. In non-erosive areas, this is usually plowing. The methods of special tillage include milling, planting, layered plowing (eg, double-layered). The depth of softening is sometimes 12-14 cm.

Each method of land cultivation, taken separately, includes one or more technological operations and cannot provide all the tasks of land cultivation. Therefore, it is necessary to use several methods in tillage. A system of land cultivation is a set of land cultivation methods that are consistent with the soil and climate conditions and are designed for the implementation of the main tasks. It includes basic, pre-planting and post-planting treatments.

Technological operations of land cultivation: turning the layer, softening, mixing, densifying, leveling, cutting the roots of weeds, egging, ditching, furrowing, keeping soil on the surface of the layer, etc.

Overturning the layer, that is, changing the soil layers, consists in mixing layers that differ in agronomic properties.

It is also necessary to turn the layer in order to bury the residues of manure, sod, fertilizers, weed seeds, pathogens and pests in the soil during the initial development period. For this, the fields are plowed with a reverse plow.

Plowing the soil at a depth of 35-40 cm with a double-layer plow or 30-40 cm with a rotary plow gives good results. Land loosening is carried out when the arable layer and sub-aerial layer of the soil become very dense as a result of many times of tractor and machinery passing through the field, heavy rains in autumn and spring, irrigation in vegetation and salt washing. This work is performed separately or together with other operations (overturning, mixing). When loosening the soil at a depth of 6-8 cm, using a "zigzag" harrow, a rotary hoe, when loosening at a depth of 12-16 cm, a disk harrow, a chisel cultivator; For loosening at a depth of 20 cm and more, a plow with a tipped head, a plow with a deep softener, a flat chisel – tools with a deep softener, etc. are used.

As a result of mixing the soil, the arable layer is homogenized, the products formed from the decomposition of organic substances, mineral fertilizers are evenly distributed. When compacting the soil, it is ensured that the soil clods are more densely placed together, the lumps are crushed, the soil of the plowed land is slightly settled; in this case, the soil is less blown by the wind, favorable conditions for seed germination are created, etc. Leveling of the earth's surface ensures the quality of salt washing works, as a result of the current leveling of the plowed land before planting crops, favorable conditions are created for planting, crop care and harvesting. Current land leveling is partially done manually with harrowing and troweling.

Even if the general rules of tillage are observed, the risk of its drying remains with long-term mechanical

impact on the fertile layer. In addition, the possibility of soil erosion and its physical deterioration increases, against which the ability to absorb humus decreases. These and other negative factors of mechanical processing techniques and methods determined the relevance of the theme of introducing the principles of minimalist impact of agricultural tools on the ground. In practice, this is expressed in the following principles:

Reduce the frequency of deep processing without surface layer settings.

Soils in optimal condition are rarely tilled.

Several work procedures are performed within one technological operation. Reducing the number of operations related to the connection of wheeled and wheeled vehicles. This measure reduces the pressure in the soil.

This logically raises the question of the use of optimized processing methods, for example, the risk of reduced productivity. In fact, some of the indicators that reflect the productive properties of the land decrease against the background of a decrease in the intensity of mechanical influence in one form or another. But, on the other hand, this damage is fully compensated by the general stimulation of positive soil processes related to the regulation of nutrients and microorganisms. Particularly favorable effects are observed in the biochemical processes of enzyme metabolism and in the transformation of various organic compounds.

Summary. Proper implementation of land cultivation, the development of farming activity in agriculture, effective use of land resources ensures the reduction of costs incurred in the implementation of agrotechnical processes. The improvement of tractors and agricultural machines used in agriculture also requires the introduction of a number of innovations in technological processes.

As a result of the implementation of the decrees of the President of the country and the decisions of the Cabinet of Ministers related to the agricultural sector, attention to agricultural production has increased and the arming of production facilities with modern machines and mechanisms has reached another stage. Was raised. Of course, the expansion and modernization of energy resources in the agricultural sector creates a basis for increasing the type and volume of cultivated products, and ultimately, for further increasing the welfare of the people. Implementation of such complex issues using the most convenient and energy-saving techniques and technologies requires deep theoretical knowledge and professional skills from the specialist.



OLYGOHIM

Noming oliy, ilm-u ziyo maskanim,
Yuksak cho'qqilarga eltuvchi dargoh.
Sharafing, g'ururing titratar tanim,
Ma'naviyat o'chog'i, ulug' oliygoh.
Ne-ne ziyolilar ko'rkam qo'rg'oni,
Komil insonlikka yetaklovchi yo'l.
Larzaga keltirar butun dunyoni,
Sening farzandlaring ko'kka cho'zib qo'l.
Ta'lim-u tarbiya singgan shuuringga,
Avloniy shiori mangu o'chmas iz.
Muqaddas ostonang xatlab poyingga,
Qanday insonlar ham cho'kmaydilar tiz?!
Sen – najot, sen – imkon, sen – nur timsoli,
Xalq uchun boqiydir ulug' xizmatig.
Farg'onam muhtasham ko'rki misoli,
Oliygohim, sening buyuk himmating.
FarDU, sharafingga hech dog' tushmasin,
To yuksal quyoshning nuri bitguncha.
Ilm-u irfoningdan ummon chanqasin,
To jahon nomingni madh etguncha.



Odinabonu RAHMATJONOVA,
Farg'ona davlat universiteti pedagogika
va psixologiya fakulteti maktabgacha
ta'lim yo'nalishi talabasi



VATAN

Ilk bor ko'zim ochib tafting his qilgan,
Qaynoq kaftim o'zing, onamsan, Vatan.
Musaffo osmoning humolar quchgan,
Borlig'im, ikki ko'z qoramsan, Vatan.
Quyoshing nur sochib eling boy qilgan,
Ikki daryo suvi marjonim, Vatan.
Noming-u, ta'rifing bir jahon bilgan,
Sharafing bo'ynimda tumorim, Vatan.
Vodiyning havosi ming dardga davo,
Tuprog'ing zarrasi muqaddas, Vatan.
Vohaning eli-yu, millati aro,
A'losi, tengi yo'q topilmas Vatan.
Yurtboshing xalq bilan jon-u tani bir,
Tinchliging boshimda tojimsan, Vatan.
Vatan, madhing kuylaganda qalb titraydi zir,
Har nedan eng aziz shonimsan, Vatan.
Xalqing g'ururidek baland tog'laring,
Yoshlaring burgutdek ko'zlaydi, Vatan.
Azim chinorlaring, bog'-u rog'laring,
Ta'rifga so'z yetmay so'zlaydi, Vatan.
Tarixing ulug'dir, o'tmishing shonli,
Eshitsam har yerda mag'rurman, Vatan.
Qancha yo'l bosgansan haq uchun qonli,
Boshimni tik tutib ayturman, Vatan.
Sening beshigingda yotgan emasmi?
Ulug'vor sarkarda Temuring, Vatan.
To'marisdek jasur, mardona ayol,
Ishqing o'tida kul Boburing, Vatan.
Buyuk ajdodlarim shu tuprog'ingda,
Bilaman, ruhi shod bo'lgandir, Vatan.
Mendek farzandlaring keng quchog'ingda,
Shijoat, shodlikka to'lgandir, Vatan.
Ming yillik ulug'vor Registonlaring,
Ko'rkingga ko'rk qo'shib turadi, Vatan.
Samarqand sayqali va ro'yi zamin,
Buxoro ilmning yo'lisan, Vatan.
Xivasan mustahkam qal'a, qo'rg'oni,
Farg'onam do'ppi yarashgan Vatan.
Toshkentsan, dovrug'im, hamda bir yoni,
Namangan gulidek yashnagan Vatan.

JADIDLAR

Tish-tirmog'i ila xalq uchun kuygan,
Ma'rifat kuychisi shoir, adiblar.
Xalq dardini o'zining dardidek tuygan,
Biz sizni yod etdik, buyuk jadidlar!
Yurtga ilm-u irfon yo'lini ochgan,
El uchun jonini bergan shahidlar.
Millatga quyoshdek nur-ziyo sochgan,
Bizni sizni yod etdik, buyuk jadidlar!
Qodiriy so'z bitgan bir parcha varaq,
Hayratga keltirgan butun dunyoni.
Nechun bizlar uchun bo'lmasin saboq?
Hamzaning toshlarga to'kilgan qoni.
Tuhmat girdobida qolgan Tavallo,
Haqiqat she'rilarin bitganida haq.
Asl farzandlardan bo'lgandi judo,
Bu Vatan topmoqlik yo'lida ravnaq.
Behbudiy boshlagan ulug' karvon yo'l,
Oliy burchimizdir davom ettirmoq.
Bugun maqsadimiz bo'lsin, yurtdoshim,
Birlashib jadidlar yo'lidan yurmoq.
Ibratdek millatga jonkuyar inson,
Bugun ham yashaydi o'z oramizda.
Fidokor Fitrat-u, xalqparvar Cho'lpon,
Nigohi o'chmagay ko'z qoramizda.
Munavvarqorilar milliy ozodlik,
Yo'lida Vatanga jonini tutgan.
Millat manfaatini o'ylab, qayg'urib,
G'aflat uyqusidan xalqni uyg'otgan.
Sibir ayozlari yengmagan tanni,
Bir zumda bitta o'q tegib sovitdi.
G'ulom Zafariydek ona Vatanni,
Yuksak ko'tarmoqlik navbati yetdi.
Yoshligi xazona aylangan shoir,
So'nggi so'ziga deganda Vatan.
Bugun bizga navbat yetdi, yurtdoshim,
Bo'lmoq vaqti keldi bir jon-u bir tan.
Keling, birlashaylik jondosh, vatandosh,
Millat uchun tegsin bizning nafimiz.
Jadidlar yo'lida bo'laylik izdosh,
Kengaysin siz bilan ulug' safimiz.



TUSHDAGI SUHBAT

Bir kun ijod ahli yig'ilib,
O'tirarmish ko'p suhbat qurib.
Ularning eng yoshi Muhammad Yusuf,
Savol berdi o'ylanib turib:
"Tashlab ketgan dunyoyingizda,
Bo'lganmi ushalmas armon?
Xalqim meni eslarmi deya,
Qiyab kelar shu savol hamon".
Davra tinchib jim bo'lib qoldi,
Kimdir choyin ichdi tiqilib.
Yana kimlar xayolga toldi,
O'tirishar edi siqilib.
Bu orada eshikni ochib,
Erkin shoir kirdilar kulib.
Hammasining xayolin sochib,
"Keldim", – dedi, yelib-yugurib.
So'ng qarasa, bu bazm emas,
Hamma xayol o'yiga cho'mgan.
Hatto birov "Ol, yegin" demas,
Sukunatning qo'riga ko'mgan.
So'ng so'radi "Bu nima ahvol!?",
Aytishdilar unga savolni.
Muhammadga bir qarab darhol,
Qo'lga oldi qog'oz-qalamni.
Yosh shoirning o'zi boshladi,
Dilidagi armon, alamni.
Eshitardim bir chekkada men,
G'am chulg'agan edi tanamni.
Meni hech kim ko'rmayotgandi,
Gapirsam ham ovozim chiqmas.
Ular bilan suhbatda bo'lmoq,
Orzu edi men uchun bitmas.
Yosh shoir ovozi g'amgin va mahzun,
"Qani, qizlarimning to'yin ko'rsaydim.
Hayot bo'lsam munis onajonimni,
Olib bir Toshkentda sayr qilsaydim".
Davra eshitardi, davra jim edi,
Chuqur nafas ila kimdir oh tortdi.
O'tkir Hoshimov-ku sevgan yozuvchim,
Bo'g'iq ovozi ila so'ngra so'z qotdi:
"Menga yetar edi hamma-hammasi,
Keragidan ortiq bergandi Xudo.
Dunyo tashvishidan ortmay chamas,
Onamga to'yimayin bo'lgandim judo".
Ko'zim bir shoirga tushdi nogahon,
Shoira ustozning turmush o'rtog'i.
Bahorning kuychisi Hamid Olimjon,
Ha, erta to'kilgandi umr yaprog'i.
Chetda ham bir tanish shoir turardi,
Yuzida tabassum qilmayin kanda.
Anvar Obidjonni hamma bilardi,
Yodimda u yozgan ko'p she'r-u xanda.
Eshikka ko'z qirin tashlab turardi,
Kimmidir kutgandek kelishin poylab.
"Xudoyberdi aka kelmadi" dedi,
Kuldi: "Devlar tutib qo'ygandir boylab".
Yarq etib qaradi hamma u tomon,
Oppoq yuzlariga kulgi yugurdi.
Barchaga kayfiyat ulashgan inson,
Qachon bu dunyodan ketib ulgurdi?
Qattiq eshik qoqdi shunda bir inson,
Ochdilar shu lahza yugurib borib.
Turar ostonada birmas to'rt mehmon,

Yoqamni ushlabman hayratda qolib.
Biri xo'p savlatli, ijodda mergan,
Yodimdan chiqmaydi hech bir asari.
O'sha shum bolaning ta'zirin bergan,
Juda o'tkir edi ustoz nazari.
Biri biz o'zbekka hech o'xshamasdi,
Talas vodiysining buyuk o'g'lioni.
Nobelga loyiqdir har bir asari,
Hayratda qoldirgan butun dunyoni.
Qo'zg'alib o'rindan dedi allakim,
Go'yoki avvaldan kutib turgandek.
"Mening o'rningga ham endi bazmni,
Qizdirib turadi Shuhrat va Oybek".
Ustoz Said Ahmad turdilar shunda,
"Endi men ketaman ruxsat berasiz.
Saida opangiz yolg'iz-da uyda,
Kutib o'tiradi yaxshi bilasiz".
Shoir Abdullajon chehrasi ochiq,
Aytardi bir bora berilsa imkon.
"Yurtimga bag'ishlab yozardim yana,
Qancha qasidalar, she'rilar-u doston".
Shamning shu'lasida taniyolmabman,
Dasturxon to'rida turgan kimsani.
Barcha she'rilarini yod bilardim,
Qani, aytolsaydim bitta misrani.
Ijodga to'polon va to'lqin bilan,
Barchani hayratga solib kelgandi.
Rusning Lermontovi, Tolstoyi hayron,
Sharqda yangi Pushkin paydo bo'lgandi.
Ha, o'sha olovdek yongan chog'ida,
Kul bo'lib sovrilgan u Usmon Nosir.
Hatto o'ttiz uchga yetmas yoshida,
O'zbekning kimligin ko'rsatgan botir.
U hali yosh edi, g'ayratga to'la,
Xalq uchun tirishib ijod qilardi.
O'zbekning yana bir aslidan ko'ra,
G'anim-u dushmanlar o'lsa bo'lardi.
Ustoz Erkinjonning qo'lida qalam,
Hamon nimalardir yozardi tinmay.
Ijod ahli unga termilib turar,
Nima yozmoqda deb halakdir bilmay.
Oxir so'z boshladi qalamni qo'yib,
Ko'zi ajib porlar edi ustozni.
Yuziga salgina tabassum yo'yib,
Muhammadga uzatdi parcha qog'ozni.
"Eh, Muhammad, yosh ekansan-da,
O'ylab topgan savolingga boq.
Seni hamon xotirlar xalqing,
Bu ham javob, ham bo'lsin saboq.
Sen gar bo'lsang haqiqiy shoir,
Xalqing suyib tinglaydi seni.
O'lsam agar kimlar eslar deb,
Sendek shu o'y qiynardi meni.
Yo'q bo'lsak-da ular safida,
Merosimiz yashaydi hamon.
Barchamizning mehnatlarimiz,
Xalqimizning dilida har on.
Turing endi, bas, tarqalaylik,
Suhbatimiz cho'zildi uzoq.
Uxlab qolgan yosh muxlisimiz,
Kitobini o'qisin tezroq".
Tursam qo'llarimda "Ruhlar isyoni",
Mudroq bosib bilmay uxlab qolibman.
Shuncha ijodkorni, shuncha insonni,
G'aroyib va go'zal tushda ko'ribman.

TEMIR ZANJIR

Lobar SHONAZAROVA,
Navoiy davlat pedagogika
instituti talabasi



Bu hikoyalimiz asosan hayotda o'z o'rnini topishda qiynaladigan, hamisha ichki "men"i bilan kurashadigan insonlarga o'zligini topishdagi ko'zgu desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ichki "men"ni topishda muammoga duch keladigan insonlar muammosining sababi to'qson foiz holatlarda bolalikka borib taqaladi. Ya'ni bolalikda fikrlari eshitilmagani, hurmat qilinmagani, o'ziga bo'lgan ishonch hissi shakllantirilmagani hattoki do'konga ham o'zini chiqarmasdan opasi yoki akasini sherik qilib yuborib, hamisha soddaligi, bo'shligi yuziga solingani, doimo aybdorlik ruhida tarbiyalangani, boshqa tengqurlari bilan solishtirilib kamsitilganligi, mustaqil tanlovga qo'yib berilmaganligi (masalan, o'zi tanlagan futbolka yoki ko'ylakni olib bermasdan o'z bilganidan qolmaydigan ota-onalar), moliyaviy erkinlikka qo'yib berilmasligi, qo'lga pul berib nima olib yeyishigacha o'zi belgilab beradigan onalar talaygina. Bunday xattiharakat, munosabatlari bilan bolaning yorqin kelajagiga chang solayotganligi, haddan ziyod zulm o'tkazgani sababli, bolaning o'z joniga qasd qilishigacha borganligiga talaygina misollar keltirishimiz mumkin. Bunday ota-onalar farzandining oyog'iga bir umr yechilmaydigan "temir zanjir" bog'lab qo'yishadi. Bu temir zanjir esa bola ulg'aygani sari kundankunga zanglab, agressiv bo'lib ulg'ayishiga sabab bo'ladi. Natijada o'zingiz ham bilmagan holatda bo'shang, soddagina farzandingizdan o'ta agressiv, pessimist inson tarbiyalab qo'yganingizni kech tushunib yetasiz.

Farzand – bu Allohning sizga bergan eng go'zal tuhfasidir. Aytishadi-ku, "Bebaho narsalar tanlanmaydi" deb. Ota-ona, farzand, qarindosh-urug' eng yomon kuningizda yoningizda turadigan jigarlaringiz tanlanmaydi. Ular shunchaki Allohning sizga ravo ko'rgan eng go'zal tuhfasini va omonatidir.

Omonatga xiyonat qilgan kishining esa jazosi yengil bo'lmaydi, albatta.

Shunday ekan, farzandingizni qarq'ashdan o'zingizni tiying. Eng go'zal so'zingizni, Allohning eng go'zal kalomlarini farzandingizga o'rgating. Ana shunda ikki dunyo saodatiga erishasiz.

Bu hikoyalimiz real voqealarga asoslangan.

Endigina unib-o'sib kelayotgan niholni ham parvarish qilsangiz, undan hosildor daraxtni kashf etasiz va uning mevasidan bahramand bo'lasiz. Agarda u niholni parvarish qilmasangiz, ko'kka bo'y cho'zishdan to'xtaydi, kundankunga so'lib, jamiyat uchun keraksiz xas-cho'p bo'lib qolishdan boshqasiga yaramaydi.

Bundan kelib chiqadiki, "Yaxshi bog'bon parvarish qilgan daraxtgina sermahsul hosil berishi mumkin".

Farzand tarbiyasida ham ota-onaning roli ana shu bog'bon kabi juda muhimdir. Shu Vatanda tug'ilib, o'z kindik qoni to'kilgan yurtga xiyonat qiladigan, eng go'zal go'shalarda buzg'unchilik qilib, ota-onasining yuziga oyoq qo'yadigan farzandlar ham bejizga bu yo'lga kirmagan. Miyasidagi bunday bo'shliqlar, terroristik g'oyalar ham bejizga paydo bo'lmaydi. Bularning barchasi bolalikka bevosita bog'liqdir. Otasining yoki onasining o'ta vahshiy muomalasi, bolalikda odam o'rnida ko'rilmagan past nazar bilan qaralgani, o'zini zo'rligini isbotlash aurasini, aybdorlik ruhida tarbiyalangani, endi o'sib, gullab kelayotgan yosh niholni to'g'ri emas, egri, qiyshiq bo'lib o'sishiga sabab bo'ladi.

Ona yoki ota degan oliy maqomga mos bo'lsak, unga o'z yurish-turishimiz, xarakterimiz, odob-axloqimiz bilan o'rnak bo'la olsak, biz shundagina farzandimizdan yuqori natijalarni kutishimiz mumkin. Hech unutmaylik, azizlar, "Qush uyusida ko'rganini qiladi".



TEMIR ZANJIRGA BIRINCHI QADAM

Peshin mahali. Xadichaning bobosi va buvisi boshchiligida katta oilaviy yig'in bo'lmoqda. Kelinlar dasturxon tuzash bilan ovvora. Oiladagi katta nabiralar qiz farzand bo'lganligi uchun onalariga dasturxon tuzashga va taom tayyorlashga ko'maklashmoqdalar. Qizlarning yoshlari teng bo'lganligi sababli xuddi egiz farzanddek ulg'ayishgan. Ular endigina ikkinchi sinfni tugatganiga qaramasdan, kimo'zarga ish qilishyapti. Yoshlari teng bo'lganligi sabablimi bobosi va onalari tomonidan har doim solishtirib kelingan. Xadicha Madinaga nisbatan soddarog' bo'lganligi bois, soddaligi va bo'shligi har doim yuziga solib kelingan. Shu sababli u o'z qobiliyat va qiziqishlarini yuzaga chiqarishga, fikrlarini to'liqroq bayon etishga qiynaladi. "Agarda noto'g'ri gapirib qo'ysam-chi" degan xayol bilan gapirmoqchi bo'lgan gapini ham aytishga, fikr bildirishga qo'rqadi. Ushbu holat haqidagi izohni hikoya oxiriga qoldiramiz-da, hikoyamizni davom ettiramiz.

O'g'il bolalar esa chug'ur-chug'urlashib koptokning ortidan yugurish bilan band. Barcha akakalar, kelin-u nabiralar dasturxon atrofiga jam bo'lishdi. Oila kattasi, ya'ni bobosi Allohning zikri bilan "Fotiha" surasini o'qidi-da, oshga birinchi bo'lib qo'l uzatdi. Oshdan bir chuqum yedi-yu, taomning mazasini ta'riflab ketdi: "Bay, bay, bay, bunday taomni yemabsan, bu dunyoga kelmabsan".

Madina: "Mening qo'lim tekkanda, bobo, shuning uchun shirin bo'lgan", – dedi ayyorona qosh chimirib.

Yengilgina kulgi ko'tarildi.

Xadicha esa bugun ona tili bilan matematikadan ikkita besh baho olganini maqtanmoqchi edi. Xadicha gapiraman deb turganda onasi: "Xadicha, anqaymasdan ovqatingni ye, bir bo'shangsan-e", – sababsiz koyidi onasi.

Xadicha besh baho olganini maqtanaman deb og'iz juftladi. Gapini ichiga yutdi. Madina o'rtog'ini kalaka qilgandek Xadichaga qarab kuldi.

Bobosi o'rta qo'shildi: "Madina Xadichadan

har taraflama ustun. Bilimda ham, so'zamollikda ham. Xadichaning og'zidan bir og'iz gapni yulib olaman deguningcha esing ketadi".

Madina bu gapdan mamnun bo'lib, maktabdagi yutuqlarini aytishga shoshildi.

Xadicha esa yelka qisib, ko'zida yosh bilan jim qoldi... Axir u ham bugun besh baho olganini, yangi she'r yodlaganini maqtanmoqchi edi-ku...

Go'yoki og'zini temir zanjir bilan qulflangandek his qildi o'zini. Nafasini ichiga yutdi...

Izoh

Hurmatli kitobxon, ushbu holat bo'yicha fikringiz qanday?

Bolalikdagi xarakter umr bo'yi unga hamroh bo'ladi deb o'ylaysizmi?

Ushbu savollarga hikoyalarni o'qish davomida javob topasiz.

Farzandga hech kim ishonmagan taqdirda ham uning birinchi o'rindagi ishonch beradigan, unga kuch-quvvat beruvchisi, qanday fikr bildirishidan qat'iy nazar qo'llab-quvvatlaydigan motivatori onasi bo'lishi kerak. Chunki o'zbek oilalarida farzand tarbiyasi asosan onaga yuklatiladi. Davlat muassasalaridagi kasb-u kori nima bo'lishidan qat'iy nazar birinchi o'rindagi vazifasi farzand tarbiyasi hisoblanadi. Yuqoridagi holatda ham kamchiliklari yuziga solinmasdan, nima yaxshi-yu nima yomonligi o'rgatilganda, fikrlari eshitilib, qo'llab-quvvatlanganda, eng asosiysi, unga ishonch berilganda edi og'ziga temir zanjir tortilmagan bo'lardi. Balki, bu zanjirlar Xadichaning kelajakdagi hayotida ham mustaqil bo'lolmasligiga olib kelar?! Onasi ham o'zi bilmagan holatda o'z farzandining zamoniga temir zanjir soldi. Bu zanjirlar yillar o'tib zanglab, uning sog'ligiga ham ta'sir o'tkazadi. Uning qo'llab-quvvatlanmagan fikrlari, ichida qolib ketgan gaplari esa yillar mobaynida mog'orlab ketishi turgan gap.



SOXTA AXBOROT: GLOBAL MUAMMO VA JAMOATCHILIK ISHONCHINING SO'NISHI



Fotima OSTONOVA,
Buxoro viloyati Kogon tumanidagi
12-umumiy o'rta ta'lim maktabi
bitiruvchisi

So'nggi yillarda dunyo bo'ylab tarqalayotgan soxta axborot (fake news) muammosi jiddiy xavfga aylandi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan noto'g'ri yoki chalg'ituvchi ma'lumotlar keng miqyosda tarqalmoqda. Bu holat jamoatchilikning rasmiy manbalar va bir-biriga bo'lgan ishonchini zaiflashtirmoqda. Dunyo miqyosida bu muammo dolzarbligicha qolmoqda va jamiyatlar o'rtasidagi ishonchni pasaytirayotganini ko'rsatmoqda.

Dunyo miqyosida soxta axborotning tarqalishi nafaqat ma'lum bir davlat yoki mintaqada, balki butun dunyo bo'ylab ishonchning pasayishiga olib kelmoqda. Rasmiy manbalarga, ilmiy tadqiqotlarga va hatto shaxsiy munosabatlarga bo'lgan ishonch sezilarli darajada zaiflashmoqda. Ishonchning yo'qolishi esa ijtimoiy birlik va hamjihatlikka tahdid solmoqda.

Bu muammoning ta'sirini hayotiy misollar va dalillar orqali ko'rish mumkin:

COVID-19 pandemiyasi: Pandemiya davrida noto'g'ri tibbiy ma'lumotlarning tarqalishi ko'plab odamlarning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, "COVID-19 vaksinalari odamlarni genetik jihatdan o'zgartiradi" degan soxta xabarlar ko'plab odamlarning vaksinadan voz kechishiga sabab bo'ldi. Natijada pandemiyaning oldini olish va nazorat qilish choralari qiyinlashdi va ko'plab odamlar kasallikka chalinish xavfi ostida qoldi.

2016-yilgi AQSh prezidentlik saylovlari: AQShda 2016-yilgi prezidentlik saylovlari vaqtida tarqalgan soxta xabarlar saylov jarayoniga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. "Pizzagate" deb atalgan soxta axborot kompaniyasi bir qator noto'g'ri da'volar tarqatdi, natijada bir kishi

Vashingtondagi pizza restoraniga hujum qildi. Ushbu voqea saylov jarayoniga ishonchni pasaytirib, jamoatchilik orasida chuqur bo'linishlar keltirib chiqardi.

Brexit referendumi: 2016-yilda Buyuk Britaniyada o'tkazilgan Brexit referendumida davomida tarqalgan soxta xabarlar va dezinformatsiya ovoz beruvchilarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, "Brexit natijasida sog'liqni saqlash tizimi uchun haftasiga 350 million funt sterling qo'shimcha mablag' ajratiladi" degan noto'g'ri ma'lumot ko'plab odamlarning ovoz berish qaroriga ta'sir qildi. Keyinchalik bu da'vo yolg'on ekanligi fosh etildi, lekin allaqachon jamoatchilik ishonchi zarar ko'rdi.

Bu kabi muammolarning oldini olish uchun bir qancha usullar bor. Masalan, jamiyatda mediasavodxonlikni oshirish, ya'ni odamlarga ma'lumot manbalarini tekshirish va haqiqiy axborotni soxta axborotdan ajratish qobiliyatini o'rgatish muhimdir. Ta'lim muassasalari bu borada katta rol o'ynashi mumkin. Bunga qo'shimcha ravishda hukumatlar, nodavlat tashkilotlar va xalqaro hamjamiyatlar soxta axborotning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha hamkorlikda dasturlar ishlab chiqishi kerak. Bu global muammo bo'lganligi sababli, yechimlar ham global miqyosda bo'lishi zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, soxta axborot va jamoatchilik ishonchining so'nishi muammosi global miqyosda dolzarbdir. Ochiq va haqqoniy axborotga asoslangan jamoatchilik ishonchini tiklash uchun har birimiz o'z hissamizni qo'shishimiz kerak. Bu jamiyatimizning kelajagi uchun muhimdir, chunki ishonchli axborot va o'zaro ishonch barqarorlik va taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tashkil etilgan
"Turon" maktab teatr tanlovida g'oliblikni qo'lga kiritgan
o'quvchilarning sahna ko'rinishlari.

